


**S.K. Djumabayeva**

**GEOGRAFIYA VA IQTISODIY  
BILIM ASOSLARINI O'QITISH  
METODIKASI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**S.K. Djumabayeva**

**GEOGRAFIYA VA IQTISODIY BILIM  
ASOSLARINI O'QITISH METODIKASI**

*(O'quv qo'llanma)*

Toshkent  
«Sarbon LLS»  
2024

UO'K 911;37.0  
KBK 26.8  
D-10

S.K. Djumabayeva / Geografiya va iqtisodiy bilim asoslarini o'qitish metodikasi / [O'quv qo'llanma]: - Toshkent. Sarbon LLS - 2024.- 174 bet.

#### **Taqrizchilar:**

**Geografiya kafedrası prof. A.K.Urazbaev**  
**Geografiya kafedrası mudiri, dots. F.A.Xamroyeva**

#### **Annotatsiya**

Respublikamizda so'nggi yillarda yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularni o'qitish jarayonida raqamli ta'limni joriy etish, o'qitishning zamonaviy metodlari asosida aniq va rasmiy manbalarga tayanilgan holda ma'lumotlarni talabalarga tezkor yetkazishga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, mamlakatimizda "o'qitish usullarini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, talabalarda o'qishga sog'lom, kuchli va ta'sirchan motivatsiyani shakllantirish" ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda.

Ayniqsa, hozirgi murakkab axborotlarni, geografik hodisa va sabab oqibatlarini, tabiiy va iqtisodiy geografiya tushunchalarini o'quvchilar ongiga etkazish va shakllantirish nihoyatda murakkab jarayon hisoblanadi. Maktab dasturi o'quvchilarga faqat geografiyaga oid bilim berish bilan cheklanmaydi, balki ularda zarur ko'nikma va malaka hosil qilishni ham o'z zimmasiga oladi.

O'quv qo'llanma Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-maydagi 232-sonli buyrug'iga asosan nashrga ruxsat etilgan.(Guvohnoma № 232-288)

ISBN 978-9910-751-66-0

#### **Kirish**

Jamiyat taraqqiyotini har tomonlama etuk o'qituvchilarsiz tasavvur etish qiyin. Malakali pedagog mutaxassislar tayyorlash esa ko'p jihatdan ularning metodik tayyorgarligiga bog'liq. Ayniqsa, hozirgi murakkab axborotlarni, geografik hodisa va sabab oqibatlarini, tabiiy va iqtisodiy geografiya tushunchalarini o'quvchilar ongiga etkazish va shakllantirish nihoyatda murakkab jarayon hisoblanadi. Maktab dasturi o'quvchilarga faqat geografiyaga oid bilim berish bilan cheklanmaydi, balki ularda zarur ko'nikma va malaka hosil qilishni ham o'z zimmasiga oladi. Har bir o'quvchi darsda olgan ko'nikma va malakalar asosida bilimlarni mustaqil egallash zarur bo'ladi. Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq umumiy o'rta ta'limning barcha bo'g'inlarida o'quvchilarning muntazam bilim olishi, ularda bilim olish ehtiyojini rivojlantirishni, o'quvchilarda mehnat ko'nikmalari, mustaqil ijodiy fikrlash, kasb tanlashga va atrof muhitga ongli munosabatni hosil qilishni, milliy va umumbashariy qadriyatlarini hurmat qilishni, o'z vataniga, xalqiga sadoqat, mehr muhabbat ruhida tarbiyalash vazifalari belgilandi. Bu vazifalarni bajarishda geografiya ta'limi alohida salmoqqa ega. Ayniqsa tabiiy va iqtisodiy geografiya kurslarini o'qitish borasida milliy dasturda qo'yilgan vazifalarni bajarish cheksiz imkoniyatlarga ega ekanligini tajribalarisbotlamoqda. Bularning barchasi geografiya o'qituvchisidan pedagogik faoliyatdagi yutuq kamchiliklarini tahlil qila olishni, o'z ish tajribasini tahlil qilib, umumlashtira bilishni, boshqa o'qituvchilarni tajribasini umumlashtirish, samarali ta'lim shakllari, metodlardan o'z ishida oqilona foydalanishni talab qiladi.



## 1-MAVZU: GEOGRAFIYA O'QITISH NAZARIYASI VA METODIKASI FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI.

### Reja:

1. Geografiya o'qitish nazariyasi va metodikasi, uning o'rganish ob'ekti.
2. Geografiya o'qitish nazariyasi maqsadi.
3. Geografiya o'qitish nazariyasining muhim vazifalari va tarkibiy qismi.

**Tayanch iboralar:** *Pedagogika, fanlar tizimi, geografiya fanlar tizimi, iqtisodiy geografiya fanlar tizimi, maxsus geografiya, metod, metodika, didaktika, usullar.*

**Kirish.** Jamiyat taraqqiyotini har tomonlama etuk o'qituvchilarsiz tasavvur etish qiyin. Malakali pedagog mutaxassislar tayyorlash esa ko'p jihatdan ularning metodik tayyorgarligiga bog'liq. Ayniqsa, hozirgi murakkab axborotlarni, geografik hodisa va sabab oqibatlarini, tabiiy va iqtisodiy geografiya tushunchalarini o'quvchilar ongiga etkazish va shakllantirish nihoyatda murakkab jarayon hisoblanadi. Maktab dasturi o'quvchilarga faqat geografiyaga oid bilim berish bilan cheklanmaydi, balki ularda zarur ko'nikma va malaka hosil qilishni ham o'z zimmasiga oladi. Har bir o'quvchi darsda olgan ko'nikma va malakalar asosida bilimlarni mustaqil egallash zarur bo'ladi. Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq umumiy o'rta ta'limning barcha bo'g'inlarida o'quvchilarning muntazam bilim olishi, ularda bilim olish ehtiyojini rivojlantirishni, o'quvchilarda mehnat ko'nikmalari, mustaqil ijodiy fikrlash, kasb tanlashga va atrof muhitga ongli munosabatni hosil qilishni, milliy va umumbashariy qadriyatlarini hurmat qilishni, o'z vataniga, xalqiga sadoqat, mehr muhabbat ruhida tarbiyalash vazifalari belgilandi. Bu vazifalarni bajarishda geografiya ta'limi alohida salmoqqa ega. Ayniqsa tabiiy va iqtisodiy geografiya kurslarini o'qitish borasida milliy dasturda qo'yilgan vazifalarni bajarish

cheksiz imkoniyatlarga ega ekanligini tajribalar isbotlamogda. Bularning barchasi geografiya o'qituvchisidan pedagogik faoliyatdagi yutuq kamchiliklarini tahlil qila olishni, o'z ish tajribasini tahlil qilib, umumlashtira bilishni, boshqa o'qituvchilarni tajribasini umumlashtirish, samarali ta'lim shakllari, metodlardan o'z ishida oqilona foydalanishni talab qiladi.

1. Geografiya o'qitish nazariyasi va metodikasi, uning o'rganish ob'ekti. Geografiya o'qitish metodikasi pedagogika fanlari tarkibiga kiradi. Bu fan maktablarda tabiiy va iqtisodiy geografiya asoslarini o'qitish jarayonini o'rganadi. U umumiy didaktika bilan bog'langan. Didaktika-ta'limning mazmunini, o'quv jarayonini va tarbiyaning asosiy qonuniyatlarini o'rganadigan nazariy fandir. Ammo u aloqida fanlarni ukitish jarayoni bilan shug'ullanmaydi. Pedagogika bola tarbiyasi xaqidagi fandir. Tarbiya mohiyatini, maqsadlarini, vazifalarini va qonuniyatlarini, ta'lim jarayoni qonuniyatlarini aniqlab beradi. pedagogika tarbiya nazariyasini, didaktika va maktabshunoslikni o'z ichiga oladi. pedagogika fani quyidagi tarmoqlarga bo'linadi: a) maktabgacha yoshdagilar pedogogikasi; b) maktab pedagogikasi; v) hunar-texnika ta'limi pedagogikasi; g) oliy ta'lim pedagogikasi; d) harbiy pedagogika; j) pedagogika tarixi.



Geografiya o'qitish metodikasi umumiy va xususiy bo'limlardan iborat. Umumiy metodika o'z navbatida tabiiy va iqtisodiy geografiyani o'qitish metodikasiga bo'linadi. Xususiy metodika asosan maktab geografiyasining alohida kurslarini o'qitish usullari bilan shug'ullanadi.





**Umumiy metodika** - bu geografiyaning didaktikasi, ya'ni uning umumiy nazariy qismi bo'lib, geografiya o'qitish jarayonini umumiy masalalari bilan shug'ullanadi. Umumiy metodika nazariy va metodologik muammolarni o'rganadi - ya'ni predmetning o'zini, logikasini va ilmiy tekshirish usullarini o'rganadi, asosiy e'tiborni o'quv-tarbiya muammolarini ishlab chiqishga qaratadi.

**Xususiy metodika** - alohida kurslarni o'qitish metodikasi bilan shug'ullanadi, umumiy nazariy usullarni alohida kurslarni o'qitish jarayonida qo'llash muammolari bilan shug'ullanadi. Xususiy metodika asosan alohida kurslar bo'yicha o'quv-tarbiya jarayonlarini o'rganadi, alohida kurslarni mazmuni va tuzilishini ishlab chiqadi.

Geografiya ta'limi metodikasi geografiya fani bilan uzviy bog'liq bo'lib, u geografiya metodikasi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Geografiya fanlari bilan aloqadorlik, maktab geografiyasi mazmunini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Maktab geografiyasi mazmuni uzluksiz takomillashib borishi tufayli keyingi yillarda maktab geografiya kurslarida tabiiy, xududiy ishlab chiqarish komplekslari, bozor iqtisodi kabi tushunchalarning kiritilishi, tabiiy sharoit va resurslardan oqilona foydalanish zaruriyatini tug'dirdi. O'quvchilarning TTK (TXM) va bozor iqtisodiga oid tushunchalar haqida puxta bilimga ega bo'lishi ularga ekologik, iqtisodiy tarbiya elementlarini singdirish imkoniyatlarini ham vujudga keltiradi. Demak geografiya o'qitish metodikasi ekologiya kartografiya, geologiya, iqtisod, fizika, biologiya va boshqa fanlar bilan mustahkam aloqaga ega. Hozirgi kunda eng muhim muammolaridan biri geografiya darslarida jamiyat bilan tabiat,

inson bilan tabiat o'rtasidagi murakkab aloqadorlikni o'rganish asosiy masala hisoblanadi. SHu tufayli ham maktab geografiya kurslariga geografik bilimlardan tashqari ekologik va iqtisodiy tushunchalar ham kiritila boshlandi. Geografiyaga yaqin bo'lgan fanlar o'qitish metodlari va vositalarini tanlashga ham o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmadi. Buni geografiya ta'limiga kartografik, statistik, kuzatish, taqqoslash metodlarining kiritilish va ishlatilishidan bilsa ham bo'ladi. Chunonchi maktab geografiyasi kurslarini kartasiz, ko'rgazmali qurollarsiz, texnika vositalarisiz va zamonaviy AKTlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Geografiya o'qitish metodikasi geografiya fanining bazi bir tekshirish metodlaridan foydalanar ekan, o'quvchilarning bilimlarini yaxshirok o'zlashtirishlarini va ularni geografiya fanining bazi tadqiqot usullari bilan tanishtirishni ko'zda tutadi.


Geografiya ta'limi metodikasi, pedagogika fani tarmoqlariga kiruvchi didaktika, psixologiya fanlari bilan ham chambarchas bog'liq. Geografiya metodikasi didaktikaning asosiy qoidalarini geografiya o'qitish jarayoniga tadbiq etishda uning mazmuniga xos xususiyatlarni ham e'tiborga oladi. Didaktika geografiya o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari o'rtasidagi qonuniy munosabatlarni oydinlashtiradi va shu asosida o'qitishning maqsadi, mazmuni, usullari hamda o'qitish jarayonini jihozlashga doir talablarni belgilab beradi. Demak, didaktika barcha fanlar uchun ta'limining umumiy qonuniyatlari va nazariyalarini yaratasa, metodika didaktikaning fanlarni o'qitish haqidagi umumiy nazariyasini ma'lum bir o'quv fani, ya'ni geografiyani o'qitish jarayoniga tadbiq etish bilan uni yanada aniqlashtiradi va to'ldiradi. Shunga asosan, didaktika va geografiya o'qitish metodikasi fanlari bir-birlarini to'ldirib turadi deyishga to'la asos bor. Metodika to'plagan materiallar didaktika faniga nazariy tahlil uchun manba bo'lishi mumkin. Geografiya o'qitishda o'quvchilarning yoshi, bilimi, fikrlash qobiliyati va umuman ruhiy faoliyatini e'tiborga olmasdan turib, ularning o'quv faoliyatiga samarali tasir etib bulmaydi. Shu tufayli geografiya metodikasi psixologiya fani bilan ham



uzviy bog'liqdir. Psixologiya fanining hozirgi bosqichdagi taraqqiyoti maktabda fanlarni o'qitish jarayonini ilmiy asosda har tomonlama chuqur tadqiq etish va uni o'qitishni yanada takomillashtirish uchun zarur imkoniyatlarni yaratib beradi. Geografiya o'qitish metodikasi ham geografiya o'qitish jarayonini o'rganishda psixologiya faniga tayanadi. Psixologiya o'quvchilardagi ruhiy faoliyatning umumiy qonuniyatlarini o'rgansa, metodika esa, o'quvchilarning ruhiy faoliyatini ularning geografiya ob'ekti va hodisalarini o'zlashtirishlari bilan bog'liq bo'lgan tomonlarnigina tadqiq qiladi. Metodika bilan psixologiyaning eng muhim bog'liqlik tomoni shundaki, bunda geografiya o'qitishning mazmuni va metodlari bilan ruhiy faoliyat orqali erishiladigan natijalar o'rtasidagi qonuniyatli boglanishlar tadqiq kilinadi. Turli geografik ob'ektlarning kartadagi joylashishini fazoviy tasavvurlarsiz egallab bo'lmaydi. Bunda albatta psixologiya fani bilimlariga tayaniladi. Demak, geografiya ta'limi metodikasi o'qitishda yaxshi natijalarga erishish uchun o'quvchilarning geografiya materialini puxta o'zlashtirishi bilan o'quvchilarning ruhiy faoliyati o'rtasidagi qonuniyatli boglanishlarni hamo'rganadi, o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda psixologiya faniga tayanadi va psixologik tekshirish metodlaridan ham foydalanish yo'llari ko'rsatib beradi. Shunday qilib, u o'zining mustaqil tekshirish predmetiga ega bo'lib, boshqa fanlarga tayangan xolda mazmunan boyib, takomillashib boradi.

**2. Geografiya o'qitish nazariyasi maqsadi.** Bilish nazariyasi geografiya o'qitish metodikasining metodologik asosini tashkil qiladi va quyidagi nazariy -amaliy muammolarni tadqiq qiladi; *ilmiy tadqiqot usullari va fanning predmeti; chet ellarda va O'zbekistonda geografiya ta'limi; geografiya alohida kurslari bo'yicha o'qitishning maqsadi va vazifalari; geografiya bilimlarni egallashda ta'lim va tarbiyaning birligi; geografik bilim, ko'nikma, malaka va dunyoqarashni shakllantirish; geografiya ta'limi jarayonining qonuniyatlari geografiya o'qitishning maqsadi:*

## 2-ilova Geografiya o'qitishning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:



Yuqoridagi tarkibiy qismlar o'rtasidagi mustahkam aloqa mavjud. Masalan: o'rganiladigan mavzuning maqsadi, ta'lim-tarbiya vazifalari mazmuniga mos keladigan ta'lim shakllari, o'qitish usullari hamda vositalaridan maqsadga muvofiq tarzda foydalana bilishni taqozo qiladi. Geografiya ta'limi metodikasining nazariy metodologik masalalari ko'pgina metodist-geograf olimlar A.E.Bibik, V.Darinskiy, G.P.Gerasimova, M.K.Kovalevskaya, I.S.Matrusov, L.M.Panchyoshnikova, M.V.Rijakov, O.A.Mo'minov, X.X.Xasanov, P.G.Musaev va boshqalar asarlarida o'z ifodasini topgan. Geografiya ta'limi metodikasi fani umumiy metodika, metodikaning nazariy masalalari, tabiiy va iqtisodiy geografiyani o'qitish metodikasi kabi qismlardan iborat. O'z navbatida ularning har biri xususiy metodikalar (maktab geografiya kurslarini alohida o'rganish



metodikalarini) o'z ichiga oladi. Umumiy metodika maktab geografiyasi kurslari uchun o'qitish qonuniyatlarini ya'ni o'qitishning umumiy mazmuni va maqsadini tashkil etilishini, ta'lim metodlari, ta'lim vositalari, sinfdan tashqari ishlar va boshqalarni o'rganadi. A.V.Darinskiy umumiy metodikani geografiya didaktikasi deb aytgan edi. Xususiy metodika maktab geografiya kurslarining maqsadi, mazmuni, tarkibi, geografik bilim, ko'nikma malakalar shakllantirish, har bir kurs bo'yicha o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish va h.k.lar bilan shug'ullanadi. **Geografiya ta'lim metodikasi:** -maktab geografiyasining ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlari; -geografiya ta'limining mazmuni; -geografiya o'qitishning shakl va usullari; ta'lim jarayonida geografiya o'qitish vositalari (dasturlar, darsliklar, atlas haritalar, o'quvchi va o'qituvchilar uchun ilmiy metodik qo'llanmalar va boshqalarni yaratish); -o'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirishlari; - ta'lim jarayonida o'quvchilar fikrlashining rivojlanishi bilan bog'liq vazifalarni hal qiladi.

A.M.Pancheshnikova ta'biri bilan aytganda, geografiya ta'limi metodikasi fani quyidagi muammolarni: *O'qitish maqsadi* «geografiyani nima uchun o'qiymiz?» geografiya ta'limi mazmunini (nimani o'qitamiz?), geografiya ta'limi vositalarini (nimalar yordamida o'qitamiz?) o'qitishning shakl va usullarini (qanday o'qitamiz?) tadqiq qiladi.

**3. Geografiya o'qitish metodikasi fanining vazifalari:** Geografiya o'qitish metodikasi vazifalari quyidagilardan iborat. Maktab geografiya kurslarining sinflar bo'yicha maqsadi, mazmuni va ahamiyatini belgilash ular mazmunini takomillashtirish, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda geografiya fanidagi asosiy g'oya, fakt tushuncha va qonuniyatlarni ajratib olish:

➤ o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan xolda tanlab olingan bilimlarni o'zlashtirishga imkon beradigan ta'lim usullarni aniqlash;

➤ geografiyaga oid malmotlar asosida o'quvchilarda voqea va hodisalarga nisbatan dunyoqarash shakllantirish

va o'quvchilarni milliy kadriyatlar va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yo'llarini ko'rsatib berish;

➤ o'quvchilarga amaliy ko'nikma va malakalarni singdirish imkoniyatlarini aniqlash;

➤ ta'lim jarayonida o'quvchilar faolligini oshiradigan va bilimlarini mustaqil egallashga yordam beradigan samarali metodlarni aniqlash;

➤ geografiya darslarida o'quvchilarga mehnat, kasb, ekologik, iqtisodiy, ahloqiy, estetik, milliylik tarbiya berish vazifalarini ochib berish;

➤ ta'limni tashkil etishning zamonaviy shakllarini va ular samaradorligini ishlab chiqish va sinalgan o'qitish metodlarini takomillashtirish;

➤ geografiya darslarida ilg'or pedagogik texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish;

➤ kurslar bo'yicha o'quvchilarning yoshiga mos keladigan o'quv qurollariga bo'lgan talablarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish metodikasini yaratish;

➤ o'quvchilarni o'lkashunoslik va sinfdan tashqari ishlarini mazmuni turlari va metodikasi bilan tanishtirish; fanga oid ilmiy - ommabop adabiyotlarni yaratish;

Demak geografiya o'qitish metodikasi vazifalarini 3ta guruhga ajratish mumkin:

1. Geografiya metodikasi o'quvchiga geografiyadan qanday bilimlar berishi zarurligi, kursda beriladigan bilim, ko'nikma malakalarini shakllantirish yo'llarini;

2. Ta'lim jarayonini uyushtirish va tashkil etish shakllarini aniqlashni va har bir shaklga mos keladigan metod, jihozlari, sinfdan tashqari ishlar va h.k. belgilashi.

3. o'quv materiallarini o'zlashtirish, jarayonida ularning tarbiyalanishi, ta'lim jarayonida fikrlash qobiliyatlari rivojlantirishi kabilardan iborat bo'ladi.



**Talabalar bilimini mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. Geografiya o'qitish metodikasi fanining mazmuni nimalardan iborat?
2. Qanday fanlar pedagogika fanlari tizimini tashkil etadi?
3. Geografiya o'qitish metodikasi qanday muammolarni tadqiq etadi?
4. Umumiy va xususiy metodika deganda nimani tushunasiz?

**2-MAVZU: GEOGRAFIYA TA'LIMDA ILMIY TADQIQOTLARINI TASHKIL ETISH**

**Reja:**

1. Geografiya ta'limi metodikasining tadqiqot usullari
2. Pedagogik eksperiment
3. Metodik tadqiqot jarayoni bosqichlari

**Tayanch iboralar:** *Ilmiy tadqiqot, metodik tadqiqot, tadqiqot metodlari, eksperimental - empirik metod, nazariy metod, bilimlarni didaktik taxlil etish, surovnomalar, kuzatish, suxbat uyushtirish metodlari, statistik-matematik metod, tarixiylik metodi, pedagogik eksperiment, pedagogik tajriba, ped-eksperiment turlari, faraz, eksperimental sinf, nazorat sinf, tadqiqot bosqichlari, eksperiment materiallari, tadqiqot xulosalari.*

Geografiya ta'limi metodikasining tadqiqot usullari. Geografiya o'qitish metodikasi bilan geografiya fanining uzviy bog'liqligini yuqoridagi mavzuda ko'rib chiqdingiz. Geografiya o'qitishning mazmuni o'quvchilarga geografik ob'ektlar, hodisalar, voqealar va ularning sabablarini tushuntirishdan iborat. Shu jihatdan olganda o'quvchilarning yuqoridagilarni o'rganishi, ularni bilish yo'llari qandaydir tadqiqotga o'xshab

ketadi. O'quvchilar geografiyani o'rganishda olimlar tomonidan ilmiy jihatdan tekshirilgan va taxlil qilingan dalillar hamda ilmiy xulosalarga asoslanish bilan birga, bazan geografiya manbalarini o'rganishasosida geografik voqea va hodisalardan umumiy xulosalar chiqarishda hamfoydalanishlari mumkin. Birok o'quvchilarning geografiya o'rganishi ilmiy tekshirishdan bir muncha fark qiladi. Aslida o'qitish jarayonida o'quvchilar geografiya fanining bazi tadqiqot usullari bilan tanishadilar xolos.

Geografiya o'qituvchisi, o'qitish metodikasiga oid bo'lgan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish uchun zarur ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Afsuski, aksariyat geografiya o'qituvchilari bu borada etarli tasavvurlarga ega emaslar.

Geografiya ta'limi metodikasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar uyushtirishda boshqa fanlar qatori dialektik metodologiyaga amal qilinadi. Chunki tadqiqot metodlari xilma-xil bo'lsa ilmiy bilish metodologiyasi esa yagonadir. Geografiya ta'limi metodikasi bo'yicha dialektik materializm (bilishning umumiy metodi) asosida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda eksperimental - empirik va nazariy usullariga tayaniladi. Eksperimental-empirik usul, tadqiqotning ilk bosqichlarida, ya'ni tadqiqot muammolari bo'yicha faktlar yig'ish jarayonida keng qo'llaniladi. Bu usul ayniqsa xulosalarni qayta tekshirish va aniqlashda qo'l keladi. Empirik usul o'z navbatida maktablar tajribasini o'rganishva eksperiment usullariga tayangan xolda amalga oshiriladi.

Geografiya ta'limi metodikasi fani ilk rivojlanishi davrida eksperimental - empirik metodini ko'proq qo'lladi. Keyingi yillarda nazariy metodlar asosidagi ilmiy tadqiqotlar ancha rivojlandi.

Xususan bilimlarni didaktik jihatidan taxlil qilish orqali o'quv predmetini yaratish, o'quv materialini mantikan taxlil qilaolish, o'quv materialidagi geografik, iqtisodiy, ekologik tushunchalarni taxlili nazariy metodlar asosini tashkil qiladi. Ayniqsa o'qituvchi faoliyati bilan o'quvchi faoliyati o'rtasidagi bog'liqlik masalalari, dars maqsadi bilan mazmuni, ta'lim



metodlari bilan tarbiya orasidagi aloqalarni tadqiq qilish nazariy metodlar negizini tashkil qiladi. Shuni ta'kidlash kerakki hozirgi kunda geografiya o'qituvchilari o'z ishlariga tanqidiy yondashishi orqali hamilmiy ishlarni boshlashi mumkin. Bunday ishlar darslarni rejalashtirish jarayonidan boshlanishi zarur. Geografiya o'qituvchisi har bir darsning vazifasini, maqsadini, mazmunini ularni egallashda qanday ta'lim metodlari va vositalari qo'llanishini, o'quvchilarning faoliyati nimalardan tashkil topishini oldindan aniqlab olishi kerak. Eng muhimi darslar o'rtasidagi aloqadorlik va bog'liqligining nimalarda aks etishi dars rejalarida o'z aksini topgan bo'lishi lozim. Darslarda geografiya ta'limi metodikasi bo'yicha ilmiy tadqiqot usullari masalalari metodist olimlar A.E.Bibik, M.L.Panchyoshnikova, I.V.Dushina, P.Musaev, O.A.Mo'minov tadqiqotlarida atroflicha umulashtirilgan. Tadqiqot usullarini tanlash qo'yilgan maqsad va vazifalarga bog'liq. Eng avvalo, qo'yilgan metodik muammo dolzarbligining maqsad va vazifalarini belgilash uchun maxsus adabiyotlarni nazariy jihatidan taxlil qilish zarur. Agar bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirishning samarali usul va vositalarini izlamoqchi bo'lsak, avvalo uni o'quv jarayonini taxlil qilishdan boshlamok kerak. Buni eksperiment asosida, o'qitish, surovnomma yordamida, o'quvchi va o'qituvchilar bilan suxbatlar tarzida uyushtirish mumkin. Har qanday tadqiqotda nazariya metodi etakchi o'rinni egallaydi. U o'z navbatida bir kancha usullarni, xususan: adabiyotlar taxlili, statistik-matematik, tarixiy va taqqoslash metodlarini o'z ichiga oladi. Geografiya ta'limi metodikasi bo'yicha tadqiqot olib boruvchilar, eng avvalo geografiya falsafa didaktika, pedagogika, psixologiya, mantiq, bilish nazariyasi kabi fanlarini chuqur o'rganib chiqishilari zarur. Ularda tadqiqot uchun, taqqoslash va qiyoslashga oid bo'lgan malumotlar tuplanadi. GO'Mbo'yicha olib boriladigan tadqiqotlarda stastistik-matematik metodlarning hamroli katta. Bunda tajriba o'tkazilaetgan sinflar va maktablardagi ish natijalarini e'tiborga olish keng qo'llaniladi. Olingan miqdoriy ko'rsatkichlarga tayanib u yoki bu metodning, usulning, vositalarning kanchalik

samara berishligini aniqlash imkoniyati tugiladi. Statistik, matematik metodning eng muhim xususiyatlaridan biri shuki, ular yordamida, pedagogika va uslubiy hodisalar o'rtasidagi qonuniyatlarni ochish imkoniyatlari yaratiladi. Masalan, tajriba sifatida qo'llanilaetgan ta'lim metodi o'quvchilarning bilim va ko'nikmalariga, bilish faoliyati faolligiga qay darajada tasir qilishini o'rganishga yordam beradi.

Geografiya o'qitishda tarixiylik metodining ham o'rni bor. Ma'lumki, vaqt o'tishi bilan u yoki bu metod yoki vositaning o'zgarishi va rivojlanishiga tarixiy nuqtai nazardan yondoshib xulosalar chiqariladi. Masalan, tadqiq etilayotgan muammoning bundan 30 yil oldingi holatini hozirgi kun bilan qiyoslab tankidiy nuqtai nazardan yondashish tarixiylik metodining negizini tashkil qiladi. Taqqoslash metodi ham tadqiqot ishlarida keng qo'llaniladi. Ayniqsa ilg'or tajribalarni qiyoslash, chet ellarda geografiya o'qitishda qo'llanilaetgan metodlarni, bizning vatanimizda qo'llanilaetgan metodlar bilan taqqoslash samarali natijalar beradi. Eksperimental-empirik tadqiqot usullariga ta'lim jarayonini kuzatish, pedagogik faoliyatini o'rganishva umumlashtirish, so'rovnoma o'tkazish, pedagogik eksperiment uyushtirishlar ham kiradi. Bu usullar mavjud o'quv dasturlarini takomillashtirishda, o'qituvchilarni ilmiy uslubiy saviyasini oshirishda katta rol uynaydi. Geografiya o'qitish borasidagi ilmiy-metodik ishlarda odatda bir necha tadqiqot metodlari birgalikda qo'llaniladi. Aytaylik, o'quvchilarning bilimi, ko'nikmalari haqida malumotlar tuplanaetgan bulsin, bu yerda kuzatish, so'rovnoma o'tkazish, o'quvchilar bilan suxbat, maktab xujjatlarini o'rganishkabi boshqa bir necha usullardan unumli foydalanish takozo etiladi.


Kuzatish. Ilmiy tadqiqot metodlari ichida eng keng tarqalgan metodlardan biri bo'lib, u har bir tadqiqotchi uchun juda zarurdir. O'qituvchining maxorati, muvafaqqiyati ko'p jihatdan kuzatuvchanlikka bog'liq. Kuzatishga kirishishdan oldin uning dasturini tuzib chiqish kerak. Kuzatish maqsadi puxta va aniq bo'lishi talab etiladi. Geografiya ta'limida kuzatish ob'ektlari sifatida o'quv ish usullari, o'quvchilarning amaliy va



mustaqil ishlari, hamda ta'lim vositalarini qo'llash va x.klar bo'lishi mumkin. Geografik tasavvur va tushunchalarning shakllanish jarayoni ham kuzatish metodini talab qiladi. Kuzatishni yozib borish uchun kundalik yuritish zarur.

### 1-ilova

#### Quyida maktab tajribasini o'rganishda kuzatish dasturidan namuna



a) Yakunlovchi amaliy ishlarning barchasi o'tkaziladimi

b) qaysi amaliy ishlar o'tkazilmadi, nima uchun?

v) har bir yakunlovchi amaliy ish uchun kancha vaqt sarflandi;

g) yakunlovchi amaliy ishi bajarishda o'qituvchi va o'quvchilar qanday qiyinchiliklarga duch keldilar, bu qiyinchiliklar nimalardan iborat?

d) o'qituvchi dasturdagi amaliy ishlar mazmuniga va uyushtirish shakliga o'zgartirish kiritadimi, ularni nima bilan isbotlaydi.

e) dasturdagi boshqa amaliy ishlarga o'qituvchilarning munosabati ularni qanday shaklda o'tkazadi, yakka tartibda, yoppasiga, sinfda, uyda, baholaydimi, qaysilarini o'tkazmaydi, sababi) darsning qancha qismi (foizi) uni bajarishga

a) dasturda ko'rsatilgan fanlararo bog'liqlik uyush-

tiriladimi: g) qaysi mavzuda qanday fanlar bilan bog'liqlik yoritilmadi: Darsning qancha qismi (foizi) fanlararo bog'liqlariga sarflandi

d) o'qituvchi fanlararo bog'liqlik mazmuniga qanday to'ldirish va o'zgartirishlar kiritdi ular nimalarda aks etdi?

Geografiya ta'limi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarida so'rovnoma usuli ham keng qo'llaniladi. So'rovnomalar ilmiy tadqiqotlar mazmuniga muvofiq o'qituvchi, metodistlar, o'quvchilar uchun alohida tuziladi. Bundan maqsad biror metodik muammo bo'yicha malumot tuplashdir. Masalan; tabiiy geografiya fanlari bo'yicha ta'lim metodlarini yanada takomillashtirish maqsadidagi so'rovnomalarda geografiya o'qituvchilarga quyidagi savollar havola etilishi mumkin.

1. O'quvchilarning o'quv faoliyatini tashkil qilishda qanday metodlardan foydalanasiz: a) yangi material o'tishda b) bilimlarni tekshirishda (reyting tizimida)

2. Darsingizda qanday metodlar yetakchi.

3. Darslaringizda 6-7-8 sinf o'quvchilarning ishlaridagi fark nimalarda aks etadi.

a) karta bo'yicha; b) darslik bo'yicha v) o'quv kartinalari, jadvallari bo'yicha; g) ekran qo'llanmalari va AKTlardan foydalanish bo'yicha (har bir sinf uchun)

4. O'quvchilar qobiliyatini qanday metod va vositalar yordamida oshiriladi?

5. O'quvchilarning bilish faoliyati qanday taxlil etiladi: a) bilimlarni tayyor xolda berasizmi?; b) materialning faqat bir qismini tushuntirasizmi?; v) barcha materialni o'quvchilar mustaqil o'rganadilarmi (misollar bilan h.k.)

O'quvchilar o'rtasida ham surovnomalarda o'tkaziladi. Quyida o'quvchilarning sinfda bajarishlari uchun mo'ljallab tuzilgan so'rovnomadani misollar keltiramiz. Surovnomalardan olingan natijalar respublika yoki viloyat maktablarida har-xil natijalar beradi. Bunday surovnomalar o'rganilaётgan pedagogik hodisa yoki voqealikning qanchalik to'g'ri qo'yilganligini ko'rsatadi. Chunki har-bir maktab turlicha sharoitlarda joylashgan va xilma-xil imkoniyatlarga egadirlar.



## O'QUVCHILAR UCHUN 80^O^OMA.

Darsda yangi material qay usulda o'rganilganda yaxshi tushunasiz va eslab qolasiz. (+ ishorasini materialni yaxshi tushuna olganingizda - ishorasini esa o'quv materialini yaxshi tushuna olmaganingizda ko'ying).

| №   | Yangi materialni o'rganish usullari                                                                                                                  | + | - |
|-----|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---|---|
| 1   | 2                                                                                                                                                    | 3 | 4 |
| 1.  | Materialni faqat ogzaki baen kilganda                                                                                                                |   |   |
| 2.  | O'qituvchi topshirigiga ko'ra mustaqil ish bajarganda                                                                                                |   |   |
| 3.  | O'qituvchi suxbati yordamida (o'qituvchi savoli hamda o'quvchilar javobini umulashtirish tufayli xulosalar chiqara olishi)                           |   |   |
| 4.  | O'qituvchi materialini faqat tayyor xolda berganida (ya'ni hamma narsani o'zi tushuntiradi).                                                         |   |   |
| 5.  | Ayrim topshiriqlarni o'qituvchi topshirigi asosida karta, darslik, diafilmdan mustaqil olganda.                                                      |   |   |
| 6.  | Sinfdoshlarning maro'za va axborotlarini tinglaganda. O'qituvchi doskaga rasmlar chizib baen kilganda, hamda mavzularga oid raslarni taxlil kilganda |   |   |
| 7.  | Atlas va darsliklardagi kartalar bilan mustaqil ishlaganda                                                                                           |   |   |
| 8.  | Kinofilm, diafilm, diapozitivlar bilan ishlaganda                                                                                                    |   |   |
| 9.  | Sinfdan darslik bilan mustaqil shug'ullanganda                                                                                                       |   |   |
| 10. | O'qituvchi rahbarligida amaliy ishlar bajarilganda                                                                                                   |   |   |
| 11. | O'z bilimlariga tayangan xolda yangi materialni mustaqil o'rganganda                                                                                 |   |   |
| 12. | Turli usullarni birgalikda qo'llash natijasida va h.k.                                                                                               |   |   |

*Eslatma: Yuqorida ko'rsatilgan usullardan tashqari yana qaysi usullar qo'llanilganda yangi materialni puxta tushunasiz.*

Geografiya ta'limi metodikasi bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlarda pedagogik eksperiment keng qo'llaniladi. Bu metod kuzatish metodining mantiqiy davomidir. Eksperiment yangi pedagogik tajribani yaratishga yunaltilgan bo'lib, u quyidagi holatlarida qo'llaniladi.

1. Tadqiqotchi sinab ko'rmoqchi bo'lgan material o'quvchilar yoshiga va bilim saviyasiga mos kelishi yoki kelmasligini aniqlashda.

2. Maktab geografiya kurslaridagi biror mavzuni o'rganishda tavsiya etilgan yangi metodlar va ko'rgazmali qo'llanmalarni birgalikda qo'llashning samarasini

aniqlash zarurati tugilganda va h.k. Boshqacha qilib aytganda, bu eksperiment ta'lim va tarbiya jarayonini ilmiy nuqtai nazardan, tajribalar yordamida sinab kurish zaruriyati tugilganda qo'llaniladigan metoddir.

Eksperimentning muvaffaqiyatli utishi avvalo uning maqsadi qanchalik puxta rejalashtirilganligiga, tadqiqot faraziga, hamda yangilikni o'zida kanchalik puxta mujassamlashtirganligiga bog'liq. Tadqiqotlarda o'rtaga tashlangan faraz o'z ichiga o'quvchilar tomonidan egallanishi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalarni hamda usha bilim va ko'nikmalarni puxta o'zlash-tirishga yordam beruvchi usul va vositalarni ham o'z ichiga olishi kerak. Pedagogik eksperiment xilma-xil tarzda kuyilishi mumkin. Uni belgilariga ko'ra quyidagi guruxlarga ajratish mumkin.

1. Vaqtga nisbatan: uzoq va qisqa muddatli.

2. O'rganilayotgan ^disalar tarkibiga ko'ra: oddiy va murakkab.

3. Tashkil etish jarayoniga ko'ra: a) laborotoriyada aloxida o'quvchilar guruxi bilan o'tkazish; b) tabiiy (butun sinf bo'yicha yoki bir necha maktabning turli sinflari bilan); v) kompleks tarzda (laborotoriya sharoiti va tabiiy eksperimentlarni o'z ichiga olgan xolda).

Eksperiment uyushtirishning muhim shartlaridan yana biri, farazga (gipoteza) muvofiq o'quv uslubiy (o'quv matnlari, topshiriqlar, tarkatma, didaktik) materiallar yaratishdan



iborat. Chunki bularsiz eksperiment uyushtirish qiyin. Eksperiment uyushtirishning eng keng tarkalgan usullaridan biri eksperiment va nazorat sinflar tashkil qilish hisoblanadi. Bunda eksperiment sinflarda o'quv materiali tadqiqot chi tavsiya etgan yangi metod va usullar yordamida uyushtiriladi. Nazorat sinflarda esa ta'lim an'anaviy usulda olib boriladi. Har ikkala sinflarda o'quvchilar soni, ularning bilim saviyasi o'quvchilarning metodik maxorati deyarli bir xil bo'lishi kerak, aks xolda eksperimentdan ko'zlangan natijaga erishish qiyin bo'ladi. Eksperiment, nazariy g'oyalarining kanchalik to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini isbotlashga yordam beruvchi jarayondir. Demak, eksperiment, shunday tadqiqot usuliki, unda pedagogik jarayonning ob'ektiv qonuniy aloqalari tadqiq qilinadi. Barcha metodika fanlari qatori geografiya ta'lim metodikasining kelajakdagi taraqqiyotini ham eksperimentlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Odatda nazariya va empirik tadqiqot birgalikda qo'llaniladi. Chunki tadqiqot jarayonida qo'llaniladigan barcha usullar taxlil, sintez, induktsiya, deduktsiya, umumlashtirish, abstraktsiya kabi mantiqiy vositalar yordamida amalga oshiriladi. Uslubiy tadqiq jarayoni bir necha boskichlardan iborat bo'ladi. Bular prof.L.M.Panchyoshnikova tadqiqotlarida atroflicha eritilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat. Bular muammoning kuyilishi, tadqiqot asosi ob'ektini tanlash tadqiqotning maqsad vazifalarini belgilash, ish farazini ilgari surishdan iborat. Kuzatish va eksperimental ishlar tadqiqot bosqichlarining asosini tashkil qiladi. Tadqiqot yakunida olingan malumot va bilimlar umumlashtiriladi va tadqiqot natijalari tajriba tekshiruvlaridan utkaziladi. Geografiyadan metodik tadqiqotlarni quyidagi bosqichlarda tashkil qilish maqsadga muvofiq. (Panchyoshnikova bo'yicha)

| №  | BOSQICHLAR                                                                                | MISOLLAR                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               |
|----|-------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1. | Tadqiqot ning bosh muammosi (adabiyotlarni va maktab tajribalari)ni O'rganishni belgilash | O'zbekiston ijtimoiy iqtisodiy geografiyasi darslarida darslik bilan ishlash usullari (9-sinf)                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                         |
| 2. | Farazni ilgari surish                                                                     | O'quvchilar bilim va ko'nikmalarning sifati yuqori bo'ladi. Qachonki: a) ular darslik tuzilishi va uslubiy yo'nalishi bilan tanish bo'lsa; b) turli usullarni qo'llash yo'l-yo'rigini o'zlashtirgan bo'lsa; v) darslik, yangi materialni o'rganish jarayonida, bilimlarni tekshirish va umumlashtirishda keng qo'llanilsa; g) darsda darslikdagi matn, raqamli materiallar, kartalar, rasmlar, savollar va topshiriqlar bilan muntazam ishlab borilsa. |
| 3. | Asosiy muammo va farazni tekshirish uchun tadqiqot vazifalarini aniqlash                  | Ishning samarali usullarini aniqlash-matn bilan ishlash<br>-karta va rasmlar bilan ishlash<br>-darslikdagi savol va topshiriqlar bilan ishlash                                                                                                                                                                                                                                                                                                         |
| 4. | Tadqiqot metodlarini tanlash                                                              | Darsda kuzatish eksperiment orqali darslikni uslubiy jihatdan qanday tuzilganini taxlil qilish                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                         |
| 5. | Eksperiment materiallari                                                                  | Darslarni rejalashtirish, mustaqil ishlar uchun tarkatma didaktik materiallar, o'quvchilarning                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                         |



|    |                                                    |                                                                                                                                                                                             |
|----|----------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|    |                                                    | amaliy ishlarini bajarishlari uchun ko'rsatmalar tayyorlash                                                                                                                                 |
| 6. | Eksperimentni uyushtirish                          | Eksperimental sinflarda darslik bilan muntazam ravishda ishlash, nazorat sinflarda esa darslikdan ananaviy usulda Foydalaniladi                                                             |
| 7. | Tadqiqot xulosalarini (yakunlash)                  | Xulosada darslik bilan darsda ishlash o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarga qanday ta'sir qilganligi, darslik bilan ishlashda qanday usullar eng samarali ekanligi haqida fikr yuritiladi. |
| 8. | Olingan natijalarning amaliy ahamiyatini belgilash | Tadqiqot natijalari geografiya o'qituvchilari uchun darslik bilan ishlashda uslubiy ko'rsatma va tavsiyalar belgilash va ilgari surish bilan yakunlanadi.                                   |

Demak geografiya ta'limi bo'yicha olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar bir necha bosqichdan: muammoning qo'yilishi, tadqiqot ob'ekti va soxani tanlash, tadqiqot ning maqsad va vazifalarini belgilash, ish farazini olga surish va uni o'z shaxsiy tajribasi hamda ilg'or pedagogik tajribalar yordamida o'rganish, kuzatish va eksperiment tashkil etish kabilardan iborat bo'ladi. Ilmiy tadqiqot olingan natijalarga asoslangan xolda nazariy g'oyalarni ilgari surish va ularni amalda sinash bilan yakunlanadi. Geografiya ta'limi metodikasi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirishga mashxur geograf va metodist N.I.Baranskiy katta xissa qo'shdi. U geografiya o'qitish borasida faqat eksperimentlar uyushtirish orqali ilmiy asoslangan natijalarga erishish mumkinligini isbotladi, hozirgi kunda bunday usuldan keng foydalaniladi. Uslubiy tadqiqotlarda maktablar tajribasini o'rganishga aloxida e'tibor berilayapti, olingan natijalar ta'lim jarayonida mukammal sinovlardan

utmokda. Tadqiqotlardan olingan yakunlar o'quvchilar bilimi, ko'nikmasi, malakalarini kanchalik sifatli bo'lishi bilan baholanadi. Olingan miqdoriy ko'rsatkichlarini tulik emas, qo'niqarsiz va mutlaqo javob yo'q kabilarda izoxlash mumkin. Ammo, ayrim xollarda bunday ko'rsatkichlar bilan bilimlarni qanchalik sifatli egallanganligi aniqlab bulmaydi. Shuning uchun ko'p tadqiqotlarida eksperimental va nazorat sinflarda bilimlarning egallanishi maxsus taxlil kilinadi. Bunda bilishning qaysi soxasi puxta, qaysi nisi qiyinchilik bilan o'zlashtirilishi malum bo'ladi. Quyida 8-sinflarda «Qishloq xo'jaligi» tushunchasini shakllantirishda ushbu bilimning taxlilini nazorat va eksperiment sinflar misolida o'quvchilarning tushunchani kanchalik puxta egallanganligini keltiramiz.

|    | SAVOLLAR                                                                                                       | Bilim       | Soxalari |
|----|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------|----------|
|    |                                                                                                                | eksperiment | Nazorat  |
| 1. | Qishloq xo'jaligi usimlik va xayvonot xom- ashesini kayta ishlovchi va etishtiruvchi soxa                      | 90%         | 85%      |
| 2. | Qishloq xo'jaligi ekinlari va xayvonlari o'ziga xos xususiyatga ega, ular mahsulotlari bir- biridan farqlanadi | 93%         | 55%      |
| 3. | Qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligi ko'proq geografik muhitga bog'liq bo'ladi                               | 85%         | 55%      |
| 4. | Tuproq tugamaydigan manba                                                                                      | 95%         | 60%      |
| 5. | Qishloq xo'jaligi taraqqiyoti ko'p jihatda ilmiy texnika taraqqiyoti rivoji bilan aloqador                     | 92%         | 60%      |
| 6. | Qishloqdagi turmushi ko'p xollarda qishloq xo'jalik mahsulotlariga qo'yiladigan bahoga uzviy bog'liqligi       | 93%         | 50%      |
| 7. | Qishloq xo'jaligini intensiv rivojlantirish zamon va davr talabi ekanligi                                      | 90%         | 50%      |



|    |                                                        |     |     |
|----|--------------------------------------------------------|-----|-----|
| 8. | Dexqon fermer xo'jaliklarida mehnat unumdorligi yuqori | 90% | 50% |
|----|--------------------------------------------------------|-----|-----|

Yuqoridagi usulda sinalishi mumkin bo'lgan bilimlar atroflicha taxlil qilinib, xulosalar chiqariladi. Bunda tadqiqot olib boruvchi, bilimni yoki ko'nikmani egallashda nimalarga e'tibor karatishi, ularning o'quvchilar tomonidan bush yoki puxta o'zlashtirilishining sabablarini aniqlashning imkoniyatiga ega bo'ladi. Keyingi vaqtlarda bu metod matn usuli tarzida geografik ta'limi bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlarda ham atroflicha qo'llanilmoqda. Buning yordamida aloxida talaba ma'lum gurux, butun sinf o'quvchilarining bilim sifatini taqqoslash, xulosa chikarish mumkin. Hozirgi vaqtda aksariyat mamlakatlarda geografiya o'qitish borasida yirik ilmiy tadqiqotlar olib borilmokda. Bu borada mamlakatimizda talay ishlar yo'lga qo'yilgan. Ilmiy ishlar yo'nalishi ko'p kirrali bo'lib, ular aloxida kishilar va yirik jamoalar tomonidan bajarilmoqda.

**Talabalar bilimni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. Geografiya ta'limi metodikasining tadqiqot usullarini ta'riflang.
2. Eksperimental-empirik metodning mohiyati nimadan iborat?
3. Geografiya ta'limida kuzatish metodi nima sababdan etakchi tadqiqot usullaridan biri sanaladi?
4. Pedagogik eksperiment nima?
5. Eksperiment va nazorat sinflar qanday belgilarga ko'ra farklanadi?
6. Metodik tadqiqot jarayoni qanday bosqichlardan iborat.

### 3-MAVZU: GEOGRAFIYA TA'LIMDA ILMIY TADQIQOTLARINI TASHKIL ETISH

#### Reja:

1. Geografiya ta'limi metodikasining tadqiqot usullari
2. Pedagogik eksperiment
3. Metodik tadqiqot jarayoni bosqichlari

**Tayanch iboralar:** *Ilmiy tadqiqot, metodik tadqiqot, tadqiqot metodlari, eksperimental - empirik metod, nazariy metod, bilimlarni didaktik taxlil etish, surovnom, kuzatish, suxbat uyushtirish metodlari, statistik-matematik metod, tarixiylik metodi, pedagogik eksperiment, pedagogik tajriba, ped-eksperiment turlari, faraz, eksperimental sinf, nazorat sinf, tadqiqot bosqichlari, eksperiment materiallar, tadqiqot xulosalari.*

#### 1. Geografiya ta'limi metodikasining tadqiqot usullari.


Geografiya o'qitish metodikasi bilan geografiya fanining uzviy bog'liqligini yuqoridagi mavzuda ko'rib chiqdingiz. Geografiya o'qitishning mazmuni o'quvchilarga geografik ob'ektlar, hodisalar, voqealar va ularning sabablarini tushuntirishdan iborat. Shu jihatdan olganda o'quvchilarning yuqoridagilarni o'rganishi, ularni bilish yo'llari qandaydir tadqiqotga o'xshab ketadi. O'quvchilar geografiyani o'rganishda olimlar tomonidan ilmiy jihatdan tekshirilgan va taxlil qilingan dalillar hamda ilmiy xulosalarga asoslanish bilan birga, bazan geografiya manbalarini o'rganishasosida geografik voqea va hodisalardan umumiy xulosalar chiqarishda ham foydalanishlari mumkin. Birok o'quvchilarning geografiya o'rganishi ilmiy tekshirishdan bir muncha fark qiladi. Aslida o'qitish jarayonida o'quvchilar geografiya fanining bazi tadqiqot usullari bilan tanishadilar xolos.

Geografiya o'qituvchisi, o'qitish metodikasiga oid bo'lgan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish uchun zarur ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Afsuski, aksariyat geografiya o'qituvchilari



bu borada etarli tasavvurlarga ega emaslar.

*1-ilova*



Geografiya ta'limi metodikasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar uyushtirishda boshqa fanlar qatori dialektik metodologiyaga amal qilinadi. Chunki tadqiqot metodlari xilma-xil bo'lsa ilmiy bilish metodologiyasi esa yagonadir. Geografiya ta'limi metodikasi bo'yicha dialektik materializm (bilishning umumiy metodi) asosida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda eksperimental - empirik va nazariy usullariga tayaniladi. Eksperimental-empirik usul, tadqiqotning ilk bosqichlarida, ya'ni tadqiqot muammolari bo'yicha faktlar yig'ish jarayonida keng qo'llaniladi. Bu usul ayniqsa xulosalarni qayta tekshirish va aniqlashda qo'l keladi. Empirik usul o'z navbatida maktablar tajribasini o'rganishva eksperiment usullariga tayangan xolda amalga oshiriladi.

Geografiya ta'limi metodikasi fani ilk rivojlanishi davrida eksperimental-empirik metodini ko'proq qo'lladi. Keyingi yillarda nazariy metodlar asosidagi ilmiy tadqiqotlar ancha rivojlandi.

Xususan bilimlarni didaktik jihatidan taxlil qilish orqali o'quv predmetini yaratish, o'quv materialini mantikan taxlil qilaolish, o'quv materialidagi geografik, iqtisodiy, ekologik tushunchalarni taxlili nazariy metodlar asosini tashkil qiladi. Ayniqsa o'qituvchi faoliyati bilan o'quvchi faoliyati o'rtasidagi bog'liqlik masalalari, dars maqsadi bilan mazmuni, ta'lim metodlari bilan tarbiya orasidagi aloqalarni tadqiq qilish nazariy metodlar negizini tashkil qiladi. Shuni ta'kidlash kerakki hozirgi kunda geografiya o'qituvchilari o'z ishlariga tanqidiy yondashishi orqali hamilmiy ishlarni boshlashi mumkin. Bunday ishlar darslarni rejalashtirish jarayonidan boshlanishi zarur. Geografiya o'qituvchisi har bir darsning vazifasini, maqsadini, mazmunini ularni egallashda qanday ta'lim metodlari va vositalari qo'llanishini, o'quvchilarning faoliyati nimalardan tashkil topishini oldindan aniqlab olishi kerak. Eng muhimi darslar o'rtasidagi aloqadorlik va bog'liqligining nimalarda aks etishi dars rejalarida o'z aksini topgan bo'lishi lozim. Darslarda geografiya ta'limi metodikasi bo'yicha ilmiy tadqiqot usullari masalalari metodist olimlar A.E.Bibik, M.L.Panchyoshnikova, I.V.Dushina, P.Musaev, O.A.Mo'minov tadqiqotlarida atroflicha umulashtirilgan. Tadqiqot usullarini tanlash qo'yilgan maqsad va vazifalarga bog'liq. Eng avvalo, qo'yilgan metodik muammo dolzarbligining maqsad va vazifalarini belgilash uchun maxsus adabiyotlarni nazariy jihatidan taxlil qilish zarur. Agar bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirishning samarali usul va vositalarini izlamochi bo'lsak, avvalo uni o'quv jarayonini taxlil qilishdan boshlamok kerak. Buni eksperiment asosida, o'qitish, surovnom yordamida, o'quvchi va o'qituvchilar bilan suxbatlar tarzida uyushtirish mumkin. Har qanday tadqiqotda nazariya metodi etakchi o'rinni egallaydi. U o'z navbatida bir kancha usullarni, xususan: adabiyotlar taxlili, statistik-matematik, tarixiy va taqqoslash metodlarini o'z ichiga oladi. Geografiya ta'limi metodikasi bo'yicha tadqiqot olib boruvchilar, eng avvalo geografiya falsafa didaktika, pedagogika, psixologiya, mantiq, bilish nazariyasi kabi fanlarini chuqur o'rganib chiqishlari zarur. Ularda tadqiqot uchun,



taqqoslash va qiyoslashga oid bo'lgan malumotlar tuplanadi. GO'Mbo'yicha olib boriladigan tadqiqotlarda stastistik-matematik metodlarning hamroli katta. Bunda tajriba o'tkazilaetgan sinflar va maktablardagi ish natijalarini e'tiborga olish keng qo'llaniladi. Olingan miqdoriy ko'rsatkichlarga tayanib u yoki bu metodning, usulning, vositalarning kanchalik samara berishligini aniqlash imkoniyati tugiladi. Statistik, matematik metodning eng muhim xususiyatlaridan biri shuki, ular yordamida, pedagogika va uslubiy hodisalar o'rtasidagi qonuniyatlarni ochish imkoniyatlari yaratiladi. Masalan, tajriba sifatida qo'llanilaetgan ta'lim metodi o'quvchilarning bilim va ko'nikmalariga, bilish faoliyati faolligiga qay darajada tasir qilishini o'rganishga yordam beradi.

Geografiya o'qitishda tarixiylik metodining ham o'rni bor. Ma'lumki, vaqt o'tishi bilan u yoki bu metod yoki vositaning o'zgarishi va rivojlanishiga tarixiy nuqtai nazardan yondoshib xulosalar chiqariladi. Masalan, tadqiq etilayotgan muammonning bundan 30 yil oldingi holatini hozirgi kun bilan qiyoslab tankidiy nuqtai nazardan yondashish tarixiylik metodining negizini tashkil qiladi. Taqqoslash metodi ham tadqiqot ishlarida keng qo'llaniladi. Ayniqsa ilg'or tajribalarni qiyoslash, chet ellarda geografiya o'qitishda qo'llanilaetgan metodlarni, bizning vatanimizda qo'llanilaetgan metodlar bilan taqqoslash samarali natijalar beradi. Eksperimental-empirik tadqiqot usullariga ta'lim jarayonini kuzatish, pedagogik faoliyatini o'rganishva umumlashtirish, so'rovnoma o'tkazish, pedagogik eksperiment uyushtirishlar ham kiradi. Bu usullar mavjud o'quv dasturlarini takomillashtirishda, o'qituvchilarni ilmiy uslubiy saviyasini oshirishda katta rol uynaydi. Geografiya o'qitish borasidagi ilmiy-metodik ishlarda odatda bir necha tadqiqot metodlari birgalikda qo'llaniladi. Aytaylik, o'quvchilarning bilimi, ko'nikmalari haqida malumotlar tuplanaetgan bulsin, bu yerda kuzatish, so'rovnoma o'tkazish, o'quvchilar bilan suxbat, maktab xujjatlarini o'rganishkabi boshqa bir necha usullardan unumli foydalanish takozo etiladi.

**Kuzatish.** Ilmiy tadqiqot metodlari ichida eng keng tarqalgan metodlardan biri bo'lib, u har bir tadqiqotchi uchun juda zarurdir. O'qituvchining maxorati, muvafaqqiyati ko'p jihatdan kuzatuvchanlikka bog'liq. Kuzatishga kirishishdan oldin uning dasturini tuzib chiqish kerak. Kuzatish maqsadi puxta va aniq bo'lishi talab etiladi. Geografiya ta'limida kuzatish ob'ektlari sifatida o'quv ish usullari, o'quvchilarning amaliy va mustaqil ishlari, hamda ta'lim vositalarini qo'llash va x.klar bo'lishi mumkin. Geografik tasavvur va tushunchalarning shakllanish jarayoni ham kuzatish metodini talab qiladi. Kuzatishni yozib borish uchun kundalik yuritish zarur.

### 1-ilova

Quyida maktab tajribasini o'rganishda kuzatish dasturidan namuna




a) o'quv jarayonida mavzular mazmuniga o'zgarishlar kiritilganmi, yangi materiallar, tushunchalarni boshqacha tarzda o'rganish, ikkinchi darajali materiallarni chiqarib tanlash, tashkil etilishi

b) yangi materialni o'rganishda xatoliklar noaniqliklar mavjudmi, metodlar to'g'ri tanlandimi va qo'llanildimi, ular nimalarda o'z aksini topgan.


v) o'qituvchi o'z rejalashtirishida, va dars jarayonida etakchi tushunchalarni bo'rttirib ko'rsata oladimi;

g) o'quv materiallar qandaymetodlar yordamida ko'rib chiqildi, ularning har biriga taxminan darsning necha foiz vaqti sarflandi:





- a) Yakunlovchi amaliy ishlarning barchasi o'tkaziladimi
- b) qaysi amaliy ishlar o'tkazilmadi, nima uchun?
- v) har bir yakunlovchi amaliy ish uchun kancha vaqt sarflandi;
- g) yakunlovchi amaliy ishi bajarishda o'qituvchi va o'quvchilar qanday qiyinchiliklarga duch keldilar, bu qiyinchiliklar nimalardan iborat?
- d) o'qituvchi dasturdagi amaliy ishlar mazmuniga va uyushtirish shakliga o'zgartirish kiritadimi, ularni nima bilan isbotlaydi.
- e) dasturdagi boshqa amaliy ishlarga o'qituvchilarning munosabati ularni qanday shaklda o'tkazadi, yakka tartibda, yoppasiga, sinfda, uyda, baholaydimi, qaysilarini o'tkazmaydi, sababi) darsning qancha qismi (foizi) uni bajarishga ketadi?



- a) dasturda ko'rsatilgan fanlararo bog'liqlik uyushtiriladimi:
- b) fanlararo bog'liqlik qanday uyushtiriladi: (o'qituvchining boshqa fanlarga munosabati ogzakimi, sinfda yoki uyda topshiriqlar bajarish tarzidami, biologiya, fizika, kime darslarida olgan bilimlarini geografiya darslarida qo'llaydimi?;
- d) o'qituvchi fanlararo bog'liqlik mazmuniga qanday to'ldirish va o'zgartirishlar kiritdi ular nimalarda aks etdi?
- g) qaysi mavzuda qanday fanlar bilan bog'liqlik yoritilmadi: Darsning qancha qismi (foizi) fanlararo bog'liqlariga sarflandi

Geografiya ta'limi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarida so'rovnoma usuli ham keng qo'llaniladi. So'rovnomalarda ilmiy tadqiqotlar mazmuniga muvofiq o'qituvchi, metodistlar, o'quvchilar uchun alohida tuziladi. Bundan maqsad biror metodik muammo bo'yicha malumot tuplashdir. Masalan; tabiiy geografiya fanlari bo'yicha ta'lim metodlarini yanada takomillashtirish maqsadidagi so'rovnomalarda geografiya o'qituvchilarga quyidagi savollar havola etilishi mumkin.

1. O'quvchilarning o'quv faoliyatini tashkil qilishda qanday metodlardan foydalanasiz: a) yangi material o'tishda b) bilimlarni tekshirishda (reyting tizimida).

2. Darsingizda qanday metodlar yetakchi.  
3. Darslaringizda 6-7-8 sinf o'quvchilarning ishlaridagi fark nimalarda aks etadi.

a) karta bo'yicha; b) darslik bo'yicha v) o'quv kartinalari, jadvallari bo'yicha;

g) ekran qo'llanmalari va AKTlardan foydalanish bo'yicha (har bir sinf uchun)

4. O'quvchilar qobiliyatini qanday metod va vositalar yordamida oshiriladi?

5. O'quvchilarning bilish faoliyati qanday taxlil etiladi:

a) bilimlarni tayyor xolda berasizmi?; b) materialning faqat bir qismini tushuntirasizmi?; v) barcha materialni o'quvchilar mustaqil o'rganadilarmi (misollar bilan h.k.)

O'quvchilar o'rtasidahamsurovnomalar o'tkaziladi. Quyida o'quvchilarning sinfda bajarishlari uchun mo'ljallab tuzilgan so'rovnomadadan misollar keltiramiz. Surovnomalardan olingan natijalar respublika yoki viloyat maktablarida har-xil natijalar beradi. Bunday surovnomalar o'rganilaetgan pedagogik hodisa yoki voqealikning qanchalik to'g'ri qo'yilganligini ko'rsatadi. Chunki har-bir maktab turlicha sharoitlarda joylashgan va xilma-xil imkoniyatlarga egadirlar.

#### O'QUVCHILAR UCHUN SO'ROVNOMA.

Darsda yangi material qay usulda o'rganilganda yaxshi tushunasiz va eslab qolasiz. (+ ishorasini materialni yaxshi tushuna olganingizda - ishorasini esa o'quv materialini yaxshi tushuna olmaganingizda ko'ying).

| No | Yangi materialni o'rganish usullari                                                                                        | + | - |
|----|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---|---|
| 1  | 2                                                                                                                          | 3 | 4 |
| 1. | Materialni faqat ogzaki baen kilganda                                                                                      |   |   |
| 2. | O'qituvchi topshirigiga ko'ra mustaqil ish bajarganda                                                                      |   |   |
| 3. | O'qituvchi suxbati yordamida (o'qituvchi savoli hamda o'quvchilar javobini umulashtirish tufayli xulosalar chiqara olishi) |   |   |



|     |                                                                                                                                                     |  |  |
|-----|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--|--|
| 4.  | O'qituvchi materialini faqat tayyor xolda berganida (ya'ni hamma narsani o'zi tushuntiradi).                                                        |  |  |
| 5.  | Ayrim topshiriqlarni o'qituvchi topshirigi asosida karta, darslik, diafilmdan mustaqil olganda.                                                     |  |  |
| 6.  | Sinfdozlarning maro'za va axborotlarini tingla-ganda.O'qituvchi doskaga rasmlar chizib baen kilganda, hamda mavzularga oid raslarni taxlil kilganda |  |  |
| 7.  | Atlas va darsliklardagi kartalar bilan mustaqil ishlaganda                                                                                          |  |  |
| 8.  | Kinofilm, diafilm, diapozitivlar bilan ishlaganda                                                                                                   |  |  |
| 9.  | Sinfda darslik bilan mustaqil shug'ullanganda                                                                                                       |  |  |
| 10. | O'qituvchi raxbarligida amaliy ishlar bajarilganda                                                                                                  |  |  |
| 11. | O'z bilimlariga tayangan xolda yangi materialni mustaqil o'rganganda                                                                                |  |  |
| 12. | Turli usullarni birgalikda qo'llash natijasida va h.k.                                                                                              |  |  |

**Eslatma:** Yuqorida ko'rsatilgan usullardan tashqari yana qaysi usullar qo'llanilganda yangi materialni puxta tushunasiz.

Geografiya ta'limi metodikasi bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlarda pedagogik eksperiment keng qo'llaniladi. Bu metod kuzatish metodining mantiqiy davomidir. Eksperiment yangi pedagogik tajribani yaratishga yunaltirilgan bo'lib, u quyidagi holatlarida qo'llaniladi.

1. Tadqiqotchi sinab ko'rmoqchi bo'lgan material o'quvchilar yoshiga va bilim saviyasiga mos kelishi yoki kelmasligini aniqlashda.

2. Maktab geografiya kurslaridagi biror mavzuni o'rganishda tavsiya etilgan yangi metodlar va ko'rgazmali qo'llanmalarni birgalikda qo'llashning samarasini aniqlash zarurati tugilganda va h.k. Boshqacha qilib aytganda, bu eksperiment ta'lim va tarbiya jarayonini ilmiy nuqtai nazardan,

tajribalar yordamida sinab kurish zaruriyati tugilganda qo'llaniladigan metoddir.

Eksperimentning muvaffaqiyatli utishi avvalo uning maqsadi qanchalik puxta rejalashtirilganligiga, tadqiqot faraziga, hamda yangilikni o'zida kanchalik puxta mujassamlashtirganligiga bog'liq. Tadqiqotlarda o'rta tashlangan faraz o'z ichiga o'quvchilar tomonidan egallanishi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalarni hamda usha bilim va ko'nikmalarni puxta o'zlash-tirishga yordam beruvchi usul va vositalarni ham o'z ichiga olishi kerak. Pedagogik eksperiment xilma-xil tarzda kuyilishi mumkin.Uni belgilariga ko'ra quyidagi guruxlarga ajratish mumkin.

**1. Vaqtga nisbatan: uzoq va qisqa muddatli**

**2. O'rganilayotgan hodisalar tarkibiga ko'ra:** oddiy va murakkab.

**3. Tashkil etish jarayoniga ko'ra:** a) laboratoriyada aloxida o'quvchilar guruxi bilan o'tkazish;b) tabiiy (butun sinf bo'yicha yoki bir necha maktabning turli sinflari bilan); v) kompleks tarzda (laboratoriya sharoiti va tabiiy eksperimentlarni o'z ichiga olgan xolda).

Eksperiment uyushtirishning muhim shartlaridan yana biri, farazga (gipoteza) muvofiq o'quv uslubiy (o'quv matnlari, topshiriqlar, tarkatma, didaktik) materiallar yaratishdan iborat. Chunki bularsiz eksperiment uyushtirish qiyin. Eksperiment uyushtirishning eng keng tarkalgan usullaridan biri eksperiment va nazorat sinflar tashkil qilish hisoblanadi. Bunda eksperiment sinflarda o'quv materiali tadqiqot chi tavsiya etgan yangi metod va usullar yordamida uyushtiriladi. Nazorat sinflarda esa ta'lim an'anaviy usulda olib boriladi. Har ikkala sinflarda o'quvchilar soni, ularning bilim saviyasi o'quvchilarning metodik maxorati deyarli bir xil bo'lishi kerak, aks xolda eksprimentdan ko'zlangan natijaga erishish qiyin bo'ladi. Eksperiment, nazariy g'oyalarining kanchalik to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini isbotlashga yordam beruvchi jarayondir. Demak, eksperiment, shunday tadqiqot usuliki, unda pedagogik jarayonning ob'ektiv qonuniy aloqalari tadqiq qilinadi. Barcha



metodika fanlari qatori geografiya ta'lim metodikasining kelajakdagi taraqqiyotini ham eksperimentlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Odatda nazariya va empirik tadqiqot birgalikda qo'llaniladi. Chunki tadqiqot jarayonida qo'llaniladigan barcha usullar taxlil, sintez, induksiya, deduktsiya, umumlashtirish, abstraktsiya kabi mantiqiy vositalar yordamida amalga oshiriladi. Uslubiy tadqiqot jarayoni bir necha bosqichlardan iborat bo'ladi. Bular prof.L.M.Panchenikova tadqiqotlarida atroflicha eritilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat. Bular muammoning kuyilishi, tadqiqot asosi ob'ektini tanlash tadqiqotning maqsad vazifalarini belgilash, ish farazini ilgari surishdan iborat. Kuzatish va eksperimental ishlar tadqiqot bosqichlarining asosini tashkil qiladi. Tadqiqot yakunida olingan malumot va bilimlar umumlashtiriladi va tadqiqot natijalari tajriba tekshiruvlaridan utkaziladi. Geografiyadan metodik tadqiqotlarni quyidagi bosqichlarda tashkil qilish maqsadga muvofiq. (Panchyoshnikova bo'yicha)

| No | BOSQICHLAR                                                                                  | MISOLLAR                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                |
|----|---------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1. | Tadqiqot ning bosh mu-ammosi (adabiyotlarni va maktab tajribalari) ni O'rganishni belgilash | O'zbekiston ijtimoiy iqtisodiy geografiyasi darslarida darslik bilan ishlash usullari (9-sinf)                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                          |
| 2. | Farazni ilgari surish                                                                       | O'quvchilar bilim va ko'nikmalarning sifati yuqori bo'ladi. Qachonki: a) ular darslik tuzilishi va uslubiy yo'nalishi bilan tanish bo'lsa; b) turli usullarni qo'llash yo'l -yo'rigini o'zlashtirgan bo'lsa; v) darslik, yangi materialni o'rganish jarayonida, bilimlarni tekshirish va umumlashtirishda keng qo'llanilsa; g) darsda darslikdagi matn, raqamli materiallar, kartalar, rasmlar, savollar va topshiriqlar bilan muntazam ishlab borilsa. |

|    |                                                                          |                                                                                                                                                                                             |
|----|--------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 3. | Asosiy muammo va farazni tekshirish uchun tadqiqot vazifalarini aniqlash | Ishning samarali usullarini aniqlash-matn bilan ishlash<br>-karta va rasmlar bilan ishlash<br>-darslikdagi savol va topshiriqlar bilan ishlash                                              |
| 4. | Tadqiqot metodlarini tanlash                                             | Darsda kuzatish eksperiment orqali darslikni uslubiy jihatdan qanday tuzilganini taxlil qilish                                                                                              |
| 5. | Eksperiment materiallari                                                 | Darslarni rejalashtirish, mustaqil ishlar uchun tarkatma didaktik materiallar, o'quvchilarning amaliy ishlarini bajarishlari uchun ko'rsatmalar tayyorlash                                  |
| 6. | Eksperimentni uyushtirish                                                | Eksperimental sinflarda darslik bilan muntazam ravishda ishlash, nazorat sinflarda esa darslikdan ananaviy usulda Foydalaniladi                                                             |
| 7. | Tadqiqot xulosalarini (yakunlash)                                        | Xulosada darslik bilan darsda ishlash o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarga qanday ta'sir qilganligi, darslik bilan ishlashda qanday usullar eng samarali ekanligi haqida fikr yuritiladi. |
| 8. | Olingan natijalarning amaliy ahamiyatini belgilash                       | Tadqiqot natijalari geografiya o'qituvchilari uchun darslik bilan ishlashda uslubiy ko'rsatma va tavsiyalar belgilash va ilgari surish bilan yakunlanadi.                                   |

Demak geografiya ta'limi bo'yicha olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar bir necha bosqichdan: muammoning qo'yilishi, tadqiqot ob'ekti va soxani tanlash, tadqiqotning maqsad va vazifalarini belgilash, ish farazini olga surish va uni o'z shaxsiy tajribasi hamda ilg'or pedagogik tajribalar yordamida o'rganish, kuzatish va eksperiment tashkil etish kabilardan iborat bo'ladi. Ilmiy tadqiqot olingan natijalarga asoslangan xolda nazariy g'oyalarni ilgari surish va ularni amalda sinash bilan yakunlanadi. Geografiya ta'limi metodikasi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirishga mashxur geograf va metodist N.I.Baranskiy katta xissa qo'shdi. U geografiya



o'qitish borasida faqat eksperimentlar uyushtirish orqali ilmiy asoslangan natijalarga erishish mumkinligini isbotladi, hozirgi kunda bunday usuldan keng foydalaniladi. Uslubiy tadqiqotlarda maktablar tajribasini o'rganishga aloxida e'tibor berilayapti, olingan natijalar ta'lim jarayonida mukammal sinovlardan utmokda. Tadqiqotlardan olingan yakunlar o'quvchilar bilimi, ko'nikmasi, malakalarini kanchalik sifatli bo'lishi bilan baholanadi. Olingan miqdoriy ko'rsatkichlarini tulik emas, qo'niqarsiz va mutlaqo javob yo'q kabilarda izoxlash mumkin. Ammo, ayrim xollarda bunday ko'rsatkichlar bilan bilimlarni qanchalik sifatli egallanganligi aniqlab bulmaydi. Shuning uchun ko'p tadqiqotlarida eksperimental va nazorat sinflarda bilimlarning egallanishi maxsus taxlil kilinadi. Bunda bilishning qaysi soxasi puxta, qaysi nisi qiyinchilik bilan o'zlashtirilishi malum bo'ladi. Quyida 8-sinflarda "Qishloq xo'jaligi" tushunchasini shakllantirishda ushbu bilimning taxlilini nazorat va eksperiment sinflar misolida o'quvchilarning tushunchani kanchalik puxta egallanganligini keltiramiz.

| Sinf | SAVOLLAR                                                                                                      | Bilim      | Soxalari |
|------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|----------|
|      |                                                                                                               | ekspriment | Nazorat  |
| 1.   | Qishloq xo'jaligi usimlik va xayvonot xom-ashesini kayta ishlovchi va etishtiruvchi soxa                      | 90%        | 85%      |
| 2.   | Qishloq xo'jaligi ekinlari va xayvonlari o'ziga xos xususiyatga ega, ular mahsulotlari bir-biridan farqlanadi | 93%        | 55%      |
| 3.   | Qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligi ko'proq geografik muhitga bog'liq bo'ladi                              | 85%        | 55%      |
| 4.   | Tuproq tugamaydigan manba                                                                                     | 95%        | 60%      |
| 5.   | Qishloq xo'jaligi taraqqiyoti ko'p jihatda ilmiy texnika taraqqiyoti rivoji bilan aloqador                    | 92%        | 60%      |
| 6.   | Qishloqdagi turmushi ko'p xollarda qishloq xo'jalik mahsulotlariga qo'yiladigan bahoga uzviy bog'liqligi      | 93%        | 50%      |

|    |                                                                           |     |     |
|----|---------------------------------------------------------------------------|-----|-----|
| 7. | Qishloq xo'jaligini intensiv rivojlantirish zamon va davr talabi ekanligi | 90% | 50% |
| 8. | Dexqon fermer xo'jaliklarida mehnat unumdorligi yuqori                    | 90% | 50% |

Yuqoridagi usulda sinalishi mumkin bo'lgan bilimlar atroflicha taxlil qilinib, xulosalar chiqariladi. Bunda tadqiqot olib boruvchi, bilimni yoki ko'nikmani egallashda nimalarga e'tibor karatishi, ularning o'quvchilar tomonidan bush yoki puxta o'zlashtirilishining sabablarini aniqlashning imkoniyatiga ega bo'ladi. Keyingi vaqtlarda bu metod matn usuli tarzida geografik ta'limi bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlarda ham atroflicha qo'llanilmoqda. Buning yordamida aloxida talaba ma'lum gurux, butun sinf o'quvchilarining bilim sifatini taqqoslash, xulosa chikarish mumkin. Hozirgi vaqtda aksariyat mamlakatlarda geografiya o'qitish borasida yirik ilmiy tadqiqotlar olib borilmokda. Bu borada mamlakatimizda talay ishlar yo'lga qo'yilgan. Ilmiy ishlar yo'nalishi ko'p kirrali bo'lib, ular aloxida kishilar va yirik jamoalar tomonidan bajarilmoqda.

### **Talabalar bilimini mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. Geografiya ta'limi metodikasining tadqiqot usullarini ta'riflang.
2. Eksperimental-empirik metodning moxiyati nimadan iborat?
3. Geografiya ta'limida kuzatish metodi nima sababdan etakchi tadqiqot usullaridan biri sanaladi?
4. Pedagogik eksperiment nima?
5. Eksperiment va nazorat sinflar qandaybelgilarga ko'ra farkanadi?
6. Metodik tadqiqot jarayoni qandaybosqichlardan iborat.



#### 4-MAVZU: GEOGRAFIYA O'QITISHNING TA'LIMiy, TARBIYAViy VA RIVOJLANTIRUVCHI MAQSADLARI

##### REJA:

1. Geografiya o'qitish metodikasi qanday fanlar tizimiga kiradi?
2. Geografiya o'qitish metodikasi qanday qisimlarga bo'linadi?
3. Didaktika nimani o'rganadi?
4. Geografiyaning umumiy metodikasi nimani o'rganadi?
5. Aloxida geografiya kurslarini o'qitish metodikasi bilan qanday fanlar shug'ullanadi?
6. Geografiya o'qitish metodikasining umumiy vazifalariga taklif bering

**Tayanch so'z va iboralar:** *metodika, maqsad, ta'limiy maqsad, tarbiyaviy maqsad, rivojlantiruvchi maqsad, ekologik madaniyat, milliy g'urur, milliy iftixor, sub 'ekt-sub 'yekt, munosabat, ta'limiy vazifa*

Geografiya ta'limining maqsad va vazifalari

Geografiya fanini maqsadi va vazifalari davrlarga o'zgarib va yana qaytadan shakillanib turgan. Ushbu fanni o'qitishni maqsadini aniqlash qadimdan didaktika va o'qitish metodikasini eng muhim muammolaridan biri hisoblanib kelinmoqda. Bunday muammoni qanday echish bilan umum ta'lim maktab geografiyasining tuzilishi, mazmuni va o'qitish metodlari turlariga bog'liq. Oxirgi davrlarda, asosan XX-asr davomida o'qitish maqsadini ishlab chiqish muammosiga katta e'tibor berildi. Hozirgi davirda ham geografiya ta'limining mazmunini o'zgarishi munosabati bilan mazkur muammoga yanada ko'proq e'tibor berilmoqda.

Geografiya o'qituvchisi geografiya predmetining har bir sinf geografiya kursini maksadlarini bilishi lozim.

Geografiya ta'limining maqsadlarini uch guruhga bo'lish mumkin: ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi.

Ta'limiy maqsadlar quyidagilardan iborat:

-o'quvchiga tabiiy geografik iqtisodiy va ijtimoiy geografik hamda Amaliy geografiya asoslari bo'yicha mustaxkam bilimlar berish. Tabiatdan foydalanishni va uni muxofaza qilishni ilmiy texnik iqtisodiy asoslarini ochib berish:

-umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini iqtisodiy, ekologik, poletexnik geosiyosiy bilimlarni egallashlariga imkon yaratish:

- tabiiy geografiya, iqtisodiy geografiya, geografiya, amaliy geografiya va boshqa maxsus geografik fanlarini yirik xalq va qishloq xo'jaligi muammolarini echishdagi o'rni va ahamiyatini ochib berish. Masalan Orol muammosini echimini, Sibir daryolari Oki bir qismini O'rta Osiyoga oqizishni O'zbekistonning buyuk davlat bo'lishining geografik asoslarini ishlab chiqish:

-o'quvchilarni geografik borliqni va hodisalarni o'rganish usullari bilan qurollantirish. Bu usullar (metodlar) bilan ishlash ko'nikmalarini shakillantirish:

-o'quvchilarni geografik hodimlardan, ma'lumot-nomalardan qo'shimcha adabiyotlardan foydalanishga o'rgatish, egallagan geografik bilimlarini amalda qo'llay bilish ko'nikmalarini shakillantirish. O'quvchilarni mustaqil ravishda foydalanib o'z bilmini oshirishga o'rgatish. O'quvchilarda geografik madaniyatni shakillantirish.

Tarbiyaviy maqsadlari.

-yoshlarni ona vatanimizning qudrati, salohiyati va ravnaqidan faxirlanish tuyg'ularining rivojlanishi;

-yoshlarda tabiatdagi, tabiyot va jamiyat uo'zaro ta'sirlarga didaktik nuqtai nazardan karashga o'rgatish;

-o'quvchilarga ahloqiy tarbiya berish va bunga imkoniyat yaratish, ularda Vatandarparvarlik tuyg'ularini shakillantirish;

-o'quvchilarni ahloqiy jixatdan to'g'ri tarbiyalash, ularda Vatanga muhabbat ruhida, Vatanni himoya qilish har fuqoroning oliy burchi ekanligini o'ktirish;

-o'qituvchilarni mehnat tarbiyasiga va kasb tanlashiga yordam berish, hozirgi zamonda o'z o'rnini topishga ko'maklashish;



O'quvchi yoshlarni qiziquvchanligi qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan maqsadlar:

-geografiya faniga va muammolariga qiziqishini uyg'otish;  
-o'quvchilarni imkoniyatidan kelib chiqib geografik muammolarni yechish usullarini o'rgatish, ularda hodisa, jarayonlariga kompleks va sentetik yondoshish, yondashishni shakllantirish.

**Talabalar bilimini mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. Geografiya fanini o'qitishning maqsadlari va vazifalari nimalardan iborat?

2. O'quvchi yoshlarda vatanparvarlik ruhidagi tarbiyalanish geografiyasi ta'limiga qanday maqsadlar kiradi?

3. Geografiya fanining ta'limining o'quvchilarining qiziqishlari qobiliyatlari rivojlantirishida yo'naltirilgan maqsadlari qanday qismlardan iborat?

4. Geografiya fanining o'qitish metodikasi vazifalari jadvallari qanday tuziladi.

## **5-MAVZU: GEOPGRAFIYA TA'LIMI METODLARI, MASHG'ULOT MAZMUNIGA KO'RA O'QITISH METODLARINI TANLASH**

### **REJA:**

1. Geografiya o'qitish metodlari haqida tushuncha.
2. Ta'lim metodlari klassifikatsiyasi.
3. Metodlarga qo'yilgan talablar.
4. I.Y.Lerner va M.N.Skatkin klassifikatsiyasi.
5. O'zbek metodist olimlarning o'qitish metodlari klassifikatsiyasi.

**Tayanch so'z va atamalar:** *Ta'lim metodi, didaktik qonuniyatlar, metodning tarbiyaviyligi, metodning ilmiyligi, metodning ommabopligi, metodning samaradorligi, usul, solishtirish, metodlar tasnifi, bilim olish manbalariga ko'ra*

*metodlar, didaktik maqsadlariga ko'ra metodlari, xulosa chikarish faoliyatiga ko'ra metodlari, Lerner-Skatkin metodlari, Shapovalenko metodlari, umumiy metodlar, xususiy metodlar, og'zaki bayon metodlari, kartografik qo'llanmalar bilan ishlash metodlari, darslik bilan ishlash metodlari, ko'rgazmali kurollar bilan ishlash metodlari.*

### **1. Geografiya o'qitish metodlari haqida tushuncha.**

Ta'lim jarayonida o'quvchilar muayyan bilimlar ko'nikmalar va malakalarni egallaydilar. Didaktikada metod deganda o'qituvchining xabarligida turli usullar vositasida o'quvchilarni bilim, ko'nikma, malakalari bilan qurollantirishga, hamda ularning dunyoqarashini shakllantirishga tushiniladi. O'quv material mazmuni ta'limning turli vositalari yordamida va turli metodlar bilan o'zlashtiriladi. Shu sababli har doim o'qituvchi oldida muvaffaqiyatliroq va samaraliroq o'qitish va o'qishga yordam beradigan yo'llarni egallash muammosi turadi. O'quv materiallarini o'rganishning turli shakllarini qidirish, darsning maqsadlari, vazifalarini anglab olishdan boshlanadi.

Didaktika fani metod terminiga ta'rif berish bo'yicha aniq bir qoidani hali yaratganicha yo'q. Bu masala borasida turli ta'rif va qoidalar mavjud. Didaktika fanida ta'lim metodi deganda o'qituvchi va o'quvchining ta'lim jarayonida birgalikdagi faoliyati tushuniladi. Bunda ular qo'yilgan maqsad uchun birgalikda harakat qiladilar.

Masalan: yangi bilimni o'zlashtirishda darslik bilan ishlash bunga misol bo'lishi mumkin. Metod va usul o'rtasida doimo aloqa mavjud. Geografiya asoslarini puxta o'zlashtirish, o'quvchining bilim olish qobiliyatlarini rivojlantirish va ularni hayotga tayyorlash ma'lum darajada ta'lim metodlariga bog'liq.

Ta'lim metodlari-o'qituvchi tomonidan o'quvchilar faoliyatini belgilaydigan ish metodlari bo'lib, o'quv materialini nazariy va amaliy o'zlashtirish shaklidir.

Ta'lim metodlari o'quvchilarga bilim berish, ko'nikma va malakalarni egallash bilangina cheklanib qolmaydi. Ta'lim metodlari deyilganda, o'quvchilarning ijodiy faoliyatlarini



shaklantiрадиган, bilimlarini mustaqil o'zlashtirishga o'rgatadigan, to'laroq ilmiy bilimga asoslangan to'g'ri dunyoqarash va e'tiqodni tarbiyalaydigan metodlar tushuniladi.

### **Ta'lim metodlari uchun 2 ta asosiy narsa xos:**

□ Metodlar-o'qituvchi faoliyati yo'l-yo'riqlari bo'lib, o'quvchi faoliyatini belgilashda yordam beradi.

□ Ta'lim metodlari faqat bilim, ko'nikma, malakalarini shakllantirish bilangina cheklanmasdan, balki, o'quvchilarda ijodiy faoliyat, bilimlarni mustaqil egallash qobiliyatini tarbiyalashga ham yordam beradi.

Ta'lim metodlari o'qitishning umumiy va aniq maqsadlariga hamda maktab ta'limining mazmuniga ham bog'liq. Ta'lim metodlari ko'p hollarda o'quvchilarning ruhiyati va xususiyatlarini e'tiborga olishni ta'lab qiladi:

o'rgatish – ta'lim maqsadining amalga oshirilishi bo'yicha pedagogning tartibli faoliyati;

o'rganish – anglab olish, mashqlar qilish, egallangan tajribalar asosida xulqi, atvori va faoliyatining yangi shakllarini egallab, keyin egallanganlari o'zgaradi; o'qitish – oldinga qo'yilgan maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan pedagoglar bilan talabalarning tartibli o'zaro harakatlari;

ta'lim - o'qitish jarayonida egallanadigan bilim, ko'nikma, malakalar, fikrlash usullari tizimi;

bilim - biror fanni nazariy o'zlashtirishni aks ettiradigan inson g'oyalari yig'indisi **ko'nikma** –o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo'llash usullarining egallanishidir;

malaka - atomatlashtirilgan holatga o'tilgan ko'nikma, takomillashganlikning yuqori saviyadagi darajasidir;

maqsadi - o'qitish nimalarga qaratilganligi, uning kuchlarining kelgusidagi nimalarga safarbar etilishidir;

mazmuni - talabalarni o'qitish jarayonida egallashi kerak bo'lgan, ilmiy bilim va amaliy ko'nikma, malakali faoliyat va fikrlash qobiliyatini o'tirish;

tashkil etish – qo'yilgan maqsadlarni yaxshi amalga oshirish uchun unga zaruriy shakllarni taqdim etadigan, aniq mezon bo'yicha tartibli didaktik jarayon;

shakl – bu o'quv jarayonining mavjudlik usuli bo'lib, uning mohiyati, mantig'i, mazmunidir;


metod - o'qitishning maqsadi va vazifalariga erishishdir;

vosita - o'quv jarayonining predmetli bo'lib qo'llab-quvvatlanishi. vositalarga o'qituvchining nutqi, keng ma'nodagi mahorati, darslik –qo'llanmalar, jihozlar va h.k. kiradi.

| <b>Tushuncha</b> | <b>Didaktik ta'minot</b>                                                                                                     | <b>Metodik ta'minot</b>                                                                                                                                                  |
|------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Mazmun</b>    | O'zaro aloqador xilma-xil o'quv axborotlar majmuasi                                                                          | Maxsus ishlab chiqilgan qo'llaniladigan o'quv-uslubiy majmuadir                                                                                                          |
| <b>Maqsad</b>    | O'qituvchi va talabalar o'rtasida faol axborot almashishning o'zaro harakatini tashkil etish uchun kerakli sharoit yaratish. | Pedagogik faoliyatni doimiy takomillashtirib borishning yetarli sharoitini yaratish.                                                                                     |
| <b>Funksiya</b>  | Tashkiliy, ta'limiy nazoratni va kommunikativligini oshirish                                                                 | Ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotda qo'llanilishi, umumlashtirishi va translyatsiyalash, kundalik metodik yordam                                                      |
| <b>Tuzilishi</b> | O'quv dasturlarini, o'quv- metodik nashrlar, didaktik materiallar, o'qitish vositalar.                                       | O'quv dasturlari, ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ta'lim ishlanmalari, nazorat-baholash topshiriqlari, fanni o'qitishga doir tashkiliy ko'rsatmalar |



### O'qitish tizimi modeli




Ta'lim me'todlari muammosi eng asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda va quyidagi talablarga javob berishi kerakdir.

**Birinchi talab:** metodning tarbiyaviyligi bo'lib, bunda har qanday metod o'quvchilarning umumiy rivojlanishiga, bilimga

qiziqishlariga e'tiqod, his-tuyg'u qarashlariga ta'sir etadi. Ta'limning tarbiyaviy vazifasini amalga oshirish metodning tanlanishiga bog'liqdir;

**Ikkinchi talab:** metodning ilmiyligi dars berish va ta'limning har qanday metodi o'quv jarayonining qonuniyatlari bilan belgilanadi. Metod ilmiy jihatdan qanchalik aniqlikda asosli bo'lsa, aniqligi ravshan bo'ladi.



Eng muhimi shundaki, biror metod yordamida qanday umumiy va aniq vazifalarni hal etish mumkinligini, u qanday mazmunga mos kelishini, faoliyatning qanday turlarini talab qilishni va ularni qanday tashkil etish lozimligini ko'ra bilish kerak. Metodning ilmiyligi geografik voqea va hodisalarni, qonuniyatlarni to'g'ri anglashni ta'minlaydi va o'quvchilarni to'g'ri ilmiy tasavvurga olib boradi.

**Uchinchi talab:** Metodning ommabopligi. Bunda o'quvchilar rivojlanishining pedagogik-ruhiy imkoniyatlari e'tiborga olinadi. Demak, o'quvchi metod tanlaganida o'quvchiga nimalarni tushuntirish kerakligi haqida emas, balki u nimani tushuna olishi haqida ham o'ylashi kerak.

**To'rtinchi talab.** ta'lim metodining samaradorligi, uning



o'quv materialini mustahkam egallashga qaratilganligidir.

**Beshinchi talab.** O'z ish faoliyatida ilg'or tajribalarni qo'llash va uni muntazam o'rganish. Nazariya va amaliyotda ta'lim metodlari bilan bog'liq yangiliklarni doimo o'rganib borish lozim. Geografiya o'qitish metodlari haqida so'z borar ekan, "metod", "usul" degan so'zlar yonma-yon uchraydi. Metod usul bir-biridan ba'zan farq qilmaydi, bir xil ma'noda yuritilib kelinadi. Masalan, kartalarni solishtirish - taqqoslash metodi deb yuritiladi. Bu noto'g'ri. Chunki, kartalarni solishtirish metod emas, u solishtirish usulidir, xolos. O'zbek tilidagi mavjud qo'llanmalarda taqqolash ham, solishtirish ham birdek taqqoslash deb ishlatiladi. Bu chalkashliklardir. Taqqoslash-o'rganilayotgan geografik obektni ilgari o'rganilgan obekt bilan taqqoslash tufayli o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradi. Masalan: Janubiy Amerika cho'lini Osiyo cho'li bilan, Sirdaryoni Yenisey bilan taqqoslab, ularning o'ziga xos xususiyatlari ochib beriladi.

Taqqoslash og'zaki bayon metodining bir usulidir. Solishtirish kartalarni solishtirish va tahlil qilish bilan bir geografik obektga xos bo'lgan obekt va hodisalarning sabablarini aniqlashdan iborat. Masalan: turli mazmundagi kartalar solishtirilib, tahlil etiladi. Solishtirish- kartografik qo'llanmalar bilan ishlash metodining bir usulidir. Metod-usullar yig'indisidan iborat. Usul esa metodning tarkibiy qismidir. Geografiyaga xos bo'lgan karta bilan ishlash metodi bir necha usullarni o'z ichiga oladi. Masalan: a) karta bo'ylab sayohat; b) yozuvsiz kartaga geografik obektlarni tushirish; v) kartalarni solishtirish va x.k.

Ba'zi usullarni bir necha metod tarkibiga kiritish ham mumkin. Taniqli metodist M.K.Kovalevskaya ta'lim vositalarini (darslik karta bilan ishlash), bilimning og'zaki bayon shakllari (hikoya suhbat, tushuntirish, ma'ruza) ni bilish metodlari (taqqoslash, kartalarni qiyoslash, umumiy xulosalar chiqarish) ni o'quvchilarning o'quv faoliyati turlari va shakllari (nazariy bilimlarni egallash, amaliy ish metodlari, mustaqil ish metodlari)ni metodlar deb hisoblangan. Metodlar turlicha

bo'lishi mumkin.

Suhbat. Karta bilan ishlash metodlarida ham ishtirok etish mumkin. Demak, metod bilan usul o'rtasida uzviy bog'lanish bor.

Ta'lim metodlarining tasnifi shu tarzda kelib chiqadiki, bu narsa o'qituvchiga o'quvchilarning o'quv materialini egallash shakllaridagi o'xshash va tafovut qiladigan muhitlarni chuqurroq anglab olishda hamda o'z o'qituvchilik faoliyatini muvaffaqiyatliroq tashkil etishda yordam beradi. Ta'lim metodlari muayyan belgilariga ko'ra guruhlariga ajratiladi.

Hozirgi kunda ta'lim nazariyasi va geografiya ta'limida quyidagi tasnif keng tarqalgan:

**I. Bilim olishni asosiy manbalariga ko'ra:**

1. Og'zaki bayon (hikoya, tushuntirish, ma'ruza)
2. Suhbat
3. Kartografik qo'llanmalar bilan ishlash.
4. Ko'rsatmali qo'llanmalar bilan ishlash.
5. Kuzatish va tajribalar.
6. Raqamli materiallar bilan ishlash.
7. Darslik, o'quv qo'llanma va qo' shimcha adabiyotlardan foydalangan holda ishlash.
8. Amaliy bilan metodlar.

**II. Didaktik maqsadlarga ko'ra:**

1. Yangi materiallarni o'rganish.
2. Bilimlarni mustahkamlash.
3. Bilim ko'nikma, malakalarni tekshirish metodlari.

**III. Xulosa chiqarish faoliyatiga ko'ra:**

1. Analitik.
2. Sintetik.
3. Induktiv.
4. Deduktiv metodlar

Fikrlash faoliyati va bilm olish faolligi xususiyati bo'yicha I. M.N.Skatkin bo'yicha metodlar tasnifi quyidagicha:

1. Izohli ko'rgazmali metod.
2. Reprodukativ yoki olingan bilimlarni qayta tiklash metodi.
3. Muammoli bayon.



4. Qisman izlanuvchi metod.

5. Tadqiqot metodi.

S.G.Shapovalenko didaktiv metodlarni 3 ta guruhga ajratgan.

1. Og'zaki metodlar.

2. Ko'rgazmali metodlar.

3. Amaliy metodlar.

Yuqoridagi barcha metodlarni shartli ravishda ikki: "Yangi bilim olish metodlari" va "Olingan bilimlarni qayta tiklash metodlari" ga ajratish ham mumkin. Har bir ta'lim metodi bir-biriga bog'liq bo'lgan ta'limiy va tarbiyaviy tomonlar bilan birlashib turadi.

Ko'pchilik pedagoglar ta'limda faol va sust metodlarni ham ajratadilar. Bu unchalik to'g'ri yo'l emas. Chunki barcha metodlar ham o'rnida to'g'ri qo'llanilsa, o'quvchilar faoliyatini faollashtirishi mumkin.

O'quvchilarning bilish faoliyati ko'pgina omillarga, xususan, o'quv materialining murakkablik, nazariy bilimlar hajmi, sinfning darajasi, o'quvchilarning mustaqil ishlarini qay darajada bajara olish qobiliyati va boshqalarga bog'liq.

Har bir metod ijobiy va salbiy tomonlarga ega. M: hikoya va ma'ruza metodlarini qo'llash shu paytda yaxshi natija beradiki, qachonki o'quvchilarda bilim olishga ishtiyoq kuchli bo'lsa. Yoki muammoli hamda tadqiqot metodlarini qo'llash, uni uyushtirish uchun ko'p vaqt, o'qituvchilardan esa kuchli bilim talab etadi. Biror metodni tanlagan paytda albatta o'quvchilarning bilish qobiliyati, aqliy darajasi, ta'lim vositalari bilan ta'minlanganligi e'tiborga olinishi kerak.

Ta'lim metodlari samaradorligini oshirish hozirgi sharoitda dolzarb vazifalardan biridir. Bir yoki bir necha metodni afzal ko'rish yoki bilish qiyin. Bunga har tomonlama yondashish zarur. Ta'limdagi muvaffaqiyatni ta'lim metodlari tizimi ta'minlaydi. Metodlarning har biri o'ziga xos afzalliklarga ega. U yoki bu tushunchani o'quvchi ongida shakllantirishda har bir metodning o'ziga xos o'rni bor.

Ta'lim metodlarida o'qituvchining qiyofasi, uning

dunyoqarashi, ruhiy pedagogik, uslubiy va maxsus ilmiy tayyorgarligi aks etgan bo'ladi. Xuddi ana shu omillar ta'lim metodlari samaradorligini belgilaydi. Muayyan metodga yaxshi tayyorgarlik ko'rmagan o'qituvchida shu metodning o'zi salbiy jihatlarini ham namoyon qilishi mumkin, shu sababli ta'lim metodlarini samaradorligini oshirish uchun o'qituvchining tayyorgarlik darajasi muhim ahamiyatga ega. Metodlarni noto'g'ri tanlash o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini sust egallashga sabab bo'ladi. Demak ta'limda universal metod yo'q.

Shu tufayli ham o'qituvchi faqat bitta metoddan foydalanib dars o'tmaydi. Bunday bo'lishi mumkin emas. Geografiya ta'limining eng muhim xususiyati shundan iboratki, o'qituvchi aksariyat darslarni o'tishda og'zaki bayon metodlarini qo'llaydi va samarali natijalarga erishadi.

Geografiya ta'limida kartalarni rasmlarni tanlashda izchillikning bo'lmasligi ham bilimlarni sustlashtiradi. Masalan VII-sinfda "Afrika tabiat zonalari" mavzusida o'quvchilar ekvatorial o'rmon, savanna sahro kabi tushunchalarni egallashlari kerak. Bunda dastlab o'qituvchi o'quvchilarda yuqoridagi tabiat komplekslarining tasvirini o'quvchilar ko'z o'ngida gavdalandirish, so'ngra esa uni kartadagi o'rni bilan bo'lsa, hududiy komplekslar turli-tumanligi haqida o'quvchilar zarur bilimga ega bo'ladilar.

Quyidagi geografik bilim manbalariga ko'ra o'qituvchi va o'quvchi faoliyati asosida eng ko'p qo'llaniladigan geografiya ta'limi metodlarini ko'rib chiqamiz.

| N | Umumiy metodlar                        | Xususiy metodlar                                                                                                                                                                                            |
|---|----------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1 | Og'zaki bayon                          | Tushuntirish, hikoya, o'quvchining o'qib berishi. Taqqoslash, savol-javob, suhbat, ma'ruza                                                                                                                  |
|   | Kartografik qo'llanmalar bilan ishlash | Topografik karta, umumgeografik karta, mavzuli karta, yozuvsiz karta. Kartaxema, globus bilan ishlash. Geografik nomlarni o'rganish, karta bo'ylab sayohat, karta ko'chirish, kartogrammalar tuzish va x.k. |



|   |                                              |                                                                                                                                                                                                                                                                              |
|---|----------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 3 | Darslik va boshqa adabiyotlar bilan ishlash. | Izohli o'qish, mavzu reja tuzish, darslik matnini mustaqil o'qish, darslikdagi mashq va topshiriqlarni bajarish. Darslikdagi karta, rasmlar bilan ishlash, vaqtli matbuot, yangiliklarni o'qish, xrestomatiya ma'lumotlaridan, badiiy adabiyotdan mavzuga oid parcha o'qish. |
|---|----------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

### **Talabalar bilimini mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. Metod bilan bilim o'rtasida qanday aloqadorlik mavjud?
2. Geografiya fanidagi metodlar ta'lim metodidan qanday fark qiladi?
3. Didaktika metodlari tasnifi bilan geografik ta'lim metodlari o'rtasi-da qanday uxshashliklar bor? Fikringizni isbotlang.
4. Ta'lim metodlari qanday pedagogik, didaktik talablarga javob berish kerak?
5. Geografiya ta'limi metodlari tasnifini sxematik tarzda aks ettiring.
6. Geografiyada bilim manbalariga ko'ra ta'lim metodlarini tasvirlang.
7. Xususi metodlar bilan umumiy metodlarni tavsiflang.

### **6-mavzu: O'quv sayohatlari va ularning turlari**

#### **Reja:**

1. Geografiya o'qitishda sayohatlarning vazifalari
2. Geografiyadan o'tkaziladigan o'quv sayohatlari to'zilisli va ularni tashkil qilish.
3. Sayohatga tayyorgarlik.
4. Sayohat o'tkazish.
5. Sayohatlarga yakunlari yasash va sayohat materiallaridan o'quv ishida foydalanish.
6. Geografiya ta'limida ekskursiya
7. Tabiiy geografiya fanidan ekskursiya uyushtirish.
8. Iqtisodiy geografiyadan ekskursiya uyushtirish.

**Tayanch so'z va atamalar:** *Ta'lim metodi, didaktik qonuniyatlar, metodning tarbiyaviyligi, metodning ilmiyligi, metodning ommabopligi, metodning samaradorligi, usul, solishtirish, metodlar tasnifi, bilim olish manbalariga ko'ra metodlar, didaktik maqsadlariga ko'ra metodlari, xulosa chikarish faoliyatiga ko'ra metodlari.*

#### **Geografiya o'qitishda sayohatlarning vazifalari**

Maktabda o'tkaziladigan barcha geografiya sayohatlarning o'quv sayohatlariga yangi dasturlarda ko'rsatilagan sayohatlar va sinfdan tashqari ish tartibida o'tkaziladigan sayohatlarga bo'linadi. Geografiyadan o'quv sayohatlari tabiatda korxonalarda sanoat korxonalari, qishloq xo'jalik korxonalari, transport korxonalrida, shuningdek meteorologiya stansiyasida o'tkaziladi. Ayrim hollarda muzeylarga ham o'quv sayohatlari o'tkazish mumkin. Lekin bunday sayohatlar dasturda ham ko'rsatilgan emas va sinfdan tashqari ish sifatida o'tkaziladi. Sayohatlar ko'rsatmalilikning eng yuqori shakli bo'lib, maktabda geografiya o'qitish ishida juda kata ahamiyatga ega. Geografiya sayohatida olinadigan bilimlar ikkiyoqlama ahamiyatga ega. Ular bir tomonda obyektlar va hodisalarning o'ziga hos xususiyatlari to'g'risidagi bilimlar



bo'lsa, ikkinchi tomondan, bunday bilimlar muayyan obyektlar va xodisalarni bilish uchun misol bo'lib xizmat qiladi, ya'ni umumiy tushunchalarning tarkib topishi uchun manba bo'ladi. Masalan tabiatga qilinadigan sayohat vaqtida o'quvchilar shu hudud tabiatining xususiyatlari bilan tanishadilar vash u bilan birga mahalliy tabiat misolida tabiatga hos bo'lagan umumiy qonuniyatlarni bilib oladilar.

Xuddi shuningdek korxonaga sayohat vaqtida o'quvchilar shu xudud xalq xo'jaligining bir qismi bo'lgan bu korxonaning iqtisodi bilan tanishadilar va ayni vaqtda shu xo'jalikda korxonalarning tashkil qilinishi haqida vash u xo'jalik tarmog'ining ishlab chiqarish – iqtisodiy xususiyatlari to'g'risida tushuncha oladilar.

Geografik sayohatlar o'quvchilarning o'z ulkalarini o'rganishlariga yordab berib va ulardan umumiy tasovvurlar hamda tushunchalar zahiasini hosil qilibgina qolmaydi, balki ularda ko'zatuvchanlik, qiziqish xissini ham rivojlantiradi. Geografiyaga va tevarak-atrofdagi tabiatga hamda xo'jalik hayotiga qiziqishini o'yg'otadi. O'quvchilar sayohat vaqtida mustaqil rivishda amaliy ishlar bajaradilar; bu esa ularni faolligini oshiradi va amaliy ko'nikma hamda malakalarini rivojlantiradi.

#### **Geografiyadan o'tkaziladigan o'quv sayohatlari to'zilisli va ularni tashkil qilish.**

Dastur tizimi barcha sinflarda geografiyadan o'tkazilgan o'quv sayohkatlarning majburiy minimumi belgilangan. Lekin har bir aniq holda sayohatlar soni to'g'risidagi masala mahalliy sharoitga qarab hal qilinadi. Masalan, qishloq maktabida tabiatga ko'proq sayohatlar o'tkazish mumkin. Kata shaharlarda esa ko'proq korxonalarga, (xususan 9-sinfda) sayohatlar o'tkazsa bo'ladi. Mahalliy sharoitga qarab, sayohatlarning mazmuni ham turlicha bo'lishi mumkin. Bir xil maktablarda past tekislikda, ba'zi maktablar tog'larda, ba'zilar chalacho'l joyda joylashgan. Lekin o'quvchilar bilan tabiatga yoki korxonalarga sayohatlar uyushtirib bo'lmaydigan joy yo'q. O'quv sayohatini o'tkazish uchun kamida ikki soat vaqt hatto uch- turt soat vakt kerak.

O'quv sayoxatlari o'tkazish uchun ketadigan vaqt kursning o'quv soatlari jumlasiga kiritilgan. Lekin sayohatlarni jadval bilan belgilangan dars vaqtida o'tkazib bo'lmaydi. 5-sinfda bu sohada ayniqsa katta qiyinchiliklarga duch keladi. Buning uchun ilki yil bo'lishi mumkin. 5-sinfda geografiyasidan haftasiga kamida bir marta yoki yaxshisi ikki marta darsning oxirgi soatiga qo'yish kerak. Bunda o'qituvchi sayohat uchun darsdan keyingi vaqtni ma'lum qismidan ham foydalanishi mumkin, ba'zan esa geografiya darsida oldigni boshqa predmet soatida ham sayohat uchun foydalanish mumkin. Boshqacha yo'l tutuish ham mumkin. Butun maktab dars jadvalida sayohatlar uchun maxsus soatlar ajratiladi. Ko'pchilik hollarda korxonaga bir marta olib borish mumkin bo'lgan o'quvchilar soni 25 kishidan ortmaydi, ya'ni har bir 7-8 yoki 9-sinf o'quvchilari bilan ikki martadan sayohat qilinishi kerak. Shahardan tashqarigi 5-yoki 6-sinf o'quvchilari bilan sayohatga chiqilganda o'qituvchi 40-45 bolaga qarab yurishga qiynalib qoladi. Ayni vaqtda bir necha bir xil sinfda dars beradigan ba'zi bir geografiya o'qituvchilari boshqa fanlarning (biologiya, rasm, fizika va ximiya fanlari) o'qituvchilari bilan birgalikda umumiy sayohatlar uyushtiriladi. Bunday umumiy sayohat maxsus rejalashtirishni talab etadi va uni alohida ishlab chiqish kerak bo'ladi albatta.

O'quv sayohatlarini dasturdagi tegishli mavzularni o'tishdan oldin ham bu mavzular o'rganib bo'lgandan keyin ham o'tkazish mumkin. Dasturdagi tegishli mavzularni o'tkazmasdan olidin o'tkaziladigan sayohatning vazifasi o'quvchilarda dasrdan keyingi o'qitish ishini asoslanadigan tasavvurlar xosil qilishdan iboratdir.

Dasturdagi tegishli mavzular o'rganib bo'lingandan keyin o'tkaziladigan sayohat yakunlovchi takroriy xususiyatga ega va darsda o'tilganlarni qayd qiladi. O'quv mashqlari hisoblangan sayohatlar ham darslar kabi rejalashtirilishi kerak. Sayohatlarni kunlik rejaga kirish va har bir sayohat uchun maxsus reja to'zish lozim. Shu bilan birga rejada har bir sayohatning uchta asosiy tarkibiy qismi aks ettirilishi shart.

#### **1. Sayohatga tayyorgarlik.**



2. Uni o'tkazish.

3. Yakun yasash.

### **Sayohatga tayyorgarlik.**

Sayohatga tayyorgarlik o'qituvchining tayyorgarligini ham va o'quvchilarning tayyorgarligini ham o'z ichiga oladi. O'qituvchi sayohatga tayyorlanar ekan, dastavval sayohat obyekti va maxsus adabiyot bilan tanishadi. Korxonaga sayyohat qilinadigan bo'lsa o'qituvchi bu korxonaga oldin o'zi borib kelishi, ishlab chiqarishni ko'zdan kechirishi boshqaruvchi xodimlar bilan suhbat o'tkazishi zarur.

Agar tabiatga sayohat tayyorlanayotgan bo'lsa, o'qituvchi sayohat o'tkaziladigan joyni oldindan tekshirib chiqishi, moshina tanlashi, o'quvchilar ish olib boradigan obyektlarni va to'xtab o'tiladigan joylarni mo'ljallab qo'yishi kerak.

Sayohat obyekti va adabiyot bilan tanishish asosida sayohat o'tkazish rejasi to'ziladi. Sayohat tabitga uyushtiriladigan bo'lsa, uning rejasi quyidagilarni o'z ichiga oladi: moshina to'g'risidagi barcha ma'lumotlar (moshina masofasi, uning boshlang'ich va tugush joylari, to'xtab o'tiladigan joylari va ko'zatish obyektlari), o'qituvchi va o'quvchilar ishini mazmuni (kirish suhbat, har bir joydagi suhbatlar, yakunlovchi suhbat, amaliy ishlar), shuningdek sayohatni qanday tashkil qilishning taxminiy rejasi, (yig'ilish muddati va joyi, o'quvchilarni guruhga bo'lish, qilinadigan ishlarni guruhlar orasida taqsimlash, zarur bo'lgan asbob uskunalar va boshqalar).

O'qituvchi sayohatni o'tkazishning belgilangan rejasi bo'icha o'quvchilar bilan tayyorgarlik ishlari olib boradi. O'quvchilarga sayohat vazifalari haqida gapirib beradi. Qayerga va qachon yig'ilish kerakligini aytadi. Hamda o'quvchilarni guruhlariga bo'ladi, har bir guruhga qilinadigan ish hamda zaruriy asbob – uskunalar to'g'risida ko'rsatmalar beradi, shuningdek javob olinishi kerak bo'lgan savollar beradi. (o'quvchilar bu savollarni yozib oladilar).

Guruhlarning hamda har bir guruhdagi o'quvchilarning soni sinfdagi o'quvchilar soniga, sayohatlar mazmuniga, o'rganish obyektlari va miqdoriga va moshinaning uzunligiga

bog'liqdir.

Odatda guruhlar soni 4-5 dan oshmaydi, chunki guruhlar soni ko'p bo'lsa, o'qituvchi sayohat vaqtida o'quvchilarning ishini tekshirishda va ko'rsatmalar berishda qiynalib qoladi.

### **Sayohat o'tkazish**

Sayohatni barcha o'quvchilar butun sayohat obyektlari bilan tanisha oladigan qilib o'tkazish kerak. Shu bilan birga har bir guruh a'zolaridan har biri sayohat obyektiining ayrim tarkibiy qismlarini o'rganish yuzasidan mustaqil ish qilaoladigan bo'lishi zarurdir. Bunday sayohatning bir ikki vazifani qanday qilib bir-biriga qo'shib olib borish zarur degan eng muhim tashkiliy masala kelib chiqadi. Sayohatlar o'tkazish tajribasida o'quvchilar ishini tashkil qilishning ikki variandi qo'llaniladi. Birinchi varianti shundan iboratki barcha guruhlar avvalo o'zlari uchun ajratilgan maydonlarga bo'linib, o'qituvchining tegishli ko'rsatimasiga muvofiq, o'zlariga topshirilgan ishlarni bajaradilar. Bajarilgan ishni tekshirib bo'lgandan keyin o'qituvchi barcha o'quvchilarni moshinaning hamma qismlari bo'ylab olib o'tadi. Bunda har bir guruh o'z maydonida zaruriy izohlar berib o'tadi.

Ikkinchi variant bo'yicha sayohat o'tkazilganda barcha o'quvchilar moshina bo'ylab yurib boradilar. O'qituvchi to'xtab o'tilgan har bir joyda suhbat o'tkazadi va barcha guruhlar o'qituvchi maslahatidan foydalanib o'z ishini bajaradi.

Birinchi variant sayohat obyekti o'z ko'lamiga ko'ra kichik bo'lgan taqdirda va ayrim maydonlar bir-biriga yaqin bo'lgan sharoitda eng qulay hisoblanadi. Bunday holda o'qituvchi guruhlarini aylanib yurishi va ularning ishtarini bevosita kuzatib borishi mumkin.

Ikkinchi variant mashina katta, xilma xil va murakkab bo'lgan taqdirda birinchi variantdan ancha yaxshi xisoblanadi. Sayohat kirish suhbat, bilan boshlanadi. Bunda sayohat obyekti haqida qisqacha so'zlab beradi va nimalarga e'tibor berish kerakligini ko'rsatadi. Bundan tashqari kirish suhbat, sayohat yuzasidan tashkiliy ko'rsatmalar beriladi.

Sayohat vaqtida o'qituvchi mumkin qadar o'quvchilarni



mustaqil ishlariga imkon berishi va turli metodlarda hamda ish uslublaridan foydalanish kerak. O'qituvchi o'quvchilarga savollar hamda topshiriqlar berish vaqtida mumkin qadar kamroq aytib berishi, odatda kirish izohlari va ko'rsatmalar berish bilan chegaralanishi lozim. O'quvchilar topshiriqni bajarish va savollarga javob qaytarish vaqtida obyektlarni ko'rib chiqadilar va o'lchaydilar. Xomaki yozib oladilar va rasmlar chizadilar, kolleksiyalar yig'adilar. O'qituvchi guruhlar bajargan ishni va yig'ilgan materialning xolatini joyning o'zida tekshirib ko'radi. Sayohat odatda qisqacha suhbat bilan tugaydi. Bu suhbatda o'qituvchi ko'rilgan narsalar to'g'risida ba'zi bir xulosalar chiqaradi hamda to'plangan material ustida bundan keyin qanday ishlash tartibi to'g'risida ko'rsatmalar beradi.

#### **Sayohatlarga yakunlar yasash va sayohat materiallaridan o'quv ishida foydalanish**

O'quvchilar sayohatda olgan bilimlar chuqur tushunishni va mustahkamlashni talab etadi. Shu maqsadda yakunlovchi suhbat yoki konferensiya o'tkazilib, bunda o'quvchilar qilingan ishlar to'g'risida ma'lumotlar beradi va o'zlari to'plagan materiallarni namoyish qiladilar.

Bunday yakunlovchi konferensiyaga tayyorgarlik vaqtida o'qituvchi o'quvchilarning sayohatidan to'plagan materiallarni qayta ishlash va sistemaga solish ishlarini tashkil qiladi. Har bir guruh o'z kuzatishlari yakunlari va qo'yilgan savollarga berilgan javoblarni oqqa ko'chiradi. Rasmlar va sixemalarni yaxshilab qaytadan chizadi. Kolleksiyalar hamda namunalarni qaytadan ishlaydi, izohlarni yozib qo'yadi, kundalik daftarlarni tartibga soladi. Stend hamda ko'rgazmani rasmiylashtirish yuzasidan qilinadigan barcha texnik ishlar guruhlarga bo'lib beriladi. Konferensiyaga tayyorlangan stendlar, kolleksiyalar va boshqa materiallar keyinchalik darsda foydalanilishi kerak. Shu bilan birga bunday sayohat materiallaridan maktablarda o'lkashunoslik burchaklari va xonalar bunyodga keladi, sayohatga tayyorlanish va unga yakun yasash yuzasidan qilingan ishning o'zi esa o'quvchilar bilan sinfdan tashqarida qilinadigan ishlar uchun juda ajoyib asos bo'ladi. Darslarda

yangi material o'tayotganda geografiya o'qituvchisi har doim o'quvchilarning sayohatda olgan bilimlariga tayanib ish ko'rishi kerak.

O'qituvchi sayohat mavzusi bilan bog'liq bo'lgan tegishli bilimlarni o'tayotganda suhbat vaqtida o'quvchilar sayohatda ko'rganlari asosida javob qayta oladigan savollar qo'yada. O'qituvchi tushuntirish vaqtida sayohatdan ma'lum bir narsalardan misol keltiradi. Sayohatda to'plangan materiallar (masalan, tog' jinsilari namunalari ko'rsatadi).

Ba'zi bir hollarda o'quvchilardan ayrim masalalar bo'yicha ma'ruzachilar tayinlanib yangi material bayon etilayotgan vaqtda ularga kiskacha axbarotlar berishni tavsiya qilish mumkin.

#### **Geografiya ta'limida ekskursiya**

Bunda o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi tayyorgarligi asosiy o'rinni egallaydi. O'qituvchi tayyorgarlik jarayonida ekskursiyaga boriladigan obyekt uchun zarur buladigan adabiyetlarni kartalarni va boshqa materiallarni tayyorlaydi. Geografiya o'qituvchisi avvalo ekskursiya obyektini karta va adabiyetlar, xamda maxalliy aholi yordamida atroflicha urganadi. Keyinchalik ekskursiya marshruti belgilanmaydi. Tayyorgarlik jarayonida ekskursiyada qanday masalalarni o'rganish zarurligiga e'tibor koratiladi. Ekskursiyaga boriladigan marshrutni avvalo o'zi kurib chikishi o'quvchilarni nimalarni kurishi, qanday amaliy ishlarini bajarishi kerakligini aniklab oladi. O'qituvchi ekskursiya obyektini kurib bulgandan keyin uni uyushtirish rejasini to'zib chikadi. Ekskursiya ishlab chikarish korxonasiga muljallangan bulsa, avvalo uning texnologik jarayonini o'zi kuzdan kechirishi, korxona mutaxassislari, ishlari bilan uchrashish kerak. Eng mukimi korxona ma'muriyati balan ekskursiyani uyushtirish vaktini, ekskursiyangi utkazuvchi mutaxassisni aniklab kuyish kerak. Ekskursiya utkazuvchini o'quvchilar dikkatini nimalarga karatish kerakligini, xamda ekskursiyani maksadi vazifalari, marshruti, rejasi tuxtash joylariga borishni mutaxassisni ogoxlantiriladi. O'quvchilarga mustakil ravishda korxonaning



kiskacha tarixi bilan tanishishi vazifalarni mustakil aniklash topshiriladi.

Ishlab chikarish korxonalariga ekskursiya uyushtirilganda o'quvchilarni albatta texnika xavfsizligi masalalari bilan oldindan tanishtirish maksadga muvofik. Bunday korxonalariga ekskursiya uyushtirishda kancha o'quvchini olib borish xam oldindan belgilab olinishi kerak. Kupchilik tajribalar shuni kursatmokdaki ishlab chikarish korxonalariga ekskursiya uyushtirilganda o'quvchilar soni 20-25 tadan oshmasligi maksadga muvofik. Shunda ta'lim samaradorligi yukori buladi.

O'quvchilarni ekskursiyaga tayyorlash xam eng ma'suliyatli vazifalardan biri sanaladi. Ekskursining maksadi vazifalarni o'quvchilar mustaxkam egallash zarur. Eng mukim geografik bilimlar tushunchalar bilan ularni tanishtirish kerak. Kartalar yordamida ekskursiya marshruti obyektini geografik urni uning kulay yaki nokulay tomonlari atroflicha urganilishi maksadga muvofik. Agar ekskursiya kishlokda mashina traktor parkiga muljallangan bulsa, o'qituvchi o'quvchilarning bu obyekt xakidagi bilimlarini aniklaydi. Ayrim o'quvchilarning bu obyekt xakidagi butun sinf o'quvchilariga xikoya kilib berishi uyushtiriladi. Bunday tadbirlarni barchasi o'quvchilarning ekskursiyaga bulgan xavaslarini oshiradi. Ekskursiya uyushtirishdan oldinsinf o'quvchilari guruxlarga bulinadi, xar bir guruxga faol o'quvchilardan raxbarlar belgilanadi. Xar bir guruxga topshiriklarni taksimlab chikiladi. Ekskursiya uyushtirish uchun zarur bulgan asbob uskuna va vositalar aniklanadi. Guruxdagi barcha o'quvchilar ekskursiya jarayonida qanday vazifalarni bajarishlari nimalarni yigishlari xam aniklab olinadi. O'quvchilar yigilgan materiallarni kay tartibda joylashtirilishiga e'tibor berishi kerak. Ma'lumki barcha ekskursiyalarning maksadi jamiyat va tabiat xakidagi geografik tushunchalarni shakllantirishdan iborat. Masalan ixtisodiy geografik ekskursiyalarda xozirgi zamon sanoati va kishlok xujaligi, ularning ixtisodiy geografik urni ixtisoslashishi koperatsiyasi, mexnat unumdorligi toyfasi bozor ixtisodiga

moslashishi bozor bilan boglik bulgan unlab tushunchalar va boshkalarni shakllantirishdan iborat buladi. Ekskursiya jarayonida o'quvchilar xilma xil kasblar bilan xam tanishadilar, ularda mexnatga nisbatan muxabbat xislatlari shakllanadi va tarbiyalanadi. Xar bir ekskursiyada ekskursiyaning marshrut davomidagi tuxtash joylari (masalan relf shakllari, jarlar, dare uzani, jinslarning yetishi) va x.k albatta ekskursiya rejasida uz aksini topishi kerak. Ekskursiya paytida o'quvchilar faolligini oshirish masalalari xam o'qituvchining dikkat markazida bulishi lozim. Ayniksa yesh o'qituvchilar ekskursiya davomida o'quvchilarga beriladigan savollarni oldindan tayyorlab kuyishlari maksadga muvofik.

Ekskursiyada o'quvchilarning mustakil ishlariga xam aloxida e'tibor berish zarur. Agar ekskursiya obyektini unchalik katta bulmasa, o'qituvchi oldindan bulingan zvenolarni korxona bulimlariga taksimlaydi va yuboradi. Ularning bajaradigan mustakil ishlariga raxbarlik kiladi. O'quvchilar dikkatini nimalarga karatishlari o'qituvchi tomonidan ogoxlantiriladi. Agar ekskursiya obyektini katta bulsa o'quvchilarni zvenolarga taksimlamasdan ekskursiya uyushtiriladi. Shunki bunday obyektlarda o'quvchilarni ancha mushkul bulib koladi. Tabiiy va ixtisodiy ekskursiyalar mazmuni bir biridan fark kiladi.

#### **Tabiiy geografiya fanidan ekskursiya uyushtirish.**

1. Kirish suxbati, atrof muxit umumiy tasviri. Ekskursini maksadi, vazifalarni tushuntirish.

2. Tanlangan tabiiy obyektda relyef, tog' jinslari, usimlik tuprok katlami dare, soy kullar, erkin namayen bulishi kerak.

3. Tabiiy xududiy kompleksni qanday ajratish kerakligi uni tariflash metodikasi TXK elementlarini kundalikka tushirish, tabiatda o'quvchilar uzlarini qanday tutishlari kerakligini uktirish.

4. Tabiatni o'rganish buyicha to'zilgan zveno brigadalarning mustakil ishlari nimalardayen iborat bulishligi

5. Ekskursiya xududi yurish uchun yarakli bulishi.

6. Yakuniy suxbat uyushtirish kuzatish va tekshirish natijalari, ularning tugriligi yigilgan materiallarni xamda



xisobotlarni tartibga solish.

Quyida ekskursiyada maxalliy darelarni o'rganish rejasini keltiramiz.

1. Kuprik orkali kishda muzlagan paytida darening enini ulchang.

2. Dparening chukurligini ulchash, dare uzani ataxmini profilini to'zish.

3. Okim tezligini aniklash

4. Burilib okkan jaylardagi okim teziligini aniklash

5. Darening kirgogida tuplanadigan joylarni topib kairlarni aniklash.

6. Qanday irmoklari bor.

7. Darening toshadigan paytlarini aniklash

8. Neviler yordamida suvning eng kutarilgan va pasaygan davrlarini aniklash.

9. Aholi punktlari dare yekasidan kancha uzaklikda joylashganligi

10.Kurgoklarida qanday kishlok xujalik ekinlari ekiladi. Utlaklar mavjudliligi

11.Aholining suv bilan ta'minlanishi qanday yulga kuyilgan

12.Muzlash kalinligi

13.Chumiladigan joylar bormi kayyerlari chumilish uchun xavfliligi

14.Qanday balik turlari yashashligi

15.Yuk tashish axamiyati qandayligi.

16.Paromlar kupriklar borligi

17.Dare yekasida qanday tuprok, usimlik turlari va xayvonlar uchrashligi va xokazalar urganilishi mumkin.

Ixtisodiy geografiyadan ekskursiya uyushtirish.

1.Kirish suxbati korxona ma'muriyati xodimlari bilan suxbat

2.Ekskursiya uchun tanlangan korxona maxalliy ixtisodiy rayon tarmoklargakirishning undagi texnologik jarayon o'quvchilarga tushunarli bulishi kerak.

3.O'quvchilarni korxona strukturasi bilan tanishtiring.

ishlab chikarishni tashkil etilishininng korxona muxiti orkali o'quvchilarga yetkazish (o'quvchilar korxona tarkibi to'zilishlarini chizishlari kerak).

4.O'quvchilarning mustakil ishlarini tashkil kilish (ishlab chikarish texnologiyasi tayyor maxsulotlar, statistik ma'lumotlar bilan tanishishi).

5.Yakuniy suxbat kurgan va eshitkanlarini xamda ishlab chikarishni kengaytirish xakida o'quvchilarning fikrlari, ishlab chikarishning atrof muxitga ta'siri xakida o'quvchilar muloxozalari. Kuyidagi issiklik elektr markazi (IES) ga ekskursiya rejasini keltiramiz.

1.IES ning shu joyda vujudga kelish tarixi va rivojlanishi.

2.IES ning xalk xujaligidagi axamiyati. (maxalliy respublika axamiyatiga egaligi).

3.IES ning transport alokalari.

4.IES ning texnologiya xususiyatlari va uning korxonalarga nisbatan geografiya joylashishining ta'siri.

5.Elektro energiya ishlab chikarishdagi jarayon.

6.IES ning kuvvati va issiklik berish radiusi.

7.IES qanday korxonalarning elektr energiya bilan ta'minlaydi.

8.IES da mexnat jarayonining axvoli.

9.IES ning istikboli.

10.IES ning ilgor ishchilari va xokazolari.

Ukuv ekskursiyalariga o'quvchilarning tayyorgarligi darsda amalga oshiriladigan bulishi kerak. O'quvchilar ekskursiyaga ilmiy amaliy va tashkiliy jixatdan tayyorgarlik kurishi kerak. Ilmiy jixatdan tayyorgarlikda tabiy geografik tushunchalarini takrorlashdan iborat bulishi kerak. Usha bilimlar ekskursiyada takrorlanishi lozim. Chunki usha bilimlarsiz dala sharoitida yeki korxonada yangi bilimlarni uzlashtirish mumukin emas.

Amaliy tayyorgarlikekskursiya jarayonida bajariladigan ishlarga kunikmalar xosil kilish, kunikma va malakalar ekskursiya mazmuni bilan boglangan bulishi kerak. Ekskursiya yakuni shu yigilgan materiallar (tog jinslari, gerbariylar,



kolleksiyalar, ishlab chikarish alokalari buyicha sxemalar, korxonaning to'zilishi, diagrammalar, kundaliklar, rasmlar va boshkalar) sxemaga solinadi.

Geografiya o'qituvchisi bu materiallardan darsda va darsdan tashkari paytlarda foydalanishi mumkin.

Ekskursiyada yigilgan materiallar o'quvchilar bilan birgalikda umumlashtiriladilar. Eng muxim bilimlar tushunchalar takrorlanishi zarur. Aytaylik maxalliy darsga uyushtirilgan ekskursiyada kuyidagi savollar takrorlanishi maksadga muvofik. Bu dare kaysi xavzaga karaydi? Uning rejasi qanday? Qanday tipda tuyishadi? Xujalikdagi roli qanday? Undan kelajakda foydalanish istikbollari. Dare suvining ifloslas manbalari nimalardan iborat ekanligi va xokazalar.

Geografiya ta'limida predmet ekskursiyalardan tashkari dasturdan tashkari (xoxlovchi o'quvchilar bilan) uyushtiriladigan ekskursiyalar xam mavjud. Bunday ekskursiya mazmunida maktab geografiyasidan tashkari bilimlar xam uchraydi.

Maktablarda kompleks ekskursiyalar xam uyushtirish mumkin. Bunday ekskursiyada biologiya fizika, ximiya, tarix, iktisod o'qituvchilari xam katnashadilar. Kompleks ekskursiyalarida bir necha sinf o'quvchilari ishtirok kiladilar. Xar fan o'qituvchisi ekskursiya jarayonida o'quvchilarga beriladigan savollarni oldindan to'zib kuyishlari lozim. Kompleks ekskursiyalarda yigilgan materiallar kayta ishlanadi va konferensiya bilan yakunlanadi.

## **7-mavzu: O'quvchilar bilim ko'nimalarini nazorat qilish va baholash usullari**

### **Reja:**

1. O'quvchilarning bilim, ko'nima va malakalari
2. O'quvchilar bilimini baholash usullari
3. O'quvchilar bilimini tekshirish usullari
4. O'quvchilarning fanga oid kompetensiyalari

### **O'quvchilar bilim ko'nimalarini nazorat qilish**

Maktab geografiyasining mazmuni bilim, ko'nikma, malakalarni o'z ichiga oladi.

Bilim – tashqi dunyoni, obyektiv borliqni ongimizda aks etishini yozma va og'zaki shakli. Bilimlar nazariy va empirik bilimlarga bo'linadi. Nazariy bilimlar narsa va hodisalarni mohiyatini, ular orasidagi bog'liqlik va aloqalarni aks ettiradi. Nazariy bilimlar – bu umumlashgan bilimlardir, ularga nazariyalar, qonunlar, qonuniyatlar, sabab va oqibatlar, tushunchalar kiradi.

Empirik bilimlar – geografiya borliq va hodisalarni tashqi xususiyatlarini aks ettiradi. Unga tasavvur va dalillar kiradi. Hozirgi paytda geografiyada nazariy bilimlarning salmog'i oshib bormoqda. Geografiya kurslarining hammasida umumiy tushunchalar (relyef shakllari, iqlim turlari, iqtisodiy rayonlar, mehnatni geografik taqsimlanishi, sabab va oqibatlar muhim o'rin tutadi.

Nazariy bilimlar. Tushuncha – borliqning kishi tafakkurida aks etishini bir shakli. Tushunchalar obstrakt tafakkur natijasida hosil bo'ladi. Tushuncha bilishning asosiy birligi hisoblanib umumiy va aniq tushunchalarag bo'linadi.

Umumiy tushunchalar deganda alohida voqea va hodisalar haqida emas, balki umumiy bir xil nomga ega bo'lgan voqea va hodisalar tushuniladi. Masalan, daryolar, tog'lar, xalq xo'jaligi tarmog'i, iqtisodiy rayon. Umumiy tushunchalarning mohiyatini aniqlaganda, hamma voqea va hodisalar uchun umumiy bo'lgan xususyatlar ochib beriladi. Masalan: "Geosinklinalar"



deb Yer qobig'ining harakatchan qismlariga aytiladi. Umumiy tushunchalar geografiya kurslarining ilmiy asosini tashkil qiladi. Maktab dasturida quyidagi umumiy tushunchalarni ko'rishimiz mumkin: "Quyosh radiatsiyasi", "Havo massasi", "Mehnat resurslari", "Urbanizatsiya".

Aniq tushunchalar – o'zining nomiga ega bo'lgan aniq geografik borliq, hudud. Volga daryosi, Qora dengiz. Aniq tushunchalarning mohiyati geografiyak bayonlarda ochib beriladi. Aniq tushunchalar: Afrika, Fransiya, Pomir.

Tushunchalar asosiy va bo'ysungan tushunchalarga bo'linadi. Masalan: "tog' jinslari" asosiy tushuncha, "matematik tog' jinsi" bo'ysungan tushuncha.

Sabab va oqibatlar – geogarfik voqea va hrodisalar orasidagi sabab va oqibatlarni aks ettiradi.

Tabiiy geografiya kurslarida quyidagi sabab va oqibatlar ochib beriladi: relyef, iqlim, quruqlik suvlari, Dunyo okeani, tuproqlar. Relyef Yerning ichki va tashqi kuchlarini oqibati deb qaraladi. Tabiiy geografik komplekslar ham sabab va oqibatlarni ochib berish tufayli ajratiladi.

Iqtisodiy geografiya kurslarida sabab va oqibatlarni quyidagi turlari ochib beriladi: Ijtimoiy-iqtisodiy tuzum va xo'jalik o'rtasidagi: davlat tarixiy rivojlanishi va xo'jaligining hozirgi xususiyatlari o'rtasidagi: davlatni rivojlanishi bilan uning iqtisodiy geografik joylanishi o'rtasidagi: tabiiy sharoit va xo'jalikning tuzilishi o'rtasidagi.

Qonuniyatlar – geografik borliq, hodisa va jarayonlar orasidagi eng muhim va nisbatan mustahkam aloqa va bog'liqliklarni aks ettiradi. Tabiiy geografiyada quyidagi qonuniyatlar ochib beriladi: bir butunlik, moddalarning aylanma harakati, davriylik, zonallik hamda ayrim tabiat tarkiblarini vujudga kelish qonuniyatlari (iqlim, relyef).

Nazariya – bu kishilar ilmiy faoliyatini umumlashmasidir. Nazariya tabiat yoki jamiyatning ayrim qismlarini rivojlanish qonuniyatlarini aks ettiradi. Masalan, tabiiy geografik rayonlashtirish nazariyasi, iqtisodiy geografik rivojlantirish nazariyasi, TTK nazariyasi va h.k.

Emprik bilimlar – Tasavvur - geografik borliqning xayoliy tasviri shakli, tasavvuri, obrazi. Aniq tasavvur voqea va hodisalarni bevosita ko'rish orqalim paydo bo'ladi. Xayoliy tasavvur esa maxlum bir hodisalarni va sharoitlarni bayonini yoki ta'rifini o'qish orqali paydo bo'ladi.

Dalillar – maktab geografiyasi mazmunida ko'proq obyektning o'lchamlari, yog'inlar, havo, suv sarfi, iqtisodiy dalillar uchraydi.

Ko'nikmalar – bu faoliyat usullari, bu usullar orqali o'quvchilar olgan bilimlarini amalda qo'llashadi. Ko'nikmalarning qo'llash har safar o'ylashni talab qiladi, shuning uchun ko'nikmaga avtomatizm xos emas.

Malaka-avtomatik ravishda tez bajariladigan faoliyat.

Ko'nikmalar o'quv vazifasiga va maqsadlariga qarab turli guruhlariga bo'linishi mumkin. Bu esa quyidagi ko'nikmalarni bir-biridan ajratishga imkon beradi: obyektlar bayoni: TTK va TICHK ta'rif va h.k.

Ko'nikmalar yordamida o'quvchilar turli xil tafakkur usullarini qo'llashi mumkin: analiz, sintez, umumlashtirish, abstrakt qiyoslash.

### **O'quvchilar bilimini baholash usullari**

O'qituvchi o'quvchilarning bilimini baholaganda uning og'zaki javobini, uy vazifasini qay daraja bajarilganligini, yangi materialni o'rganishdagi aktivligini, mustaqil va yozma-amaliy ishlarning qay tariqa bajarishini nazarda tutish lozim. Shuning bilan birga kontur kartalarda bajargan ishiga ham vaqti-vaqti bilan baho qo'yish mumkin.

O'quvchilarning yozma ishlarini baholashda geografik termin va nomlarning to'g'ri yozilishini (geografik savodxonligini), ishlarning sistemali va bartartib bajarilganligini ham nazarda tutish lozim.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashda, javobning ijodiy va salbiy tomonlarini o'quvchilarga aniq ko'rsatib berish shart.

O'quvchilarning bilimi besh balli sistema bilan baholanadi.

Besh - javob to'liq, to'g'ri, o'quvchi asosiy faktik



materiallarni biladi, asosiy ilmiy tushunchalarni egallagan, geografik aloqadorlikni tushunadi va misollar keltiradi; karta va boshqa ma'lumotlar manbalarining tarkibi va ular bilan ishlashning izchil usullarini biladi; ulardan mustaqil foydalana oladi va kartalardagi obyektivlarni xatosiz ko'rsatadi. O'quvchilarning, xususan, o'quv masallarini hal etishda ijodiy yodashishi, eng yangi geografik voqealardan xabardorligi rag'batlantiriladi.

To'rt- javob to'liq va to'g'ri, ammo faktlarni ifoda etishda, tushunchalarni aniqlashda, geografik aloqadorlik va xulosalarni tushuntirishda o'qituvchining qo'shimcha savollari asosida osongina to'g'rilash mumkin bo'lgan noaniqliklarga yo'l qo'yadi.

Uch - javob to'g'ri, o'quvchi asosan materialni tushunadi, ammo tushunchalarni aniq belgilay olmaydi, aloqadorliklarni mustaqil tushuntirishda qiynaladi yoki faktlarni izchillik bilan ifodalay olmaydi.

Ikki - javob noto'g'ri, asosiy faktik materialni, geografik qonuniyatlarni bilmaydi, tushunchalarni belgilashda qo'pol xatolarga yo'l qo'yadi; darslik va karta bilan ishlay olmaydi.

Bir - og'zaki javob yoki yoki amaliy ish natijasi yo'q.

O'quvchilarning bilimini baholashda raqamlardagi, programalardan tashqari geografik nomlardagi arzimagan noaniqliklar uchun baho pasaytirilmaydi, statistik jadval, kartalardagi zarur ma'lumotlardan foydalana olmaganligi uchun esa baho pasaytirilishi mumkin.

Chorak bahosi, o'rtacha arifmetik hisob bilan emas, balki barcha baholarning salmog'ini inobatga olib chiqariladi. Bundan o'quvchining og'zaki yoki yozma individual bahosi ahamiyatga ega.

O'quvchilarning o'qish natijalarini nazorat va baholash obyekti bo'lib quyidagilar hisoblanadi: bilim; ko'nikma; malaka;

Baholash instrumenti bo'lib topshiriqlar hisoblanadi.

Baholash metodlari

1. Javobi tanlanadigan test topshiriqlari va qisqa javobli topshiriqlar. To'g'ri yechilgan topshiriqqa bir ball qo'yiladi.

Mazkur topshiriqni tinglovchi to'g'ri yecha olsa bajarilgan

hisoblanadi. Ana shunday alohida topshiriqlarni yechish nol (bajarilmasa) yoki bir (bajarilsa) baho qo'yildi.

2. Qisqa jadvalli topshiriqlar guruhi-to'la va to'g'ri javob 2 ballga baholanadi.

Bunday topshiriqlarni yechish bir necha bosqichdan iborat bo'ladi. Masalan, baholar quyidagi tartibda qo'yiladi: nol ball ("topshiriq bajarilmagan"), bir ball to'liqsiz javob berilgan, ammo javob bir balga loyiq), ikki ball ("to'la to'g'ri javob berilgan").

3. Tinglovchi bergan javoblar etalon (haqiqiy javoblar bilan solishtirish orqali) tekshiriladi.

4. Test topshiriqlarini bajarishda har bir nazorat topshirig'iga loyiq holda amalga oshiriladi.

Yakuniy baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- tinglovchi 54 % dan kam ball to'plasa "qoniqarsiz" baho qo'yiladi;

- agar tinglovchi 55 % dan yuqori, ammo 70 % dan kam ball to'plagan bo'lsa, "qoniqarli" baho qo'yiladi;

- agar tinglovchi 71 % dan yuqori, 85 % dan kam ball to'plasa, "yaxshi baho" qo'yiladi;

- agar tinglovchi 86 % dan ortiq ball to'plasa "a'lo" baho qo'yiladi.

### **O'quvchilar bilimini tekshirish usullari**

O'quvchilar bilimini yangi mavzularni o'rganishda nimalarga e'tibor berish lozimligini aniqlashga imkon beradi.

Maqsad va to'g'ri o'tkazilgan tekshirish, o'quvchilarda geografik jarayonlarni tahlil qilish, tabiatni ayrim tarkiblari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni aniqlash ko'nikma va malakalarini shakllanishiga imkon beradi. O'quvchilarni bilimini tekshirishni asosida takrorlash yotadi.

O'quvchilar bilimini tekshirish o'quv dasturlari talablari doirasida bo'lmog'i lozim.

O'quvchilarning geografik bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirishda quyidagilarga e'tibor berish lozim;

- geografik bilimlarni tekshirish jarayonida beriladigan savollar o'quvchilarni bilimini guruhlashga, ulardan



muhimlarini ajratib olishga, fikrlarni o'z so'zi bilan ifodalashga jalb etadigan bo'lishi lozim;

- geografik bilimlarni tekshirish uchun beriladigan savol va topshiriqlar kundalik hayot va o'z yashash joyi (o'lkasi) materiallari bilan bog'langan bo'lmog'i lozim;

- beriladigan savollar to'liq va qiyosiy tarzda bo'lmog'i lozim. O'quvchilar javobi to'liq bo'lishi uchun qo'shimcha savollar ham ko'zda tutilishi zarur.

O'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalari quyidagi usullar yordamida tekshiriladi: og'zaki; yozma; amaliy; test.

**Og'zaki tekshirish usuli.** Tekshirishning bu usuli butun tekshirish jarayonida yetakchi hisoblanadi. Og'zaki tekshirish o'qituvchilarning o'quvchi bilan bevosita munosabatda bo'lishi, ularning bilimlarini, e'tiborlarini, geografik kartani o'qish, qo'llanmalar va boshqa bilim manbalaridan foydalanish ko'nikmalarini tekshirib ko'rish imkoniyatini beradi.

Og'zaki tekshirish ikki xil: yakkama-yakka (individual) va yoppasiga so'rash - og'zaki tekshirishning asosiy va ko'p qo'llaniladigan turidir. Individual so'rash ilmiy tasavvurlar va tushunchalar sistemasining qanchalik o'zlashtirilganligini tekshiradi va o'z fikrlarini ifodalash imkoniyatini beradi. So'rashning bu usuli o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish lozim, bu esa beriladigan savolga bog'liq.

O'quvchilarga asosiy uch xil savol beriladigan savol bo'lib, u kengroq, to'liqroq javob berishni talab qiladi. Asosiy savol o'quvchilarning o'z fikrlarini bir-biriga bog'lab ifoda qilishga ham o'rgatadi. Berilgan har bir asosiy savol ilgari o'rganilgan mavzuning asosiy bir qismini o'z ichiga olishi lozim. Asosiy savol o'quvchilarning ayrim faktlar haqidagi bilimini va kartadan ko'rsata olish ko'nikmalarini aniqlash bilangina cheklanmay, ayni vaqtda osiy geografik qonuniyatlarning qay darajada tushunishni ham tekshirishni nazarda tutadi. Masalan, "Yevrosiyo iqlimi" mavzusi yuzasidan quyidagi savollarni tavsiya etish mumkin: a) Yevrosiyo iqlimining tarkib topishiga qanday omillar hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi? b) Yevrosiyo iqlimining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat? v)

Hind okeani va Yevrosiyaning relyefi uning iqlimining tarkib topishiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

Barcha o'quvchilarning fikr va e'tiborlarini jalb etish uchun asosiy savol butun sinfga qarata beriladi.

O'quvchi asosiy savolga javob qaytargandan keyingina unga qo'shimcha savol berish mumkin. Qo'shimcha savol asosiy savolda nazarda tutilmagan ba'zi bir elementar narsalarni aniqlash va qisqa javob berishga mo'ljallangan bo'lishi mumkin. O'quvchilarning kartaga doir bilimlarini, tabiatning ayrim elementlari o'rtasidagi bog'lanishni belgilay olish kabi ko'nikmalarni aniqlash maqsadida ham qo'shimcha savol beriladi.

Yordamchi savollar o'quvchining asosiy savolga javob berayotgan vaqtida ham, javob berib bo'lganidan keyin ham berilishi mumkin. Yordamchi savollar o'quvchilar bergan javobini qanchalik to'g'ri ekanligini tekshirish uchun ham beriladi. Masalan, o'quvchilarning javobini qanchalik to'g'ri ekanligini tekshirish uchun ham beriladi. Masalan, o'quvchilarning javobida "yulduz", "sayyora", "qo'ltiq", "dengiz" "passat", "musson" kabi terminlar uchragan bo'lsa, o'qituvchi bu terminlarni ular qanchalik tushunganini yordamchi savollar bilan tekshiradi.

O'quvchilarning javobi faqat mazmuni jihatidagina emas, balki shakli jihatdan ham kuzatilishi lozim. O'quvchilarni muayyan bir tartib bilan adabiy tilda javob berishiga o'rgatish kerak. O'quvchi o'qituvchining eslatishini kutmasdanoq javob berayotganda geografik nomlarni kartada ko'rsata bilishi lozim.

Individual so'rashning ayrim salbiy tomonlari ham bor. So'rash vaqtida ko'pchilik o'quvchilar javobini tinglamasligi, boshqa ish bilan shug'ullanib o'tirishi yoki o'qituvchining chaqirishini kutib, navbatdagi beriladigan savol- javob izlab o'tirishi mumkin. Bundan tashqari, individual so'rashga ko'pincha ancha vaqt ketadi. Shuning uchun individual so'rash yoppasiga so'rash bilan birga qo'shib olib borilishi ham mumkin.

O'quvchilardan yoppasiga so'rash uchun kam vaqt ketadi,



ayni vaqtda ko'pchilik o'quvchilarning bilimini aniqlash imkon beradi. Yoppasiga so'rash o'quvchilar bilimini mustahkamlaydi, tekshirishni takrorlash bilan qo'shib olib borishga yordam beradi.

Yoppasiga so'rash mavzuni o'rganib bo'lgandan keyin ham o'tkazilishi mumkin. Bunda qisqa javobga mo'ljallangan savolar o'rta tashlanadi va o'qituvchi loyiq topgan o'quvchi o'rnidan turib javob beradi. Yangi temani o'rganishga kirishishdan oldin ham o'rganilgan temalar o'quvchilardan yoppasiga so'raladi.

Kartadan so'rashda ham o'quvchilar bilimini yoppasiga og'zaki tekshirish mumkin. Masalan, o'qituvchi ovoz chiqarmay kartadan geografik ob'ekt tasvirlangan nuqtani ko'rsatadi va birorta o'quvchining familiyasini aytadi, bunda bu o'quvchi o'rindan turib shu joyning nomini aytadi.

Ko'rsatlali qo'llanmalar yuzasidan ba'zi bir savollar berish yo'li bilan ham o'quvchilarning geografik ob'ektlar to'g'risida olgan tasavvuri va bilimi tekshirib ko'riladi.

**Yozma tekshirish usuli.** Bu usulda o'quvchilarning bilimini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Bu usulning afzalligi shundaki, qisqa vaqt (10-15 minut)da sifatidagi barcha o'quvchilarning bilimini tekshirish, ko'proq baho to'plashga va yozma nuqtani aniqlab, ularning kontur karta ishlay olish va geografik nomlarning to'g'ri yoza olishni tekshirishga imkon beradi. Bunday tekshirishlar kundalik dars hamda katta mavzular va bo'limlar yuzasidan o'tkazilishi mumkin.

Yozma javob uchun berilgan savollar qisqa, ayni vaqtda tugal javob talab qiladigan bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Masalan, (IIV- sinfda) Shimoliy Amerika iqlimning tarkib topishida: qanday omillar asosiy rol o'ynaydi? degan savol berish mumkin.

Yozma tekshirishda o'quvchilarning karta bilan ishlashga doir ko'nikma va malakalarini aniqlashga alohida e'tibor berish lozim. Bu borada taxminan quyidagi savollar berish mumkin. VI sinfda: Toshkentdan shimoliy, janubi-g'arbiy va sharqiy yo'nalishda chiziqli o'tkazing; VIII sinfda: O'zbekistondagi tog'larning yo'nalishini kontur kartada belgilang va nomlarini

yozib chiqing.

O'zbekiston ilg'or geografiya o'qituvchilarining "kartadan sharhlash" usulida olib boradigan yozma ishlar diqqatga sazavordir. "kartadan sharhlash" shundan iboraktki, o'quvchilar o'qituvchining topshirig'i bilan geografik nomlarni (daryo, ko'l, tog' va hokazolarni) kontur kartaga tushiradilar, so'ngra shu tushuntirilgan biron ob'ektga izoh beradilar, uni ta'riflaydilar. Kartadan sharhlash o'quvchilarning kartani bilishini va geografik nomlarning to'g'ri (talaffuz etish, yozishi) o'zlashtirilganligini aniqlabgina qolmay, balki turli geografik hodisalar o'rtasidagi bog'lanishlarni ham tushuntirib, mavzuni yaxshiroq o'zlashtirishga imkon beradi. Bu usulda og'zaki va yozma tekshirish individual va yoppasiga so'rash bilan birga olib boriladi.

O'quvchilar bilimini yozma tekshirishda jadvallari to'ldirish, "karta sayohat"ni yozma tasvirlashva geografik diktantdan foydalanish mumkin.

Katta temalar yoki bo'limlar bo'yicha o'quvchilar bilimning sifatini aniqlashga imkon beradigan tekshirish usullaridan biri test usulidir.

Geografik diktant yozma tekshirish usullaridan biri bo'lib, muayyan davr ichida o'rganilgan geografik nomlarni o'qituvchilar esa uni kontur kartadan tushiradilar. Kartadan orol va yarim orol, daryo va ko'l, dengiz va qo'ltiq, tog' va pasttekisliklar ko'rsatiladi; o'quvchilar ularning nomlarini aniqlab kontur kartaga yozadilar.

Shuningdek o'qituvchi tipik landshaft, iqlim sharti, aholi xo'jalik faoliyatiga doir materiallarni o'qib beradi, o'quvchilar uni qayerda joylashgannini, qanday tabiat zonasi va qaysi mamlakatga tegishli ekanligini kontur kartadan aniqlaydilar.

O'simlik va hayvonlarning zonalar bo'yicha tarqalishi hamda nomlarning esda yaxshi saqlanib qoldirish maqsadida diktant o'tkazish mumkin. Bunda o'qituvchi o'simlik va hayvonlarning sinf doskasiga yozib beradi, o'quvchilar esa bu nomlarning tegishli zonalarga yozib boradi.

Geografik diktant o'quvchilarning geografik tasavvurlarini



kengaytiradi, ularni topshiriqlik va hozirjavoblikka o'rgatadi. Yozma tekshirish o'tkazayotganda uning mazmuniga e'tibor berish bilan birga, o'quvchilarning did-farosatiga, zehniga va savoligiga ham e'tibor berish lozim. Yozma ish olingandan so'ng navbatdagi darsdayoq uning natijasini, ya'ni baholarini eshittirish lozim.

**Amaliy tekshirish usuli.** Bu usul o'quvchilarning turli asboblari (astronomik, meteorologik, gidrometeorologik, topografik), kartalar bilan ishlash, joy planini olish va meteorologik kuzatishga oid ko'nikma va malakalarni tekshirishda qo'llaniladi. Bu usulda ham qisqa (10 daqiqa chamasi) vaqt ichida barcha o'quvchilar bilimni aniqlash va baholashga yordam beradi.

Amaliy tekshirishning quyidagi turlaridan foydalanish mumkin:

1. Kartada bajariladigan o'lchov ishlari va mashqlar-o'quvchilarning kartada oientiray olishlarini, karta masshtabi, karta va globusdagi gradus to'rlaridan foydalana olishlarini maqsadida o'tkaziladi.

Masalan, yarim sharlar kartasi hamda globusdan Toshkentdan Hind okeanigacha va Shimoliy Muz okeanigacha bo'lgan masofalarni, Janubiy Amerika bilan Afrika oralig'idagi va Afrika bilan Avstraliya oralig'idagi eng qisqa masofani (km hisobida) aniqlang. Kartada aniqlangan o'lchov natijalarini solishtiring.

2. Topografik diktant-o'quvchilarning topografik karta belgilarini qay darajada bilib olganliklarini aniqlash uchun o'tkaziladi. Masalan, daftarda yosh sayyohlarning marshruti va atrofdagi joylarni tasvirlash mumkin.

3. Geografik topshiriqlar. Bunda topshiriqlarning mazmuni xilma-xil bo'lishi mumkin. Masalan "Toshkentda (dengiz yuzasidan 450 m balandda) havo temperaturasi har 100 m balandga ko'tarilgan sari 0,60 soviy boshlasa, 3450 m balandlikka ko'tarilgandan keyin necha gradus bo'ladi?" yoki "toshkentda soat 6, Vladivostokda soat necha bo'ladi?"

4. Kartalarni solishtirish. Bu usul o'quvchilarning karta

bilan ishlashga, ularni xayolda fikran solishtirishga o'rgatish maqsadida qo'llaniladigan va o'quvchilar bilimni tekshirishda foydalaniladi. Masalan, Yevrosiyoning tabiiy va iqlim kartalarni solishtiring. Himolay tog'ining janub va shimol tomonlaridagi yog'inlar miqdorini va uning sabablarini aniqlang.

5. Kontur kartadan beriladigan topshiriqlar. Kontur kartalardan gnografik diktantlardan tashqari kontrol topshiriqlar uchun ham foydalanish mumkin. Masalan, kontur kartada gradus to'rlaridan foydalanib, Toshkentning geografik kengligi va uzunligini aniqlang yoki O'zbekistonni kontur kartasiga muhim tog' tizmalarining yo'nalishini jigar rang qalam bilan tushuring.

6. Asboblari yordamida ko'nikmalarning bilim va ko'nikmalari- ruletka, planshet, kopmas, termometr, flyuger, qor qalinligini o'lchaydigan reyka, gnomon, skafis kabi asboblari bilan aniqlanadi.

Masalan, bunda shunday topshiriqlar berish mumkin, kompas yordamida gorizontning asosiy va oraliq tomonlarini belgilang yoki oddiy 1 m lignomon soyasining uzunligiga qarab quyoshning gorizontaldan necha gradus balandda turishini hisoblab chiqing.

O'quvchilarning bilimni butun dars jarayonida hisobga olinib, dars oxirida baholanadi, bunda quyidagilarga e'tibor berish lozim: a) o'rganilgan mavzuni yaxshi bilishga, b) qonuniyatlarni tushuna olishiga, v) mantiqli va dalillar bilan bog'lay olishga, d) yangi o'rganilgan mavzularga bog'lab javob qaytarishga, ye) kartani o'qiy bilishga, j) mustaqil va ionch bilan javob berishga.

O'quvchi bilimiga baho qo'yishda javobning ijobiy va salbiy tomonlari tushuntirilishi shart. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan baho haqiqiy bo'lishi lozim. Agar o'qituvchi bahoni oshirib qo'ysa, o'qituvchining ham, fanning ham roli pasayadi. Bahoni pasaytirib qo'yish esa o'quvchilarning o'z qobiliyatlariga ishonsizlik bilan qarashiga yoki ularning fanga bo'lgan qiziqishlarini susayib ketishiga sababchi bo'lishi mumkin.



Bilimni tekshirish va baholash- o'qituvchidan qunt va mahorat talab qiluvchi ta'limining murakkab qismidir.

Takrorlash - Maktabda geografiya ta'limini to'g'ri tashkil etish uchun o'quvchilarning ilgari olgan bilimlarini muntazam ravishda takrorlab borilishi kerak. "Takrorlash ta'limining asosidir" deb bejizga aytilmagan, u o'rganilganlarni mustahkamlaydi, kengaytiradi va muayyan bir tartibga soladi. O'quvchilarda tegishli ko'nikma va malakalarni shakllantirishga, ularning bilimidagi nuqsonlarni yo'qotishga yordam beradi.

Ilgari o'rganilmagan bilimlar puxta o'zlashtirilgan taqdiridagina yangi materiallar ham yaxshi o'zlashtiriladi.

Sirtidan qaraganda, yangi o'rganilayotgan mavzularni o'rgatuvchi asosiy qiyofa-O'qituvchi, takrorlashdagi asosiy qiyofa- o'quvchilar bo'lib ko'rinsa-da, takrorlashdagi o'qituvchining roli ancha murakkab va mas'uliyatlidir.

Takrorlash butun o'quv yili davomida muayyan tartib bilan olib boriladi. Geografiya ta'limida takrorlashning asosan 3 turi: 1) kundalik takrorlash; 2) umumlashtiruvchi takrorlash va 3) yakunlovchi takrorlash qo'llaniladi.

**Kundalik takrorlash.** Bu turdagi takrorlash deyarli har bir darsda olib boriladi va ilgari o'rganilgan mavzu bilan yangi o'rganiladigan mavzu bir-biriga bog'lab boriladi. Bunday takrorlashda oldingi o'rganilgan mavzular o'quvchilarning esiga tushiriladi va olgan bilimlarini mustahkamlanadi.

Kundalik takrorlashda taqqoslash va solishtirish usullaridan foydalaniladi. O'qituvchi darsga tayyorlanar ekan, kundalik takrorlash uchun ham plan tuzib olgan bo'lishi kerak.

**Umumlashtiruvchi takrorlash.** Takrorlashning mazkur turi programmadagi katta mavzuni yoki bir bo'limni o'rganib bo'lingandan so'ng o'tkaziladi. Masalan, V sinf tabiatshunoslik kursida "Yer va boshqa osmon jismlari" mavzusidan 6-sinf tabiiy geografiyasining boshlang'ich kursida "Yerning globus va kartada tasvirlanishi", "Litosfera" mavzularidan so'ng o'tkaziladi. Umumlashtiruvchi takrorlashda mavzular bo'yicha o'quvchilar olgan bilimi bir tartibga solinadi, savol-javob yo'li bilan o'quvchilar o'rgangan tushuncha va

bilimlarni puxta o'zlashtirib oladilar.

**Yakunlashtiruvchi takrorlash.** Takrorlashning bu turi o'quv yilining oxirida o'tkaziladi. Bunda kursning nisbatan murakkabroq bo'lgan bo'limi va mavzulari yoki boshqa mavzularga nisbatan bo'shroq o'zlashtirilgan qismlari takrorlanadi. Bunda kursning nisbatan murakkabroq bo'lgan bo'limi va mavzulari yoki boshqa temalarga nisbatan bo'shroq o'zlashtirilgan qismlari takrorlanadi. Bunday takrorlash suhbat yo'li bilan olib boriladi. Masalan, materiklar va okeanlarning "geografiko'rni" tushunchasini suhbat yo'li bilan mustahkamlasa bo'ladi. Suhbat uchun quyidagi savollarni berish mumkin:

1. Qaysi materik shimoliy yarim sharda, qaysi materik janubiy yarim sharda joylashgan?
2. Qaysi materiklarni ekvator, tropik, qutb doirasi chiziqlari kesib o'tgan?
3. Tinch, Atlantika, Hind va Shimoliy Muz okeanlari atrofida qaysi materiklar joylashgan?
4. Qaysi materiklar bir-biriga juda yaqin, qaysilari esa bir-biridan juda uzoq djoylashgan?

Yakunlovchi takrorlashda turlicha kartalardan, darslikdagi illyustratsiyalardan mustaqil foydalanish katta ahamiyatga egadir. Takrorlash o'quvchilar bilimini tekshirish va baholash bilan birgalikda olib borilishi lozim. O'quvchilar bilimi baholanmay o'tkazilgan takrorlash ularning faoliyatini pasaytirib yuboradi.

Test usulida o'rta ta'limning dolzab, murakkab va muhim muammolaridan biri o'quvchi bilim va malakalarini tekshirishdir. Hozirgi davrgacha maktabda bilim va malakalarni tekshirining og'zaki va yozma usuli keng tarqalgan edi. Bu usullarning asosiy kamchiligi bilim va malakalarga baho qo'yishdagi subyektivligidir. Har bir imtihon oluvchi bir xil ishga turlicha yondashib, turlicha baho qo'yish mumkin. Eng muhim bu usullarda aniq bir mezonning sust ishlanganidir.

Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlarining kunduzgi bo'limlariga qabul tizimini takomillashtirish haqida"



farmoniga binoat hamda ijobiy natijalarni hisobga olib, vazirlar mahkamasi O'zbekistondagi hamma oliy o'quv yurtlariga qabulni test bo'yicha o'tkazish haqida qaror qabulni test bo'yicha o'tkazish haqida qaror qabul qilindi. Bundan tashqari, Oliy o'quv yurtlarining juda ko'p qismida qishki imtihon va sinovlar, geografiya va boshqa fanlar bo'yicha Respublika olimpiadalari test usulida o'tkaziladi. Kelajakda bu usul maktablarda keng qo'llanilishi mumkin. Shularni va test savollari hamda javoblari tuzish bo'yicha qo'llanma va ko'rsatmalarning yo'qligi hisobga olib, ushbu maqola tayyorlandi.

Test inglizcha, "test" so'zidan olingan bo'lib, tekshirish, sinash, nazorat qilish ma'nolarini anglatadi. Dastlab testlar psixologiyada kishining fikrlash qobiliyati, alohida, muhim imkoniyatlari, irodasini va boshqa tomonlarini aniqlashda qo'llaniladigan bir qolipdagi topshiriqlardan iborat bo'lgan (so'z yoki rasm shaklida).

Maktablarda testlar (N.Grayve. 1979) dastlab asrimizning 20 yilaridan boshlab AQSHda qo'llanila boshlagan. Bu paytgacha AQSH va Angliya imtihonlari asosan yozma shaklda o'tkazilar edi. Asrimiz boshiga kelib AQSHda yozma imtihonlar qattiq tanqid ostiga olinib boshladi. Natijada bilim va malakalarni tekshirish bo'yicha turli tajribalar sinab ko'rib boshlandi. Chunki AQSHda o'quv jarayonini rejalashtirish bo'yicha maktablar juda katta huquqqa ega edilar, natijada o'quvchilarning umumiy ta'lim darajalari turlicha bo'lgan. 1920 yildan boshlab Nyu-York shtatining ma'rofif bo'limi aniq (obyektiv) testlar bo'yicha imtihon olish tajribasini boshladilar va 30-yillardan boshlab bunday usul AQSHning hamma maktablarida qo'llanila boshlandi. AQSHning shimoli-sharqiy shtatlarning oliy bilimgozlarga kirish imtihonlari bo'yicha kengashi ham Universitetlarga kirishni rejaga solish maqsadida 30-yillarda testlar tuzishga kirishdiyu natijada testlar tuzish bo'yicha kooperativ xizmati tashkil etiladi. Buning asosiy vazifasi AQSH maktab va kolejlarda o'quvchilar o'zlatirishni ko'rsatilgan talablar asosida aniq baholash mezonlari bilan ta'minlash edi. 1948 yilda bu kooperativ xizmat ta'lim testlari xizmatga

aylantiriladi. Imtihonlar bo'yicha kengash test xizmatining ma'lumotlarni kollej va universitetlarga kirituvchilarning bilimni tekshirishda ishlata boshladi.

Test bo'yicha bilim va malakalarni tekshirish quyidagilarni o'z ichiga olgan; a) fikrlash va matematik qobiliyatni aniqlashga mo'jallagan testlari (ko'p javobli savollardan tuzilgan, imtihon 3-soat davom etadi); b) yakuniy test, asosan ingliz tili, ijtimoiy fanlar matematika, chet tililari va tarix bo'yicha bilimlarni tekshiradi. Kiruvchilardan 3 ta predmet bo'yicha testdan o'tish tab qilinadi (har bir predmet bo'yicha imtihon 1-soat davom etadi, hammasi ketma-ket bo'ladi). Hamma testlar (ingliz tilidan tashqari) ko'p javobli topshiriqlardan iborat Angliyada testlar boshlang'ich maktablarlarning bitiruvchi sinflarida qobiliyatli o'quvchilarni o'rta maktablarga taqsimlash maqsadida o'tkaziladi. Uning asosiy maqsadi qobiliyatli o'quvchilarni tanlab olishdir. Imtihon topshiruvchilardan to'g'ri javobni aniqlash talab qilinadi va har bir to'g'ri javob uchun bir balli quyiladi. Baho aniq bo'lganligi uchun imtihon oluvchilarning sub'ektiv qarashlar yo'q bo'ladi.

Sobiq Ittifoqda bilim va malakalarni test orqali tekshirish noilmiy deb qaralib, VKL (B)ning 1936 yil 4-iyulda chiqan "Xalq maorifi komissarligi tizimidagi pedagogik noto'g'ri talqinlar haqida" degan qarori qattiq taqid ostiga olindi va man qilindi. 1970 yillaridan boshlab test usuli maktablarda yana asta sekin tajriba sifatida olimlar va ilg'or o'qituvchilar tomonidan qo'llanila boshlandi (T.P. Gerasimova, M.K. Kovalenskaya, V.A.Korinskaya, L.M.Pancheshnikova, L.P. Safonov, M.K. Teltevskaya va boshqalar).

O'zbekistonda yuqorida aytganimizdek testlar oliy bilimgozlarga kirish imtihonlarida, joriy sinov va imtihonlarda, turli xil olimpiadalarda 1992 yildan boshlab qo'llaniladi, ammo maktablarda hali bu usul tatbiq etilganicha yo'q.

#### **O'quvchilarning fanga oid kompetensiyalari**

O'quvchilarning fanga oid kompetensiyalari quyidagilardan iborat.



**Tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayon hamda hodisalarni kuzatish, aniqlash, tushunish va tushuntirish kompetensiyasi:** Geografik qobiq va uning tarkibiy qismlari — litosfera, gidrosfera, atmosfera va biosferada kechadigan tabiiy hodisa hamda jarayonlarning mohiyatini anglash, tushunish va tushuntira olish, tabiiy hodisa va jarayonlarni kundalik hayotda turli asboblari (kompas, termometr, barometr, flyuger va b.) yordamida o'lchash va aniqlashni bajara olish, tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy hodisa va jarayonlarning turli o'lcham va kattaliklarini (harorat, yog'in miqdori, aholi soni va hokazolarni) tasvirlovchi grafiklarni tuza olish, yer yuzi tabiatiga fazoviy (tashqi) va sayyoraviy (ichki) omillarning ta'sirini tushunish va tushuntira olish, geografik qobiqning asosiy qonuniyatlari — bir butunlik, modda va energiya almashinuvi, ritmiklik, zonallik, azonallik, balandlik mintaqalanishini bilishni nazarda tutadi.

**Geografik obyektlar, joy nomlarini to'g'ri qo'llay olish kompetensiyasi:** O'zi yashaydigan joy (mahalla, qishloq, tuman, shahar) nomlarini bilish, u yerdagi geografik obyektlarning (tog', tekislik, suv havzalari va boshqalarning) nomlanishini og'zaki va yozma ravishda to'g'ri qo'llay olish, joy nomlarining o'ziga xos mazmun va tarixiy ahamiyatga ega ekanligini ayta olish, materiklar, qit'alar va okeanlarning o'rganilish tarixi va uning geografik obyektlar nomlarida aks etganligini ayta olish, tabiiy geografik o'lkalar, davlatlar, poytaxt va yirik shaharlarning nomlarini ayta olish va to'g'ri yoza olishni o'z ichiga oladi.

**Globus, geografik atlas va xaritalardan amaliyotda foydalana olish kompetensiyasi:** Globus, dunyoning yarim sharlari xaritasi, O'zbekiston tabiiy va siyosiy xaritalaridan geografik obyektlarning joylashgan o'rnini ko'rsata olish, O'zbekistonning tabiiy xaritasidan o'zi yashaydigan hududni, mamlakatimizdagi eng baland tog'lar, tekisliklar, daryolar va boshqa geografik obyektlarni ko'rsata olish, Globus va geografik xaritalar, o'quv atlasi masshtabi, daraja to'ri (meridian va parallelar) yordamida geografik obyektlarning joylashgan o'rni va geografik koordinatalarini hamda o'lchamlarini aniqlay olish, Xaritalarda qo'shimcha ma'lumot sifatida berilgan

jadval, diagramma va grafiklar bilan ishlay olish, geografik xaritalar yordamida dunyoning mintaqalari, Markaziy Osiyo va O'zbekistonning tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitiga tavsif berish va qiyosiy tahlil qila olish kabilarni nazarda tutadi.

**Tabiatni muhofaza qilish va ekologik madaniyat kompetensiyasi:** O'zi yashaydigan joy tabiati, O'zbekistondagi tabiat boyliklari, diqqatga sazovor tabiat obyektlari, ularni muhofaza qilish haqida aytib bera olish, tevarak atrofdagi tabiiy muhitni (suv, havo, tuproqni) asrab, ulardan tejamkorlik bilan foydalana olish, mamlakatimizning cho'l, vodiy-voha, adir, tog', yaylov mintaqalarida tabiatni muhofaza qilish haqida bilish va aytib bera olish, tabiatdan oqilona foydalanish, insonning tabiatga ta'siri, global va mintaqaviy ekologik muammolarning kelib chiqish sabablarini bilish va misollar bilan tushuntira olish, tabiiy resurslarning jamiyat hayotidagi o'rni haqida ayta olish, materiklar, turli mamlakatlar, O'zbekiston Respublikasidagi muhofaza etiladigan hududlar, ularning turlari, hududiy joylashuvi va amaliy ahamiyatini ayta olish va misollar bilan izohlay olish, turli tabiiy resurslarning hududiy tarqalish qonuniyatlari haqida ayta olish va ularni misollar bilan izohlay olish kabilarni o'z ichiga oladi.

Shu o'rinda kompetensiya va kompetentlik tushunchalarga oydinlik kiritish lozim.

Kompetensiya bu — talabalarda mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatida qo'llay olish qobiliyati hisoblanadi.

Kompetentlik bu — talabalar nazariyadan egallagan bilim, ko'nikma va malakalaridan samarali foydalanib, kasbiy faoliyatini yuqori darajada tashkil etish orqali kasbiy mahorat va iqtidorini namoyon eta olishidir.



## 8-mavzu. Iqtisodiy ta'lim metodlari

### Reja:

1. Dars o'tish metodlari va unga turli jihatdan yondashish.
2. Ma'ruza, uning o'quv jarayonida tutgan o'rni va unga qo'yiladigan asosiy talablar.
3. Ma'ruzani bayon qilish metodlari.
4. Suhbat metodini qo'llab dars o'tish.

**Tayanch so'z va atamalar:** *iqtisodiyot, metodlari tizimi dinamikada, videokompyuter, axborot, taqqoslash, iqtisodiy resurslar.*

### Dars o'tish metodlari va unga turli jihatdan yondashish

Respublikamizda iqtisodiyotni erkinlashtirish va bu sohadagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish bilim olishga, iqtisodiyot sir-asrorlarini o'rganishga bo'lgan harakatni, fanni chuqur o'rganishga bo'lgan talablarni ham kuchaytirdi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiy qonunlarni yaxshi biladigan, turli vaziyatlarni taqqoslash, iqtisodiy resurslar cheklanganligi sharoitida samarali xo'jalik yuritish uchun muqobil variantlarni to'g'ri tanlash va qaror qabul qilish malakasiga ega bo'lgan iqtisodchilar tayyorlashnigina emas, balki ularni o'qitadigan iqtisodchi pedagoglar tayyorlashni ham talab qiladi.

Iqtisodchilar tayyorlashdagi mutaxassislik fanlarini o'qitadigan iqtisodchipedagoglar tayyorlashda iqtisodiy fanlar etakchi o'rin tutadi. Shu sababli bu sohadagi kasb ta'limi bakalavriat yo'nalishi talabalari uchun iqtisodiy fanlarni o'qitish metodikasi o'rganiladi.

Iqtisodiy fanlarni o'qitish metodikasi aynan ana shu maqsadga qaratilgan. U iqtisodiy fanlarni o'rganish metodlari va uni dars jarayonida qo'llash yo'llarini o'rgatadi.

O'qitish metodlarining serqirraligi, murakkab tuzilishga ega ekanligi unga turli jihatdan yondashuvlarda o'z ifodasini topadi.

Shunday qilib, hozirgi paytda o'rganiladigan bilim manbalariga ko'ra, metodlar 5 guruhga bo'linadi, hamda qator usullarni o'z ichiga oladi:

### 1) Amalda sinash, tajriba metodi:

- tajriba o'tkazish, amaliyot o'tkazish;
- mashq qilish jarayonida qatnashish, mehnat, ishlab chiqarish.

Ko'rgazmali namoyish qilish metodi:

- o'quvchi, talabalar tomonidan kuzatish, amaliyot o'tkazish.

### 2) Og'zaki so'z orqali ifodalanadigan metod:

- tushuntirish, ongiga etkazish;
- hikoya qilish;
- o'zaro fikr almashuv;
- suhbat o'tkazish;
- yo'l – yo'riq, ko'rsatma berish;
- ma'ruza;
- munozara, muhoza, bahs va boshqalar.

### 3) Kitob bilan ishlash:

- o'qish, o'rganish, tezda ko'rib chiqish;
- tsitata keltirish va uning ustida ishlash, bayon yozish;
- referat yozish, konspekt tuzish.

### 4) Video metod:

- kompyuterda mashq, test echish;
- nazorat o'tkazish;
- internetda ishlash;
- o'quv filmlarini tayyorlash va namoyish etish;
- axborot texnologiyalariga asoslanib, ishlab chiqilgan dasturlar asosida kompyuterda iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash, ularga omillar ta'sirini o'rganish;
- multimedia asosida taqdimot tayyorlash, namoyish etish va boshqa shu kabilarni qamrab oladi.

**Pedagog olimlar (M.A. Danilov, B.P. Esipov) o'quv jarayonini tashkil qilish maqsadlari va uni amalga oshirish bosqichlariga ko'ra dars o'tish metodlarini**



### quyidagi guruhlarga ajratadi:

- bilimni egallash;
- malaka va ko'nikmalarni shakllantirish;
- olingan bilimni amalda qo'llash;
- ijodiy faoliyat;
- olingan bilimni mustahkamlash;
- bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish metodlari.

Guruhlashdan ko'rinib turibdiki, u dars jarayonini tashkil qilishning klassik sxemasi asosiga qurilgan. Bunda asosiy maqsad, pedagoglarga o'quv-tarbiya jarayonini amalga oshirish va metodlar majmuini soddalashtirishga qaratilgan.

### Psixologik nuqtai nazardan, bilimlarni o'zlashtirish metodlarini quyidagi guruhlarga ajratish mumkin.

Darsni o'zlashtirish, tushuncha olish, olingan bilimni mustahkamlashga qaratilgan metodlar:

- Ma'ruza;
- Hikoya;
- Bayon qilish;
- Illyustratsiya;
- Namoyish qilish va boshqalar.

Muammoni tushunish, tahlil qilish, xulosa chiqarish, qaror qabul qilishga, mustaqil bilim olishga undaydigan metodlar:

- Case study;
- Tadqiqot;
- Loyihalash va boshqalar.

Bilimni o'zlashtirish bo'yicha reproduktiv faoliyatni, o'quvchi, talabalarning darslarga qatnashishini ta'minlovchi metodlar:

- Kitob bilan ishlash;
- Laboratoriya ishi;
- Masala va mashqlar.

Munozara, tahlil qilish kabi ta'limni rivojlantiruvchi produktiv faoliyatni ta'minlovchi metodlar:

- Davra suhbat;
- Bahs, munozara;

- Aqliy hujum;
- Modellash tiruvchi o'yinlar va boshqalar.

### Idrok etish, bilim faoliyati xarakteriga ko'ra metodlar guruhga bo'linadi.

#### A) Tushuntirish illyustrativ(axborotretseptiv):

- tushuntirish;
- illyustrativ;
- axborot;
- retseptiv<sup>3</sup>.

Bu metodlarning xarakterli xususiyatlari bilimlar tayyor holda tavsiya etilishidir. Bu metodlar bilimlarni idrok qilish, tushunish, xotiraga joylashtirishga qaratilgan.

O'quv jarayonida axborotlarning turli manbalari (so'z, ko'rgazali qurollar va boshqalar) qo'llaniladi. Bayon qilish ham induktiv, ham deduktiv yo'l bilan olib borilishi mumkin.

Bu metodning mazmuni unga xos bo'lgan quyidagi xususiyatlar bilan ajralib turadi:

- Bilimlar o'quvchi, talabaga tayyor holda beriladi;
- O'qituvchi turli usullar bilan bu bilimlarni o'quvchi, talabalar tomonidan qabul qilinishini tashkil qiladi;
- O'quvchi, talabalar bilimni o'zlashtiradilar va xotiralarida saqlab qoladilar.

Bilimlarni qabul qilish bilan cheklanish doim ham olingan bilimlardan foydalanish mahorati va ko'nikmalarini shakllantirmaydi. Bilim olish faoliyatini faqat tayyor bilimni eslab qoishga qaratilishi ularni xatosiz, ayrim hollarda tushunmasdan ham xotirada saqlash aqliy faollikni past darajada bo'lishiga olib keladi.

#### B) Reproductiv metod.

Bu metod talabalarni olgan bilimlarini anglash, tushunib etishlarini, eslab qolishlarini ta'minlashga qaratilgan. Olingan bilimni mustahkamligi tez-tez takrorlash yo'li bilan ta'minlanadi.

O'qitishning reproduktiv metodi quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi:

- O'qituvchi bilimni tayyor holda etkazadi;



• Faqat bayon qilish bilan cheklanmasdan, uni tushuntiradi ham;

• o'quvchi, talabalar bilimlarni tushunib o'zlashtiradilar. o'zlashirishning mezonini olgan bilimlarini xotirada to'g'ri tikash (reproduksiya)dir;

• o'zlashtirishning mustahkamligi axborotni ko'p marta qaytarish yo'li bilan ta'minlanadi.

Har ikki metodning afzalligi qisqa muddatda, ko'p kuch sarfamay katta hajmdagi axborot va bilimlarni o'quvchi, talabalarga etkazishni ta'minlash imkoniyatiga egaligidir. Bilimni puxta egallashga takrorlash orqali erishiladi.

O'qitishning har ikki metodi o'quvchitalabalarga ta'limning tayyor mazmunini uzatishga, o'quv dasturlari, darsliklar, fan bo'yicha axborotni o'zlashtirishga qaratilgan.

Mavjud kamchiliklariga qaramasdan, informatsion-retseptiv usul kam kuch sarflab, bilimlar va ko'nikmalarning kattagina hajmini o'zlashtirish imkonini beradi.

Inson faoliyati tabiatan reproduktiv, ijrochi yoki ijodiy bo'lishi mumkin. Reproaktiv faoliyat ijodiy faoliyatga turtki beradi, uning boshlanishi bo'ladi. Shuning uchun uni ta'limda qo'llashni nazar-pisand qilmaslik, mensimaslik noto'g'ri. Shu bilan birga uni haddan tashqari keng qo'llash ham to'g'ri emas. Eng ma'quli, ularni boshqa metodlar bilan birgalikda qo'llashdir.

#### **V) Muammoli bayon qilish metodi**

Bu metodda o'qituvchi tomonidan mavzuning mazmuni muammoli tarzda bayon qilinadi. O'qituvchi mavzuning mazmunidan kelib chiqib, muammo ko'yib, uni echimini ko'rsatadi. Bu metod talabalarni ijrochilikdan ijodkorlikka o'tishini ta'minlaydi. O'qitish jarayonining ma'lumbosqichlarida talabalar muammoli masalalarni mustaqil ravishda echa olmaydilar. Shuning uchun o'qituvchining dars o'tish usulini kuzatib, shunday vaziyatlarda masalani qay tarzda echishni, qanday qarorga kelishni o'rganadilar.

**G) Qisman ijodiy (evristik) metodlar.** Bu metodda:

- Bilim mustaqil ravishda egallanadi;

• o'qituvchi axborotni o'rganish yoki bilim egallashda turli metodlar yordamida mustaqil ishlashni tashkil etadi;

- o'quvchi, talabalar mustaqil fikr yuritishadi.

Masala, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish taqsimlash, umumlashtirish, xulosa chiqarishga o'rganishadi. Natijada talabalarda anglab etilgan puxta bilim shakllanadi.

O'quvchitalabalar ko'pincha murakkab muammoni mustaqil hal qilisha olmaydi. Ularga o'qituvchi ko'mak beradi. O'quv faoliyati o'qituvchi-o'quvchi, o'quvchi-o'qituvchi sxemasida amalga oshadi. Bilimlarning ma'lum bir qismini o'qituvchi beradi, qolgan qismini o'quvchitalabalar mustaqil o'rganishadi.

#### **D) Tadqiqiy metodlar:**

Bunday metod bilimni tadqiq etish jarayonida egallashni ko'zda tutadi.

• O'qituvchi o'quvchitalaba bilan muammoli masalani aniqlaydi, uni hal qilishgavaqtning ma'lum bir qismi ajratiladi.

• O'qituvchi mavzuni bayon qilmaydi. Talabalar mustaqil ravishda muammoli masalani echish, olingan javoblarni turli variantlarini taqqoslash jarayonida mavzuni o'rganishadi. Natijani qanday bo'lishini ham o'zlari aniqlashadi.

• O'qituvchining faoliyati muammoli masalalarni echish jarayonini boshqarishdan iborat bo'ladi.

• O'quv jarayoni yuqori intensivligi bilan xarakterlanadi. O'qish qiziqarli bo'lib, olingan bilimning chuqur va puxtaligi, amalda qo'llashni o'rganish bilan farq qiladi.

Bu metodni qo'llash o'qituvchidan yuqori darajada malaka talab etadi.

**Didaktik maqsadlar bo'yicha dars o'tish metodlarini pedagog olimlar** (T.I. Shchukina, I.T. Ogorodnikov va boshqalar) **ikki guruhga bo'lishadi:**

**A)** O'quv materialini dastlabki o'zlashtirishga imkon yaratuvchi metodlar: bularga o'qituvchining mavzuni og'zaki bayon qilishi, suhbat, kitob bilan ishlash va boshqalar kiradi.

**B)** Olingan bilimni mustahkamlash va takomillashtirishga imkon yaratuvchi metodlar. Bu guruhga masala, mashqlar



echish, amaliy ishlar bajarish va boshqalar kiradi.

**O'qitish metodlarini binar (qo'sh) va polinar (ko'p qirrali) guruhlariga ajratilishi ham mavjud.** Binar guruhlarini I.I. Maxmutov dars berish metodlari bilan o'rganish metodlarining birga qo'shilishi tarzida ko'rsatadi.

***O'qitish, dars berish metodlari:***

- Axborot berish – bayon qilish;
- tushuntirish;
- ko'rsatma berish;
- tushuntirish – da'vat etish;
- undovchi, da'vat etuvchi.

***O'rganish metodlari:***

- Ijro etish;
- reproduktiv;
- produktiv-amaliy;
- qisman ijodiy;
- ijodiy izlanishga asoslangan metodlardan iborat.

O'qitish metodlarining polinar tasnifi V. F. Palamarchuk va V. I. Palamarchuk singari tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, unda ta'kidlanishicha, bilim manbai uning faolligi darajasi, o'qish jarayonida olinadigan bilimlarning mantiqiy yo'llari majmuidan tarkib topadi.

Guruhlariga ajratish, tasniflashga doir yana qator yondashuvlar mavjud. Ulardan biri didaktika bo'yicha nemis mutaxassisi L. Klinberg tasnifi bo'lib, u o'qitish metodlarini hamkorlik shakllari bilan birga olib qaraydi, ya'ni: monologik metodlar: ma'ruza, hikoya, namoyish qilish;

dialogik metodlar; suhbat, munozara va boshqalar; Hamkorlik shakllari: individual, guruh, umumiy (frontal), jamoa tarzida bayon qilinadi.

**Dars jarayonidagi metodlar qo'llash imkoniyatlariga ko'ra quyidagi sifatlarni o'z ichiga oladi:**

1. Bilim berish, idrok etish, o'zlashtirish, e'tiqodni ta'minlovchi metodlar. Bu guruhga ma'ruza, talabalarning mustaqil ishlari, mustaqil tahsil olish bo'yicha ishlar, ishlab chiqarish jarayonlarini kuzatish, maslahatlar, ko'rsatmalar

berish, ommaviy axborot, dasturlashtirilgan materiallarni idrok etish va boshqalar kiradi.

2. Bilimlarni tatbiq etish va mustahkamlash, malaka va ko'nikmalarni xosil qilish, e'tiqodni chuqurlashtirish metodlari. Bu guruhga seminar, amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari, nazorat ishlarini bajarish, dasturlashtirilgan o'qitish kabinetlaridagi mashg'ulotlar, ishlab chiqarish amaliyoti kiradi.

3. Bilimlar, e'tiqodlarni shakllantirish, talabalarning kasbiy tayyorgarligini aniqlash metodlari. Bu o'quv jarayonining reytinglari, kollokviumlar, suhbat o'tkazish, kurs va bitiruv malakaviy ishlari, davlat attestatsiya natijalarini baholash kabilarni o'z ichiga oladi.

Metodlarni ajratib turuvchi sifatlarga: birinchi guruhda bilimni idrok qilish va o'zlashtirish, ikkinchi guruhda tadbiq etish va mustahkamlash, uchinchi guruhda attestatsiya va olingan bilimlar darajasini aniqlash kiradi.

Umuman olganda metodlarni guruhlariga bo'lishning barchasida ham kamchiliklar mavjud. Shuning uchun ham pedagoglar metodlarni tasniflash, guruhlariga ajratishni takomillashtirishga harakat qilishmoqda. Shu sababli metodlarni guruhlashdan voz kechish tendentsiyasi vujudga keldi. Metodlarning murakkabligi ularni turli sharoitlarda qo'llashga ahamiyat berishga majbur qilmoqda.

Har bir darsni o'qitish jarayonida bir necha metod bir-biriga bog'lanib, qorishib ketadi. O'qituvchi va talabalarning o'zaro muloqoti natijasida ta'lim metodlari bir-biriga singib ketadi. Tadqiqotchi Yu. K. Babanskiyning fikricha, biz u yoki bu metodni qo'llash haqida gapirar ekanmiz, bu shu metodning ma'lum bosqichda etakchi rol o'ynashini bildiradi, xolos.

**Pedagog, psixolog mutaxassislarining ta'kidlashlaricha, metodlar o'quv-tarbiya jarayonida quyidagi funktsiyalarni bajaradi:**

*Ta'lim beruvchi.*

Metodlar yordamida ta'limning maqsadi amalga



oshiriladi. Metodlar o'qituvchi va o'quvchilarning nazariy hamda amaliy bilimni ta'lim olish borasidagi vazifalarni bajarishga qaratadi.

*Kamolotga boshlash funktsiyasi:*

O'quvchi, talabalarni fikrlash doirasini, bilim olish, aqliy rivojlanish sur'atini tezlashtirishda, qiziquvchanligini oshirishda o'z ifodasini topadi.

*Tarbiyalash funktsiyasi:*

O'quv materialini o'rganish, o'zlashtirish jarayoniga mustaqil qarash, fikrlash, irodaxususiyatlari, axloqiy, ma'naviy qarashlarning shakllanishiga olib keladi.

*Bilim olishga da'vat etish, istak, xohish uyg'otish funktsiyasi:*

Metodlar talabalarni bilim olishga da'vat qiluvchi vosita hisoblanadi. Asosiy, gohida bilishga qiziqtiruvchi, istak, xohish tug'diruvchi yagona stimulyator vazifasini bajaradi.

*Nazorat funktsiyasi:*

Metodlar yordamida o'qituvchi o'quvchi, talabalar bilimni nazorat qilibgina qolmay, o'quv jarayoni natijalariga ko'ra unga zarur o'zgartirishlar kiritadi.

Metodlarning funktsional jihati butun o'quv jarayonida o'zgarmas emas, ya'ni qotib qolmaydi. U sharoitga, qo'yilgan talabga, intensiv tarzda qo'llanish yoki qo'llanmasligiga ko'ra o'zgarib turadi.

Bir xil metodlar ko'proq ta'lim berish, o'quvchilarni kamol toptirish, tarbiyalashda muhim rol o'ynasa, boshqalari bilim olishga da'vat etish, uchinchilari esa bilimni nazorat qilishda keng imkoniyatlarga ega.

**Ayrim metodlar** ko'proq o'quvchi, talabalarni bilim doirasini kengaytirish, nazariy bilim olishlarida qo'l kelsa, **boshqalari** ko'proq tajriba to'plash, ko'nikma hosil qilish, o'z bilimni amalda sinab ko'rishda yordam beradi. **Uchinchilari** esa bilimni oshirish uchun mustaqil o'z ustida ishlashga da'vat etadi, **to'rtinchilari** bilim, ko'nikmalarni mustahkamlashga yordam beradi. Shuningdek, ayrim **metodlar** bilishga bo'lgan qiziqishni kuchaytirib, tafakkurni rivojlantirsa, **ikkinchisi**, faollik, o'rganganlarini uzoq esda saqlashga yordam beradi.

**Uchinchisi** iroda, o'z fikrini mustaqil aytish, himoya qilishga o'rgatadi. **To'rtinchisi** his-tuyg'u, kechinmalarni boshqarishga yordam, ruhiy ozuqa beradi.

**Ma'ruza, uning o'quv jarayonida tutgan o'rni va unga qo'yiladigan asosiy talablar**

Ma'ruzada darsni uch bosqichga bo'lish mumkin:

1. Kirish. Avvalgi ma'ruzada nimalar o'rganilgan, uning natijasi nimalar bilan bog'liq, bugungi darsga qanday maqsad qo'yilyapti? Avvalo dars ilgarigi mavzu bilan bog'lanadi. Keyin yangi mavzu e'lon qilinadi. Ma'ruza rejasi, mustaqil o'qish uchun zarur asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati tavsiya etiladi. Mavzuni o'rganishdagi asosiy termin, tushunchalar, mustaqil ravishda bajariladigan ishlar, topshiriqlar beriladi.

2. Asosiy bosqich. Bu bosqich ma'ruza rejasiga ko'ra tanlangan dars o'tish metodlarini qo'llagan holda o'tkaziladi. Tinglovchilarga mo'ljallangan axborotlar etkaziladi.

3. Yakuniy bosqich. Ma'ruzaga yakun yasaladi, qisqacha xulosa chiqariladi. Talabalar diqqati uchun mazkur mavzudagi eng asosiy tushuncha, e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar, hodisalar ta'kidlanadi. Qo'yilgan maqsadga qay darajada erishildi, bu tahlil qilib, baholanadi. Bugungi ma'ruzada bajarilgan ish kelgusi faoliyatda qanday muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatiladi.

Ma'ruzalarni didaktik vazifasiga qarab:

\* kirish;

\* mavzular bo'yicha;

\* yo'l-yo'riq ko'rsatadigan;

\* tahliliy;

\* yakunlovchi ma'ruzalarga bo'lish mumkin.

Kirish ma'ruzasi ma'lum bir fanni, mavzuni yoki muammoni o'rganishga bag'ishlanib, unda ana shu masala, muammolar haqidagi fikrlar, ularning ijobiy tomonlari, kamchiliklari, echilmagan muammolar ko'rsatiladi. O'rganishni boshlangan fanning predmeti, o'rganish metodlari bo'yicha ma'ruza kirish ma'ruzasiga tipik misol bo'la oladi.

Mavzular bo'yicha ma'ruzalar eng ko'p o'qiladigan



ma'ruza bo'lib, unda o'rganilayotgan mavzuning asosiy mazmuni, amaliyotda sinalgan, qabul qilingan ilmiy qarashlar, mavjud echimini kutayotgan masalalar bayon qilinadi. Ularni echishning mavjud yo'llari ko'rsatiladi, yangilarini topish tavsiya etiladi.

Yo'lyo'riq ko'rsatuvchi ma'ruza talabalarga mustaqil ishlashni o'rgatishga qaratiladi. Unda ko'proq metodik maslahatlar beriladi. Tavsiya qilinadigan adabiyotlarni mustaqil o'qish, ular ustida ishlash jarayonida diqqatni qaratish lozim bo'lgan masalalar ko'rsatiladi.

Tahliliy ma'ruza u yoki bu muammo, mavzu yoki ma'lum bir tizimga solingan savollarni ma'lum bir mantiqiy aloqadorlikda bayon qilishga qaratiladi. Ko'pincha oliy o'quv yurtlarida yakuniy nazorat yoki imtixonattestatsiyalar oldidan o'tkaziladi.

Yakunlovchi ma'ruza ma'lum bir mavzu, muammoni yoki fanni o'rganib, uning yakuni bo'yicha o'tkaziladi. Muammo echimlari va fanning predmeti to'g'risida asosiy xulosalar bayon etiladi.

**Ma'ruza va unga qo'yiladigan asosiy talablar**  
Iqtisodiy fanlarni o'rganishda talabalarning ijodiy fikrlarini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatishi, ularni jamiyat rivojlanishi, iqtisodiy qonun, tendentsiyalarini chuqur tushunishi, nazariy masalalar bilan amaliyotni bog'lash mahoratini hosil qilishlari uchun ma'ruza quyidagi asosiy talablarga javob berish kerak:

Ma'lum bir yo'nalishga, iqtisodiyotni asosiy qonunlari, tendentsiyalari, printsiplari, ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyotning muammolarini tahlil qilishga qaratilgan bo'lishi kerak. Shuningdek, yosh avlodning dunyoqarashini shakllantirish, hayot kechirish tarzini tanlashning tarbiyaviy ahamiyatini oshirishi lozim. Ilmiyligi jihatdan nazariya asoslarini amaliyot bilan, masalaning qo'yilishini ilmiylik bilan hamda iqtisodiyotning yangi dolzarb masalalariga ijodiy yondashish bilan, nazariy dalillarning mantiqiylik bilan uzviy birligi ta'minlanishi kerak.

Iqtisodiy fanlardan ma'ruza o'qish o'qituvchi oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

talabalarga iqtisodiyot fanlarining nazariy boyligini ochib berish;

- dunyodagi mashhur iqtisodchilar, O'zbekiston respublikasi Prezidenti va taniqli iqtisodchi olimlarning ishlarini chuqurroq o'rganishga yordam berish;

- bir fandan olgan bilimlarini boshqa fanlarni o'rganishda ijodiy qo'llashlariga yordam berish;

- talabalarga bozor iqtisodiyoti sharoitida murakkab ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni echish uchun to'g'ri yo'l topish borasida o'ziga ishonch ruhini tarbiyalash.

Ma'ruza talabalarda fanni o'rganishga qiziqish, ishtiyoq uyg'otishi kerak. Ma'ruzanishunday tuzish kerakki, talabada fanni chuqur o'rganish uchun mustaqil ravishda adabiyotlar topish, ularni ustida ishlash, tushunishga xohishistak tug'ilsin. Shuning uchun zarur materiallar, kitoblar, jurnal va boshqa manbalarni tanlash printsiplari ahamiyatga ega.

Ma'ruzaning ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishi uning ilmiyligi bilan bog'liq. Ma'ruzachi real hayotning ob'ektiv tahliliga, iqtisodiy taraqqiyotning asosiy qonuniyatlariga, iqtisodiy hodisalar va xo'jalik hayotining omillari o'rtasidagi ichki bog'lanishlarni aniqlashga, tahlil qilishga asoslanishi kerak.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, talabaga ishonchli dalillar, chuqur tahlil ko'proq ta'sir qiladi. Har qanday fan, jumladan, iqtisodiy fanlar ham ishonchli dalillar, ma'lumotlar, nazariy va amaliy xulosalarga tayanadi.

Psixologlarning kuzatishlaricha bilish, o'rganish jarayoni fikrlar qaramaqarshiligi asosiga qurilsa, samarali bo'ladi. Ilmiy munozara talabalar uchun ijodiy muhit yaratadi. Iqtisodchi pedagoglar uchun mo'ljallangan ma'ruzada munozarali savollarni qo'yish, turli nuqtai nazarlarni bayon qilish maqsadga muvofiq. Ma'ruzachining o'zi ma'lum bir nuqtai nazarni qo'llabquvvatlar ekan, talabalarga ham ana shu qarash to'g'riligini tushuntirishi, auditoriyani ishontirishi kerak.

Ma'ruzaning ilmiyligi materialni bayon qilishning izchilligi, savollarni aniq, tushunarli qo'yilishini ko'zda tutadi.



Ilmiy iqtisodiy jarayonlar, iqtisodiy hayotni tahlil qilishda tarixiylik va mantiqiylikka amal qilishni talab etadi.

Ma'ruzaga tayyorlanish jarayonida o'qituvchi mavzu bo'yicha savollarni qanday bayon qilishni, qanday uslublar qo'llashini ko'z o'ngiga keltirishi kerak. Ana shundagina mavzu bo'yicha adabiyotlarni, zarur ma'lumotlarni to'g'ri tanlashi mumkin. O'qituvchi, zarur dalillar, ma'lumotlarga ega bo'lsada, ularni ishonarli, asoslangan holda bayon qilmasa fandagi dolzarb savollarga javob berishdan chetlab o'tishi yoki chetga chiqishi mumkin. Bu hol talabalarda ma'ruzadan qoniqmaslikka, uning ishonchliligi va tarbiyaviy ahamiyatini tushirishga olib keladi.

Nazariya bilan amaliyotning o'zaro bog'lanishi nihoyatda murakkab jarayon. U turlituman: ichki, tashqi, bilvosita va bevosita, muhim va uncha muhim bo'lmagan omillar bilan aniqlanadi. Shuning uchun ham ma'ruzaga tayyorlanish paytida ana shu jarayonlarni chuqur tahlil qilishni bilish, u yoki bu hodisani rivojlanishining asosiy tendentsiyalarini aniqlash kerak. Mavzudan chetdagi turlituman misollar bilan cheklanish yaramaydi.

Nazariyani asoslash uchun xo'jalik hayotidagi turlituman hodisalarni ijobiy yoki salbiy misol sifatida keltirish unchalik qiyin emas. Lekin real voqelikni noto'g'ri ko'rsatish, faqat yuzaki tashqi aloqalarni takidlash bilan cheklanish yaramaydi. Ular masalaning mohiyatini ifodalamaydi va ochib bermaydi.

#### **Ma'ruzani bayon qilish metodlari.**

Induktiv metod ma'ruzada xususiylikdan umumiylikka, deduktiv metod esa umumiylik dan xususiylik tomon bayon qilishni ifodalaydi.

Induktiv metod dalillar, xususiy, umumiy xulosa, nazariy qoidalar, aniq faoliyat uchun amaliy xulosalar tarzida bayon qilinsa, deduktiv metod nazariy xulosa, umumiy, xususiy, faoliyat uchun praktik xulosa tarzida bayon qilinadi.

Talabalarning iqtisodiy fanlarni o'rganishlarida, ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda ma'ruzaning roli beqiyosdir. Shu bilan birga, ma'ruzaning mazmunini talabalarga

etkazishda o'qituvchining rolini uning barcha metodlar, ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar va boshqalarni qo'llashdagi mohirligini hisobga olmay, ma'ruzaning rolini ko'rsatib bo'lmaydi.

Birinchi kursdan boshlab, xususiylikdan umumiy mantiqiy xulosa chiqarish o'rganilar ekan, o'qituvchi shu tizimni buzmagani holda undan fanni chuqurroq o'zlashtirish uchun foydalanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yana shuni ham hisobga olish zarurki, talabalarda xulosani shoshilinch umumlashtirishga harakat qilish holati uchrab turadi. Ayrim paytlarda talabalar o'ylab o'tirmay dangal, umumlashtirib bo'lmaydigan xususiy faktlarni ham umumlashtirishga harakat qilishadi. O'qituvchi ma'ruza o'qishga tayyorlanar ekan, bu tendentsiyani ham hisobga olishi zarur.

Ma'ruzada materialni qay tarzda bayon qilinishiga qarab dalillar, xususiy, umumiy xulosa, nazariy qoidalaraniq faoliyat uchun amaliy xulosalarga kelish tarzida berilishi mumkin. Induktiv metodda ma'ruza ko'pincha qiziqarli, ko'zga tashlanadigan fakt yoki misoldan, ayniqsa, shu kunning biron dolzarb masalasi bo'lgan, auditoriyaning diqqatini jalb qiladigan masaladan boshlanadi.

Induktiv metod talabalarni xususiy kuzatuvlardan ketmaket umumiy xulosa chiqarishga o'rganish imkonini beradi. Ularni mustaqil fikrlashga o'rgatadi.

Deduktiv metodda esa ma'ruza umumiy nazariy masalalardan boshlanadi. Bu metod iqtisodiy fanlarning umumiy qonunlari, qoidalarini real hayotga tatbiq qilish, amaliyotda ko'rish va baholash, xo'jalik hayotida qo'llash, iqtisodiy hayot hodisalari, jarayonlarini, xo'jalik yuritish siyosatini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, ma'ruza ham induktiv, ham deduktiv metod asosida olib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Avval ishchi gipoteza, taklif shaklida auditoriyaga umumiy savol tashlanadi, so'ngra talabalarni mulohazalari dalillari, faktlari tahlil ma'lumotlari shu savolga to'g'ri kelishi



birgalikda muhokama qilinadi, xulosalar chiqariladi.

Bu holda ma'ruzaasosiy g'oya, uni dalillar asosida tasdiqlash xususiy savollarni izchillikda bayon qilish, deduktiv metodda mavzuning umumiy xarakteristikasini berish tarzida tuziladi.

Ma'ruzaning samarasini oshirishda ko'rgazmali qurollar (diagramma, sxema, jadval, grafik kabilari)ning ahamiyati kattadir. Ko'rgazmali qurollar orqali axborotni qabul qilish, mavzuni chuqurroq tushunishga, o'quv materialini xotirada uzoq saqlanishiga yordam beradi. Lekin ko'rgazmali qurollarga haddan tashqari berilib ketish ham kerak emas, chunki auditoriya bilan muloqot yo'qoladi va natijada ma'ruzaning samarasi pasayadi. Ammo tanlab olingan, tayyorlangan ko'rgazmali qurollar so'zsiz ma'ruza samarasini anchagina oshiradi.

Ma'ruzaga iloji boricha talabalar diqqatini qaratish kerak. Buning uchun ma'ruzaning kirish yoki uning asosiy qismida masalaning mohiyatini ochib berishga qaratilgan savol qo'yish maqsadga muvofiq. Pedagoglar tajribasi shuni ko'rsatadiki, o'qituvchining mavzuni

bayon qilishidan avval yoki bayon qilish jarayonida savol qo'yishi, uni bayon qilib bo'lgach, qo'yilgan savoliga qaraganda to'liqroq, yaxshiroq natijaga olib kelar ekan. Chunki ilgari qo'yilgan savol talabani javob qanday bo'lishi kerak, deb o'ylantira boshlaydi va javobni o'qituvchidan eshitishga diqqatini qaratadi.

Ikkinchidan, ma'ruza boshlanganidan 20 daqiqacha vaqt o'tgach, talabalar diqqati susayadi. Buni hisobga olib, har 1520 daqiqada yoki har bir uzviy savolni bayon qilishda turli metodlardan foydalanish, talabalar diqqatini jalb qiladigan savollar tashlash maqsadga muvofiqdir.

Dars berish jarayonida misol keltirganda guruhdagi talabalarga bevosita misollar keltirishi diqqatni o'ziga jalb qiladi. Masalan, «Odiljon bilan Erkinjon biznes bilan shug'ullanishmoqchi, lekin ishni nimadan boshlashni o'ylanib turishibdi. Sizningcha, ular nimadan ish boshlashi

kerak?», «Dilbar doimiy o'rtacha xarajatlar mahsulot ishlab chiqarish hajmi ortgan sayin kamayib boradi, deydi, Dinora esa yo'q, o'zgarmaydi, deydi. Sizningcha, ularning qaysi biri haq?» singari murojaatlar jonli muloqotga boshlaydi.

Boshqa o'quv shakllariga qaraganda ma'ruzachining ma'ruzasini hishayajon, jo'shqinlik bilan bayon etishi muhim rol o'ynaydi. Ma'ruzachi hishayajonini o'zgartirish, mimikasi orqali talabalarni darsga qiziqishini kuchaytirishi yoki aksincha, susaytirishi mumkin.

1. Ma'ruzaning emotsional ta'siri o'qituvchining ma'ruza materialini erkin bayon qilishi bilan to'g'ridanto'g'ri bog'liq. Erkin bayon qilish orqali auditoriya bilan bog'lanish yaxshilanadi. Talabalarning aks tasirini kuzatish imkonini vujudga keladi. Og'zaki nutq xususiyatlari, ya'ni dialogdan foydalanish mumkin bo'ladi.

Ta'lim tizimidagi o'rniga ko'ra, ma'ruzalar mavzuni, bo'limni, kursni o'rganishni boshlovchi yoki ta'limning ma'lum bir bosqichini tugallovchi ma'ruzalarga bo'linadi.

Axborotni talabalarga etkazish nuqtai nazaridan monolog yoki dialog tarzida o'tkazilgan ma'ruzalar bo'ladi. Monolog tarzidagi ma'ruzada asosan ma'ruzachi gapiradi, ko'rsatadi. Tinglovchilar ma'ruza o'qish jarayoniga sust ishtirok etadilar. Aksincha, dialog tarzidagi, tinglovchilarning ham fikrini eshitgan holda o'tkaziladigan ma'ruzalar jonli bo'lish unda tinglovchilar faolligi ta'minlanadi.

Ta'lim berishning asosiy metod va usullariga ko'ra, ma'ruzalarni axborot beruvchi, muammoli, jadallashtirilgan, binar (birbiridan farq qiluvchi ikki xil fikr bildiriluvchi), avvaldan ataylab xato fikr ham bayon qilinishi rejalashtirilgan, maslahat ma'ruzalariga bo'lish mumkin.

Hozirgi paytda nisbatan ko'p qo'llaniladigan yoki borgan sari ommalashib borayotgan ma'ruza shakllari: axborot beruvchi, muammoli va jadallashgan (chuqurlashtirilgan) ma'ruzalar bo'lib, ulardan hozirgacha eng ko'p qo'llaniladigan axborot beruvchi ma'ruzadir. U an'anaviy metodga asoslangan bo'lib, asosiy vazifa o'quv axboroti – mavzuning mazmunini



talabalarga bayon qilish, tushuntirishdan iborat. Unda o'qituvchi asosan bilim beruvchi rolini bajaradi. Bu monolog tarzida bayon qilinadi.

Mamlakatimizda 80-yillardan boshlab ma'ruzalarni muammoli tarzda bayon qilishga e'tibor berila boshlandi. Bunda maqsad yangicha bilim olish, ya'ni yangi mavzuni o'rganish, muammoli savollar, masalalar qo'yish, muammoli vaziyat yaratish orqali amalga oshiriladi. Bilish jarayoni dialog tarzida amalga oshirilib, o'qituvchining faoliyati talabalar bilan hamkorlikda kechadi. Dars tadqiqot faoliyatiga o'xshab ketadi. Dars o'tishda pedagogik vazifa yangi mavzuni muammo sifatida o'rta qo'yib, turli nuqtai nazarlarni hisobga olgan holda, uni echish yo'llarini topish orqali uddalanadi.

Hozirgi kunning talablaridan kelib chiqib, darsda talabalar faolligini oshirishga qaratilgan jadallashtirilgan (chuqurlashtirilgan) ma'ruza metodini qo'llash borgan sari ommalashmoqda.

Ma'ruza matni har bir fanning ishchi o'quv dasturi asosida, mavzuga ajratilgan vaqtdan kelib chiqib, tayyorlanadi. Buning uchun mavjud adabiyotlar o'rganiladi, turli manbalardan axborotlar yig'iladi.

Mavzuni o'rganishning maqsadidan kelib chiqib, zarur savollar qo'yiladi, mavzuni yoritish metodi tanlanadi.

Iqtisodiyot nazariyasi barcha fanlar uchun asos bo'lishini hisobga olib, namunaviy ma'ruza matni shu fandan beriladi. Ma'ruza o'qilayotgan iqtisodiy fanlarning xususiyatlaridan kelib chiqqanda ma'ruzada ma'lum bir farqlar bo'lishi mumkin, lekin ma'ruzaning asosiy mohiyati o'zgarmaydi.

#### **Suhbat metodini qo'llab dars o'tish**

Savol-javob odatda darsning og'zaki metodi hisoblanadi. Og'zaki javobga asoslangan yana bir metod, suhbat metodidir. Uning keng tarqalgan shakli hikoya va bayon qilishdir.

Og'zaki uslubdagi darsning maqsadi bilim berish, o'rgatish, axborot berish, o'zi olgan axborotni, bilimni yoki fikrni boshqalarga etkazish bo'ladi. Bayon etish, hikoya

qilish deb, o'quv materialini monolog tarzida bayon qilishga aytiladi. Bu metod odatda, nazariy va amaliy mashg'ulotlarda, maslahat darslarida keng qo'llaniladi. Bunda bilim o'qituvchi tomonidan ma'lum bir tizimga solingan holda tushunarli, o'quvchitalabalar ruhiyatiga ta'sir etadigan tarzda etkaziladi. Hikoya odatda o'quvchitalabalarni yangi mavzuni, materialni o'zlashtirishga tayyorlash uchun **kirish so'zi** tarzida bayon qilinadi. Materialni, mavzu mazmunini esa **hikoya** tarzida bayon qilinadi.

Bu metodning samarasi, asosan, o'qituvchi mahoratiga, uning ta'sirchan, tushunarli, diqqatni tortadigan emotsional bayon qilishiga, har bir so'z, ibora uning ko'zida, chehrasida qanday ifodalanishiga bog'liq. Hikoya, talabalarning intellektual darajasiga mos bo'lishi lozim.

O'qituvchi ushbu metod asosida dars o'tishga tayyorlanar ekan, zarur materialni, mavjud sharoitda eng yaxshi maksimal natijaga erishish uchun metodik usullar tanlaydi. Ko'pincha xotirada qoladigan usullar qo'llaydi. Taqqoslash, solishtirish, o'xshatish, xulosa chiqarish kabilar xotirada qolishga yordam beradigan usullardir.

Hikoya qilish mashg'ulotlarda o'qitishning boshqa metodlari bilan ko'rgazmali vositalar bilan olib borganda yaxshi natijalar beradi. Bundan tashqari hikoyada qanday voqea, hodisa, dalillar, kishilar bayon qilinayotgani ham katta rol o'ynaydi.

Talabalar ham amaliy mashg'ulotlarda o'qituvchi tomonidan berilgan savolga shunday hikoya tarzida bayon qilish bilan javob beradilar.

O'quv jarayonida qo'llaniladigan **suhbat**, ya'ni qo'yilgan savolga atroflicha, aniq, tushunarli javob berish bilan suhbatdoshning diqqati masalaning turli jihatlariga qaratiladi.

**Suhbat** didaktik jarayondagi eng ko'hna metodlardan hisoblanadi. Suhbat unda qatnashuvchilarda bilim olishga, o'qish, o'rganishga istak tug'diradi. Shu bois keng tarqalgan.



Suhbatning afzallik tomoni shundaki, u fikrlashni maksimal darajada faollashtiradi, bilish jarayonini boshqarish imkonini beradi, buning uchun sharoit yaratadi.

Keyingi paytda uning hozirgi talablarga javob beradigan shakli sifatida dars berishda «intervyu berish», usullaridan keng qo'llanilmoqda. Bu usulda bir talaba intervyu oluvchi rolini bajarsa, ikkinchisi intervyu beruvchi sifatida qatnashadi. Natijada talabalar faolligi oddiy suhbat tarzida o'tkazilgan darsga qaraganda ancha yuqori bo'lishiga erishiladi.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, suhbat metodini qo'llash orqali:

- o'quvchi, talabalarni darsda faol qatnashishga tayyorlash;
- yangi o'quv materialini bilan tanishtirish;
- egallagan bilimlarini mustahkamlash va ma'lum bir tizimga solish;
- egallagan bilimlarni qay darajada ekanligini aniqlash va joriy nazorat qilish amalga oshiriladi va bu borada unga teng keladigani yo'q.

Suhbat asosida dars o'tishning boshqa barcha uslublarga o'xshab, o'ziga xos afzalliklari hamda kamchiliklari mavjud.

**Ular quyidagilar:** Afzalliklari:

1. Darsda qo'yilgan maqsadni amalga oshirishni bevosita nazorat qilish imkoni kattaligi. 2. Talabalarning darsda qatnashishlarini turli savollar bilan faollashtirish.

3. Har bir talabaga savol bilan murojaat qilish orqali, darsda faol qatnashishni ta'minlash ko'rsatkichini oshirish.

4. Birgalikda ishlash, savolni muhokama qilish jarayonida guruhni boshqarishni praktikada qo'llash.

**Kamchiliklari:**

1. Talabalarining soni cheklangani, 2530 tadan oshmasligi. 2. O'qituvchidan ko'p kuch, asab, mahorat talab qiladi.

3. Savollar muhokamasi ko'p vaqt talab qiladi.

4. Talabalardan ma'lum darajada bilim, tushuncha bo'lishini talab qiladi. Guruhdagi talabalar yangiliklarni,

o'zgarishlarni bilishi, darsga puxta tayyorlanib kelishlari kerak. Bo'lmasa darsga qo'yilgan maqsadga erishib bo'lmaydi.

**Javoblarni qanday baholash kerak?**

1. **Har bir javobga muvofiq ravishda baho berish kerak.** Javob bergan ham, boshqa talabalar ham javobning to'g'ri yoki noto'g'riligini bilishi kerak. To'g'ri javobni ayrim paytda qaytarish zarur bo'ladi, ayrim paytda so'zmaso'z qaytarish ortiqcha.

2. **To'g'ri javobni e'tirof etish.** Javob to'g'riligi e'tirof etilar ekan, doimo bir xilda «to'g'ri», «juda yaxshi» degan so'zlarni takrorlamaslikka harakat qilish kerak.

3. **Javob yo'q.** Talaba savolga javob bera olmasa, boshqa savol berib ko'rish kerak. O'qituvchi bunday paytda sabrtoqatli bo'lishi kerak. Agarda keyingi savolga ham javob bo'lmasa, boshqa talabaga murojaat qilish kerak.

4. **Javob etarli emas.** Talaba bergan javob etarlicha to'g'ri bo'lmasa, javobning to'g'ri qismini hisobga olgan holda esga soluvchi, yo'llovchi savollar berish kerak.

5. **Berilgan javob noto'g'ri.** Noto'g'ri berilgan javobni oydinlashtirish, uni boshqacharoq tarzda qo'yish yoki auditoriyaga hamma shunaqa fikrdami? Kelinglar, bir o'ylab ko'raylik deya murojaat qilish mumkin.

6. **Javob mujmal bo'lishi mumkin.** Qo'yilgan savolga noaniq javob bo'lsa, o'qituvchi darhol «savol boshqa edi» yoki «men boshqa narsani nazarda tutgan edim» demay, keyingi savolni bergani ma'qul.

7. **Noaniq tushunib bo'lmaydigan javob.** Unda o'qituvchi talabadan yana qayta o'z fikrini qaytarishni so'rashi kerak. Hamma javobni tushunmadi, yana takrorlang, deb murojaat qilish kerak.

**To'g'ri javobni alohida ajratib ko'rsatish.** Agar suhbat chog'ida bir necha fikr bildirilgan, turlicha javoblar berilgan bo'lsa, to'g'ri javobni albatta ajratib ko'rsatish, iloji boricha daftarga yozib qo'yish yoki tarqatiladigan materialda bo'lishi kerak.



### **Talabalar bilimini mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. Dars o'tishda auditoriya oldiga savol qo'yishning qanday ahamiyati bor? Savoljavob eng ko'hna, keng tarqalgan va hech eskirmaydigan metod deb ayta olamizmi?

2. Nima sababdan har qanday bilish faoliyatining asosida savol yotadi, deymiz? 3. Dars o'tish jarayonida parta, stolstullar joylashuvining qanday ahamiyati bor? 4. Savollarni qanday guruhlariga bo'lish mumkin?

5. Savol berish va unga javobni baholashda o'qituvchi qanday qoidalarga rioya qilishi lozim?

6. Suhbat metodi qanday metod hisoblanadi? Sizningcha, nima sababdan bu metoddan o'qituvchilar dars jarayonida keng foydalanadilar?

### **9-mavzu. Iqtisodiy fanlarni o'qitishda amaliy va seminar mashg'ulotlar olib borish metodikasi.**

#### **Reja:**

1. Amaliy va seminar mashg'ulotlar.
2. Seminar darsi va uning o'quv jarayonida tutgan o'rni.
3. Seminar darsiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish ( seminar darsi o'tishga doir uslubiy ko'rsatmalar).
4. Mustaqil ishni tashkil qilishning shakllari, xususiyatlari va tamoyillari.

#### **Amaliy va seminar mashg'ulotlar**

Oliy ta'lim maskanlarida ta'lim berishning bir qancha shakllari bor.

Ma'ruza:

Tegishli o'quv kursi bo'yicha (DTS, namunaviy dastur va o'quv rejalari) meyoriy hujjatlar asosida ta'lim berish ya'ni pedagoglar tomonidan tinglovchilarning faol ishtirokida mavzularning nazariy asoslarini yoritib berish.

Seminar – ma'ruzada olingan nazariy bilimlarni normativ

hujjatlar asosida mustaqil ta'lim orqali o'zlashtirish

Amaliy mashg'ulot – ma'ruza va seminar mashg'ulotlarida olingan nazariy bilimlarni amalda tatbiq qilish ko'nikma va malakasini shakllantirish.

Laboratroya – tegishli mavzudan olingan bilim, ko'nikma va malakani o'quv metodik ko'rsatmalar asosida laboratoriya sharoitida sinab ko'rish.

Ma'ruza bilan birgalikda amaliy mashg'ulot ham o'quv jarayonining muhim shakllariga kiradi. U ta'lim, tarbiya berish hamda nazariyani amaliyot bilan bog'lash funksiyasini bajaradi. Amaliy mashg'ulot termini pedagogikaga oid adabiyotlarda tor va keng ma'noda talqin etiladi. Amaliy mashg'ulot keng ma'noda seminar (uning barcha turlari), mashq, laboratoriya ishini umumiy holda ifodalanihidir. Seminar amaliy mashg'ulotning shakllaridan biri bo'lib, ma'ruzada bayon qilingan nazariy qonunqoidalarni mustahkamlash; fan bo'yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish, talabalarni ilmiy tadqiqot, bilish qobiliyatlarini o'stirish vazifalarini bajaradi.

#### **Seminar darsi va uning o'quv jarayonida tutgan o'rni**

Seminar darsi talabalarni bilim olishlari, uni puxta o'zlashtirishlari va olgan bilimlarini kelgusida real hayotda qo'llashni o'rganishlarida alohida o'rin tutadi. Shuning uchun ham, seminar darsini qiziqarli, talabalarni faol qatnashishlarini ta'minlaydigan metodlarni qo'llab, o'tish muhim ahamiyatga ega.

Ma'ruzada odatda bayon qilish etakchi rol o'ynaydi. Talabalar ma'ruza tinglashda passiv rol o'ynaydilar. Seminar darsida esa talabalar faol bo'lishadi. Darsda turli metodlarni qo'llab, ularning faolligini ta'minlash imkoniyati keng.

Ma'ruza darsi monolog tarzida bayon qilinsa, seminar darsi dialog asosida olib boriladi. Odatda, seminar darsida talabalarning bilimi, o'z ustida ishlash darajasi aniqlanadi, nazorat qilinadi.

Seminar (lot. seminariym – manba, ko'chma ma'noda maktab) – o'quv amaliy mashg'ulot shakllaridan biri. Asosan oliy o'quv yurtlarida, ilmiy to'garak, anjumanlarda qo'llaniladi.



Ta'limning seminar shakli qadimgi Yunon va Rim maktablarida paydo bo'lgan. Keyinchalik G'arbiy Yevropa universitetlarida rivojlantirilgan. Bu universitetlarda seminar talabaniing adabiyotlar, manba ustida ishlashi vazifasini o'tagan. XX asr boshlaridan seminar darslari talabalarning umumiy ilmiy dunyoqarashini kengaytirishda, ularni muayyan fan tarixidagi muhim muammo va tadqiqotlar bilan tanishtirishda katta rol o'ynay boshlagan.

Seminarining asosan uch turi bor:

1. O'rganilayotgan fan yoki kursni chuqur o'rganishga yordam beradigan seminar darslari.

2. Ayrim muammo, asosiy yoki muhim mavzuni o'rganish uchun o'tkaziladigan seminarlar.

3. Tadqiqot xarakteridagi seminarlar.

O'quv jarayonini tashkil etishda seminar darslari alohida o'rin tutadi. Seminar o'quv jarayonining talabalar bilimlarini mustahkamlashni ta'minlovchi, ijodiy qobiliyatlarini namoyon qiluvchi shaklidir. Seminar mashg'ulotlarining maqsadi talabalarning chuqur bilim olishini ta'minlash, olgan bilimni real hayotda qo'llashga o'rgatishdir.

Buning uchun talaba olgan axborotlarini tahlil qilish, ilmiy tadqiqot o'tkazish, taqqoslash, xulosa chiqarishni bilishi kerak. Seminar darsining oldiga qo'yilgan bosh maqsadga erishish uchun dars oldiga qo'yilgan qator vazifalarni amalga oshirish kerak. Bu vazifalar seminar darslari bajaradigan funktsiyalarda o'z ifodasini topadi.

**Seminar darsi quyidagi funktsiyalarni bajaradi:**

- talabalarga professional ta'lim berish va tarbiyalash;
- mustaqil ishlash malakasini o'stirish;
- mantiqiy fikrlashga o'rgatish;
- nutqini o'stirish, ilmiy munozaralar olib borishga o'rgatish;
- mustaqil fikr yuritish va o'z fikrini o'rtoqlashishga o'rgatish;
- o'rtoqlari fikrini tanqidiy baholashga o'rgatish;
- talabalar bilimni nazorat qilish va baholash;

- nazariy olgan bilimlarini amaliyot bilan bog'lash.

Inson xotirasi – bu bizning biokompyuteridir. Odatda, yangi axborotni qabul qilar ekanmiz, avvalgi axborot qisman xotiradan ko'tariladi. Axborotlar nihoyatda xilmaxil bo'lib, inson har kuni o'z hayotida qabul qiladigan axborotlar miqdori, ularni turlicha qabul qilinishi, xotirada saqlanib qolishi jihatidan birbiridan farq qiladi. Psixologlarning fikricha, olingan axborot, chizmada tasvirlangandek, go'yoki filtdan o'tib, saralanib, ma'lum bir jihatlari bilan ajralib turadiganlari xotirada saqlanar ekan.

Uzoq muddat xotirada qoladigan axborotlarga qo'yidagilarni kiritish mumkin:

- qiziqarliligi, jo'shqinligi kabi xususiyatlari bilan ajralib turuvchi axborotlar;

- tasavvur, histuyg'u va shu kabi birbirini eslatadigan, o'zaro bog'lanishdagi axborotlar;

- inson tomonidan tushunib, mohiyatiga etilgan axborotlar;

- faollik bilan qabul qilingan, o'rganilgan, takrorlanib turiladigan axborotlar.

Aytib o'tganimizdek, olimlarning ilmiy tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, oddiy inson odatda axborotlarni olgan manbasi, shakliga ko'ra turli darajada o'zlashtiradi.

Agarda uni abstract chizma orqali ko'rsatadigan bo'lsak, mana bunday ifodalash mumkin.

Olingan axborot chizmada go'yo filtdan o'tishi ko'rsatilgan. Bu holda axborot qisqa muddat yodda saqlanadi. Qisqa muddat yodda kolgan bilim ikkinchi filtdan o'tgach, shu bilimni yodda saqlash, foydalanish, takrorlash tufayli faol bilim zaxirasiga aylanadi.

Bu bilimdan foydalanib, takrorlab turilmasa, sust bilim zaxirasiga aylanadi va borabora xotiradan ko'tariladi. Uni quyidagi grafikda ko'rish mumkin. Bulardan shunday xulosa chiqarish mumkin: talabalarning eng avvalo, o'quv materialini o'zlashtirishi, yodda qolishi uchun olinadigan axborotni iloji boricha eshitish va ko'rish orqaligina emas,



balki gapirish, o'z faoliyatida sinab ko'rish orqali etkazish katta ahamiyatga ega. Bunga erishishning yo'li seminar darslarini turlituman metodlar orqali olib borishdir. Aynan seminar darsida talabalar ma'ruza, kitob, jurnal va hokazolar orqali olgan axborotlari, bilimlarini tushungan holda gapirib berish, uni modellashtirish asosida sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Seminar darsini o'tkazishda qo'llanadigan uslublar turlituman bo'lib, u yoki bu uslubni tanlash, o'rganilayotgan fanning xususiyatiga; o'tilayotgan mavzuga, seminar darsiga qo'yilgan maksadga, tanlangan uslubni qo'llash imkoniyatiga bog'liq.

Hozirgi paytda iqtisodiy fanlarni o'rganishda nisbatan keng qo'llaniladigan uslublardan: ekspress savol-javob, savollar tizimiga asoslangan muhokama, seminar mashg'uloti rejasi bo'yicha atroflicha suhbat, modellashtiruvchi o'yin, doklad va referatlarni muhokama qilish, masala, mashq, test echish va ularning natijasini muhokama qilish, munozara va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Seminar mavzui ma'ruza mavzusi bilan bir xil bo'lishi shart emas. Ba'zan mavzudagi ayrim savollar ma'ruzada ko'rib chiqilsa, ayrimlarini seminar muhokama qilish mumkin. Hozirgi paytda ma'ruzada ko'rilgan mavzu albatta, seminar ham muhokama qilinadi. Lekin ma'lum sharoitda seminar darsi va uning mavzusiga boshqacha yondashish mumkin. Aytaylik, adabiyotlar, axborot manbalari mavjud bo'lsa, seminar mustaqil o'rganilgan mavzuni muhokama qilish mumkin.

Seminar darsini muvaffaqiyatli o'tkazish uchun asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni sinchkovlik bilan o'rganish zarur. Adabiyotlarni o'rganish dars jarayonida talabalarning diqqatini qaratish lozim bo'lgan masalalarni alohida ajratish, mavzuni qaysi usul asosida o'rganishni rejalashtirish va darsga tayyorlanish imkonini beradi.

Savollarni murakkablashtirish hamda savollar tizimiga o'tish orqali mavzu mazmunini chuqur o'zlashtirish mumkin.

Bu esa savolni muhokama qilish jarayonida vujudga kelgan muammoli vaziyatni o'rganib, uni echish imkoniyatini beradi. Masalan, iqtisodiyot nazariyasining bosh muammosi nima? degan savol qo'yilgan. Bu holda talaba iqtisodiyot nazariyasi fanining bosh muammosi – resurslarning cheklanganligi sharoitida cheksiz ehtiyojlarni qondirish muammosi – deb javob berishi mumkin.

Ana shu savolni aytaylik, quyidagicha savollar tizimi asosida ilgari surish mumkin: Iqtisodiyot nazariyasining bosh muammosi nima? Nima sababdan buni bosh muammo deb ataymiz? Sizningcha, iqtisodiyotda yana qanday muammolar bor? tarzida berish mumkin. Ana shu savollar tizimiga javob berish jarayonida talabalar iqtisodiyot nazariyasining bosh muammosi resurslarning cheklanganligi sharoitida cheksiz ehtiyojlarni qondirish ekanligini, bunga sabab, iqtisodiyotdagi barcha masalalarni qamrab olishi ekanligi oydinlashadi. Ularga misol qilib, tanlash muammosini, har bir uy xo'jaligi, firma, davlat o'z oldiga qo'ygan maqsad va unga erishish muammosini va hokazolarni ko'rsatish mumkinki, ularning barchasi resurslarning cheklanganligi bilan bog'liq.

Mavzuni o'rganishni chuqurlashtirishga savol shaklini o'zgartirish, uni murakkablashtirish orqali ham erishish mumkin. Aytaylik, savolni iqtisodiyot nazariyasining bosh muammosi nima va uni nega bosh muammo deyiladi? tarzida qo'yiladi.

Talabalarning mavzuni, u yoki bu kategoriyaning qay darajada tushunganlarini sinash va puxtaroq tushunishlariga yordam berish uchun javoblarni ular bilan birgalikda muhokama qilish asosida mini test o'tkazish mumkin.

Seminar darsining iqtidorni namoyon etadigan, nutq so'zlash, boshqalar fikriga tanqidiy qarashni talab etadigan uslublaridan biri – munozaradir. Bunday usul bilan dars o'tish o'qituvchidan katta tayyorgarlik ko'rish, mahoratni talab qiladi. Umuman olganda, seminar darsi turli metodlar asosida olib borilar ekan, u qiziqarli, barcha talabalarni faol qatnashishga, demak, darsga qunt bilan tayyorlanib kelishga



undaydi.

**Seminar darsiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish (seminar darsi o'tishga doir uslubiy ko'rsatmalar)**

Seminar darsiga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazishni quyidagi namunaviy mashg'ulotda ko'rib chiqamiz. Bu uslubiy ko'rsatma dars o'tishni rejalashtirish va o'tkazishga yordam beradi.

Dars o'tishni uch asosiy qismga bo'lish mumkin.

Bular:

**I. Kirish:** salomlashish, o'tgan dars mavzuini qisqacha takrorlash; yangi mavzuni talabalarga havola qilish; darsda o'tiladigan mavzuning maqsadini bayon qilish; darsda muhokama qilinadigan savollar rejasini bayon qilish.

**II. Dars o'tish:** mavzuda ko'riladigan asosiy masalalar, kategoriyalarni bayon qilish, asosiy kontseptsiyalarni, masala, muammolarni tushuntirish, qaytarish bilan talabalar bilimni mustahkamlash, hayotda ularni qo'llash borasida misollar keltirish, seminar darslar, amaliy mashg'ulotlarda mashqlar masalalar, echish va boshqa qator metodlar yordamida bilimni mustahkamlash.

**III. Darsni yakunlash:** darsda bayon qilingan fikrlarni umumlashtirish, darsga xotima yasab, talabalarni kelgusida bajarilishi kerak bo'lgan ishlarga yo'naltirish.

**Mustaqil ishni tashkil qilishning shakllari, xususiyatlari va tamoyillari**

Talabalarining mustaqil ishini tashkil qilish shakllari turlicha bo'lib, ularni bir qismi o'quv rejasida ko'zda tutilgan. Uni har bir talaba bajarishi shart. Ikkinchi qismi ixtiyoriy, ya'ni talabalar o'z xohishi bilan mustaqil bajarishlari mumkin.

Mustaqil ishni tashkil etishning muhim xususiyati, uni talabaning o'zi tashkil qiladi. Shuning uchun uni rejalashtirish, vaqtini ratsional taqsimlashda talabaga yordam lozim.

Mustaqil ishni bajarish uchun talaba o'zini o'zi majbur qilishi kerak. Bunda ham sub'ektiv omil asosiy o'rinda turadi. Talabalarni mustaqil ishini tashkil etishda o'qishni boshqa shakllariga o'xshab, umumiy printsiplar mavjud. Mustaqil ishni

shu printsiplar asosida tashkil qilish kerak. Mustaqil ishni tashkil etishda oddiy elementar printsiplarni o'zlashtirish birinchi darajali ahamiyatga ega va ana shu murakkab jarayonni to'latilgicha qamrab oladi.

Har bir talaba mustaqil ishni tashkil etishni nimadan boshlashi kerak? Unga qanday maqsad qo'yiladi? Ish qancha davom etadi? Uni bajarishda qanday usullardan foydalanilishini aniq ko'z oldiga keltira olishlari kerak. Yana shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, mustaqil ishlarni tashkil qilish qoidalari ishlab chiqildi degani, bu ishni tashkil etildi degani emas. Mustaqil ishni qanday bajarishni har bir talabaning o'zi tashkil etadi. Muvafaqqiyatga erishish uchun talabaning o'zi sabrtoqat bilan, mashaqqatlardan qo'rqmay o'z ustida ishlashi kerak. Buni esa talabaning o'zi rejalashtiradi va amalga oshiradi.

**1. Mustaqil ishni bajarishni tashkil qilishning asosiy printsipli uning muntazamligidir.** Har bir talaba individual tarzda vaqtini fanlar bo'yicha tabaqalashtirgan holda rejalashtirishi kerak. Undan kelib chiqib, talaba o'z haftalik rejasini kunlar bo'yicha tuzadi. Mustaqil ishlarni rejalashtirish yuzaki qaraganda talabaga hech narsa bermayotganday, hech qanaqa yordami yo'qday tuyuladi. Lekin tajriba shuni ko'rsatadiki, a'lochi talabalar o'z vaqtlarini aniq rejalashtiradilar va uni bajarishga harakat qiladilar.

O'zlashtirish bo'yicha fakultet muvaffaqiyatini ham talabalarining o'z vaqtlarini to'g'ri rejalashtirishi, uni bajarishi bilan bog'lash mumkin.

**2. Mustaqil ishlarni bajarish muddati jihatidan xohlagancha davom etishi mumkin emas.** Tajriba shuni ko'rsatadiki, 1725 yosh darajasida mehnatni ratsional tashkil etganda bir sutkada 9 soat unumli ishlash mumkin ekan. Haddan tashqari uzoq o'tiradigan bo'lsa, mehnat unumi pasayadi, odam charchaydi, keyingi kunlari charchog'i yozilishi qiyin bo'lgani sababli, avvalgiday ishlay olmaydi.

Shuning uchun mustaqil ishni rejalashtirganda auditoriyada o'tkazgan vaqtini hisobga olishi kerak. Agar, auditoriyada dars soatlari 6 soat bo'ladigan bo'lsa, mustaqil



ishlash 3 soat, auditoriyada dars undan kam bo'lsa 3 soatdan ko'proq, agarda ko'p bo'lsa kamroq tarzda rejalashtirish kerak.

Shunday qilib, haftalik mustaqil ish bajarish vaqti 2224 soat atrofida bo'ladi. Albatta, bu vaqt talabani normal tarzda diqqate'tibor, g'ayrat qilib ishlashini mo'ljallagan holda belgilanadi. Lekin real hayotda sobir talaba o'zini zo'rlab dars tayyorlasa, ikkinchisi qiziqib, predmetni o'rganishga ilhom bilan kirishib ketadi. Uchinchisi esa, umuman dars tayyorlagisi kelmaydi.

Bunga qator ob'ektiv va sub'ektiv sabablarni keltirish mumkin.

**3. Mustaqil ishni tashkil qilishda ish tartibini belgilash katta ahamiyatga ega.** Mustaqil ishlarni bajarish uchun vaqtni semestr davomida kunlar bo'yicha taqsimlash, uni ratsional tashkil qilishning muhim printsiplari, qoidasi hisoblanadi. Goh umuman dars tayyorlamay, goh haddan tashqari shoshib, shiddat bilan, ayniqsa semestr yakuniga, oraliq nazorat yakuniga yaqin qoldirgan, bajarmagan ishlarni tezda bajarishga harakat qilish ijobiy natija berishi qiyin. Bu talabaning mehnati samaradorligini, qilgan ishidan qoniqish hissini pasaytiradi. Odatda talabaning kun tartibini dars jadvali belgilaydi. Lekin ko'p narsa talabaning o'ziga ham bog'liq. Masalan doklad, referat, nazorat ishi, seminar darsiga tayyorlanishga har haftada ma'lum vaqt ajratilib, muntazam ravishda olib borilmasa, kutilgan natija bermaydi.

Referat yoki doklad yozish kerak bo'lsa, uni orqaga surmay tezda kirishish kerak. Bunda o'qituvchi talabaga, ayniqsa, birinchi kurs talabalariga referat nima, doklad nima, uni qanday yozish, qanday tarzda adabiyot tanlash kerakligini tushuntirishi zarur.

Talabalarga iqtisodiy fanlardan dastur va seminar darslari rejasida ko'rsatilgan adabiyotlarni taklif qilish mumkin. Bundan tashqari, hozirgi paytda chop qilinayotgan kitoblarning ko'pchiligida foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati mavjud. Ana shu ro'yxatdan foydalanib, zarur adabiyotlarni kutubxonada, o'quv zalida bo'lsa, olib o'qish mumkin. Undan

tashqari respublikamizda chop etilayotgan «Bozor, pul, kredit», «Iqtisodiy axborotnoma», «Jamiyat va boshqaruv», «Soliq to'lovchining jurnali», «Kasbhunar ta'limi» kabi qator jurnal, hamda «Mulkdor», «Bank axborotnomasi», «Hamkor» va boshqa gazetalarni ko'rsatish mumkin.

Mustaqil ishlash quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1. Dars o'tilgandan so'ng bajariladigan ishlar, uy vazifalarini bajarishda darslik, o'quv qo'llanmalari bilan ishlash, konspekt tayyorlash.

Tipik topshiriqlarni echish. Bunda talaba avvalgi bilimlarini xotirasida qayta tiklaydi va qisman qayta

2. o'zgartirib, aniq topshiriqlarda qo'llaydi. Masalan: masala, mashq echish;

3. O'rganilgan bilimlarni tipik bo'lmagan sharoitda qo'llash. Talaba o'rgangan bilimlaridan yangi sharoitda foydalanadi. Sharoitlarda ma'lum umumiylik bo'lishi mumkin.

4. Ijodiy faoliyatga asos yaratish. Bunda talaba o'rganilayotgan sohaning mohiyatiga tushunadi, uning yangi munosabat, bog'lanishlarini aniqlaydi, g'oyalar va tushunchalarni yangi sharoitga bog'laydi.

Barcha mustaqil ishlar talabalarda ijodiy ishlash ko'nikmasini hosil qilishga qaratilgan. Talaba ijodiy ishlashga o'rgatilmasa, u ma'lum mavzuga oid materiallarni turli manbalardan ko'chirib kelish bilan kifoyalanib qolishi hamda o'zi mustaqil fikr bildirishga qiynalishi F.

Mustaqil ishlarni individual – didaktik maqsadlarni amalga oshirish nuqtai nazaridan ham 4 guruhga ajratish mumkin:

1) Bilimlarni dastlabki shakllanishiga, idrok qilishga undaydigan vazifalar. Bunda o'quvchitalabalar maqsadga erishishi uchun nima talab qilinishini bilishi lozim. Vazifalar – axborotlarni, ma'lumotlarni o'zlashtirishga qaratilgan bo'ladi.

2) O'zlashtirishga axborot, ma'lumotlarni xotirada saqlash va qayta jonlantirish va qayta ishlashga qaratilgan topshiriqlar. Bunda avval egallangan bilimlarni to'g'ri jalb qilish, faollashtirish asosida bajariladigan hamda aniq



sharoitda tatbiq etish talab qilinadigan vazifalar beriladi.

3) Avval o'zlashtirilgan, qolipga tushgan, tajriba to'planishi natijasidagi bilim, malaka, ko'nikmalarga yangicha nuqtai nazardan yondashishni talab qiluvchi topshiriqlar. Ularda masalaning mohiyatini izlash, yangicha echimlar topish, yangicha g'oya, fikrlar bilan ifodalashni talab etiladigan vazifalar beriladi.

4) Ijodiy faoliyatga undovchi topshiriqlar.

Bunda, yangi yoki oldindan ma'lum bo'lsada, ungacha boshqacha nuqtai nazardan qaralgan g'oya, fikrlarni tadqiq qilish, beriladi.

Mustaqil ishlarning ajralmas qismi ya'ni axborotlar to'plash, ular ustida ishlash, o'z fikrini bildirishga undaydigan topshiriqlar, vazifalar bu mustaqil tahsildir. O'quvchi, talabalarining mustaqil tahsili ularni o'z bilimlarini kengaytirish, chuqurlashtirish, mavjud malaka va ko'nikmalarni takomillashtirish hamda ularning yangilarini o'zlashtirishga bo'lgan intilishidir.

Mustaqil tahsilning asosiy maqsadi talabalarni shaxsiy va kasbiy sifatlarini shakllantirishda o'z ustida ishlash ustunligidir. Mustaqil tahsilning asosiy metodi adabiyotlar ustida individual ishlashdir. Bu metod axborotlar oqimida eng zarur axborotni topish, unga baho berish, ushbu axborotdan o'zining kasbiy faoliyatida foydalanish malakasini shakllantiradi.

Talabalar mustaqil ishini tashkil etishda muayyan fan (kurs) ning xususiyatlarini, shuningdek, har bir talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;

Prezident asarlari va iqtisodiy masalalarni tadqiq qilishga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlarni konspekt qilish;

seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;

berilgan mavzular bo'yicha referat, axborot tayyorlash;

o'rganilayotgan fanning eng dolzarb muammolarini qamrab oluvchi referatlar yozish;

laboratoriya ishlarini bajarishga tayyorgarlik ko'rish;

hisob, grafik ishlarini bajarish;

nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash;

amaliyotdagi mavjud muammolarning echimini topish;

maket, model va namunalar yaratish;

ilmiy maqola, anjumanga dokladlar, ma'ruza tezislarini tayyorlash;

ijtimoiy, iqtisodiy siyosiy mavzularda bo'lib o'tadigan ilmiy, amaliy konferentsiya, seminar mashg'ulotlar va davra suhbatlariga tayyorgarlik ko'rish va ularda qatnashish;

turli jamg'armalar tomonidan tashkil qilingan tanlovlarda ishtirok etish;

o'rganilayotgan fan bo'yicha mavjud asosiy ilmiy adabiyotlarga annotatsiya yozish va boshqalar.

Mustaqil ishlar tarkibida talabalardan alohida diqqat'tibor bilan ishlashni talab qiladigan mustaqil ish o'rganilayotgan fandan kurs ishi hamda bitiruv malakaviy ishi yozish ham bor.

O'qitiladigan fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, mustaqil ishni tashkil etishda boshqa shakllardan ham foydalanish mumkin.

Mustaqil bajariladigan ishlardan biri iqtisodiy masalalarga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlarni yoki o'quv adabiyotlarini konspekt qilishdir. Konspekt qilish talabani fanni o'zlashtirishi uchun katta yordam beradi. Lekin talabalar konspekt qilishni to'g'ridan - to'g'ri ko'chirish deb tushunmasliklari kerak.

Berilgan topshiriqni bajarish o'qishdan boshlanadi. O'qish bu hali o'zlashtirish emas. O'qish, o'qilgan matnni anglash kerak. Tushunish, o'zlashtirish uchun qo'shimcha ravishda aqlni ishlatish talab qilinadi. O'zlashtirish bu yodda saqlash degani emas, albatta u o'zlashtirishga yordam beradi. Boshqacha aytganda, uqish bu o'qish emas. Tushunish boshqa, tushunganni o'zlashtirilganini yodda saqlash esa yana boshqa narsa. Hammasi ham aqlni ishlatishni talab qiladi. O'qishga minimum vaqt va kuch sarflab, harakat qilib, asosiy



diqqatni tushunishga, tushunganini yozishga, yodda saqlashga harakat qilish kerak. Sarflanadigan vaqt, uni o'qishga qancha va tushunish uchun o'ylashga qancha sarflanishi mavzuga, uning murakkablik darajasiga bog'liq.

Talabalarni iqtisodiy fanlarni o'rganishlarida iqtisodiy muammolarga bag'ishlangan eng yaxshi adabiyotlar bilan tanishtirish, etakchi olimlar bilan uchrashuvlar tashkil etish muhim rol o'ynaydi. Undan tashqari, ilmiy to'garak ishini muntazam tashkil etish, talabalarining ijodiy kunlari, ilmiy davralari, anjumanlari, konkursleri olimpiada va ko'rgazmalarini vaqtivaqti bilan o'tkazib turish shubhasiz talabalar faolligini oshiradi. Ularni fanni o'rganishga rag'batlantiradi.

Talabalarni mustaqil ravishda ijodiy izlanishga o'rgatishda kafedra tomonidan tashkiletilgan ilmiy to'garaklar katta ahamiyatga ega. Bunda kafedra o'rganilayotgan fan bo'yicha talabalarining qiziqishi, fandagi yangiliklar o'rganilishi, tadqiq etilishi lozim bo'lgan muammolarni ilmiy to'garaklarda muhokama qilinishini ko'zda tutishi kerak. Talabalar to'garakda tayyorlagan ilmiy dokladlarini tinglovchilar hukmiga havola etar ekanlar, to'garak a'zolari ham uni muhokamasida faol ishtirok etishlarini ta'minlash zarur. To'garak a'zolarini soni, muhokama qilinadigan masalalar, ilmiy dokladlar miqdori, mavzularning mazmuni va boshqalarga ko'ra to'garak rahbari oy davomida ilmiy to'garaklar majlisi o'tadigan kunlarni belgilaydi. Eng yaxshi baho berilgan ilmiy dokladlar talabalarining ilmiy konferentsiyalarida qatnashishga tavsiya etiladi.

O'tkaziladigan konferentsiyani umumiy mavzusini tasdiqlagach, dokladlarni mavzu yo'nalishiga ko'ra guruhlariga ajratgan ma'qul. O'tkaziladigan talabalarining ilmiy konferentsiyasida eng yaxshi deb topilgan dokladlar rag'batlantiriladi, keyingi bosqichlarda qatnashishga tavsiya etiladi.

O'quv yurtlarida keng qo'llaniladigan mustaqil ishlarining yana bir turi dokladdir. Dokladga: 1) majlis ahli

uchun mo'ljallangan muayyan mavzudagi axborot, maruza; 2) talabalarining mustaqil ish turi; 3) ilmiy ish turi sifatida qarash mumkin.

Talabalar dokladni mustaqil ish turi sifatida seminar darslariga tayyorlab kelishlarim mumkin. Dokladni adabiyotlarni o'rganib, tanlangan mavzuga chuqur yondashib, o'z kuzatishlarini ham ishlata bilgan holda tayyorlashlari kerak. Doklad tayyorlash jarayonida talaba adabiyotlar bilan ishlash, turli manbalardan olgan materiallarini umumlashtirish, o'z fikrini yozma ravishda ifodalashga o'rganadi.

Referat, doklad yozish uchun talaba, avvalo, fanni nazariy jihatdan puxta o'zlashtirishi kerak. Tanlab olingan mavzuni yoritish uchun kirish, 34 savol qo'yiladi va xulosa beriladi. Dalillar, statistik ma'lumotlar to'planadi. Tahlil qilinayotgan masala bo'yicha mavjud fikrlar, qarashlar bayon qilinadi. Talaba ularga o'z nuqtai nazarini bildiradi.

Ilmiy doklad haqida to'xtaladigan bo'lsak, ko'p jihatdan kurs ishiga qo'yilgan talabalar bilan bir xil va shu tartibda yoziladi. Faqat ilmiy doklad tanlangan mavzuni kurs ishiga qaraganda ham chuqurroq o'rganish, dalillar, statistik ma'lumotlar to'plash, ular asosida zarur iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash, ularni tahlil qilish xulosa chiqarish hamda o'z takliflarini bayon qilish bilan ajralib turadi. Boshqacha aytganda, kognitiv ya'ni bilishning eng yuqori baholash darajasida fikr yuritiladi.

Iqtisodiyot nazariyasi barcha mutaxassisliklar bo'yicha o'rganiladi. U oliy ma'lumotli, malakali mutaxassis tayyorlashda, barchaning iqtisodiy psixologiyasini, dunyoqarashini, fikrlashini shakllantiradigan predmet sifatida, ayniqsa bozor iqtisodiyoti sharoitida alohida ahamiyatga ega ekanligini ham yodda tutish kerak. Boshqa iqtisodiy fanlardan ilmiy doklad tayyorlaganda nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lashga, iqtisodiyotning biron yo'nalishi bo'yicha, undagi muammolarni o'rganishni natijasi sifatida amaliy tavsiya, takliflar berilishi kerak.

«Maxsus (iqtisodiy) fanlarni o'qitish metodikasi» fanidan



doklad tayyorlaganda esa yuqorida bayon qilinganlardan tashqari samarali dars o'tish metodlarini tanlash, ularning yangi variantlarini topish va qo'llashga ham e'tibor berish lozim.

Ilmiy doklad yozish qattiq mantiqiy izchillikni, sabrtoqat, tirishqoqlikni talab qiladi. Talabalarining iqtisodiy fanlardan mustaqil ishini muhim tarkibiy qismi sifatida referat yozish borgan sari keng tadbiq etilmoqda. Referatni talabalarining ilmiy ish yozishi, tadqiqot o'tkazishini dastlabki shakli sifatida ko'rish mumkin.

Referat (lotincha refero axborot beryapman) — biror ilmiy asar, o'qilgan kitob, maqolalarning mazmunining qisqacha yozma yoki og'zaki bayoni, o'rganilgan ilmiy masalaning natijasi haqidagi axborot, tegishli adabiyot va boshqa manbalar obzorini o'z ichiga olgan ma'lum mavzudagi doklad.

Referat odatda, ilmiy axborot vazifasini o'taydi. Unda muayyan mavzu bilan birgalikda, tegishli ilmiy nazariyalar, xulosalar yoritilishi va tanqid qilinishi mumkin. Ilmiy tadqiqot muassasalari, oliy o'quv yurtlarida ilmiy dokladlar sifatidagi referatlar keng tarqalgan. Odatda talabalarining seminar mashg'ulotlariga tayyorlab keladigan maxsus axborotlari ham referat deyiladi.

Referat yozish bilan talaba ilmiy adabiyotlar bilan ishlashni, statistik ma'lumotlar va boshqa materiallarni to'plash, ularni qayta ishlash, ya'ni hisob kitob qilish, tahlil qilish, o'rganilayotgan hodisalarga tanqidiy ko'z bilan qarashni, baholashni, nazariyani amaliyot bilan bog'lashni o'rganadi.

Referat mustaqil yozilib, uni yozish qoidalariga amal qilinsa, darslik bo'yicha savolga tayyorlanib kelib, seminar darslarda so'zga chiqishga qaraganda katta foyda beradi. Talaba referatda bildirgan o'z fikrini auditoriya oldida himoya qila olishi kerak.

Referat yozish formal bo'lsa kutilgan natijani bermaydi. Shuning uchun o'qituvchining rahbarligi katta rol o'ynaydi. Referatlarga qay darajada talab qo'yiladi, shunga ko'ra uni muvaffaqiyatli qo'llash mumkin yoki aksincha.

Shunday qilib, referat, kurs ishi, ilmiy doklad, bir tomondan, ilmiy ishlarning yakuni sifatida, o'z ustida ishlashlari, izlanishlariga yakun yasasa, ikkinchi tomondan, ularni yanadangi ishlarga rag'batlantiradi, dunyoqarashini rivojlanishi, o'z faoliyatini aniq maqsadga yo'naltirishga, yanada chuqurroq bilim olish, o'z ustida ishlashga, iqtisodiy fikrlash, ilmiy izlanishga, fikrini mantiqiy izchillikda ham og'zaki, ham yozma ravishda bayon qilishga o'rgatadi.

#### **10-mavzu. Iqtisodiyot darslarida masala, mashq, testlar va tarqatma materiallardan foydalanish.**

##### **Reja:**

1. Iqtisodiy fanlarni o'rganishda masala va mashqlardan foydalanish metodining o'рни.
2. Masala va mashqlar va ularni nazariy darslarda qo'llash.
3. Amaliy darslarda masala, mashqlardan foydalanish va ularni takomillashtirish.
4. Masala va mashqni tuzish va iqtisodiy fanlarni o'rganishda qo'llash.
5. Testlar, ularni tuzish, o'tkazish va javoblarini muhokama qilish.

##### **Iqtisodiy fanlarni o'rganishda masala va mashqlardan foydalanish metodining o'рни**

Iqtisodiy fanlarning xususiyatlaridan kelib chiqib, ularni o'rganishda markaziy o'rinni masala, mashq yyechish egallaydi. Sababi:

- 1) masala, mashq yyechishni mukammal bilish, olgan bilimni amaliyotda qo'llash imkonini beradi.
- 2) masala, mashq yyechish orqali talabalarining bilim olishdagi faolligi ortadi.
- 3) masala va mashq fikrlashni o'rgatadi.

Shuning uchun ham masalaga faqat topshiriqni hisob-kitob asosida bajarish, javobini aniqlash emas, balki fikr yuritish ob'ekti sifatida qaratilishi bejiz emas.



Masala yordamida fanni o'rgananda aniq raqamlar, dalillar, hujjatlar asosida tahlil qilish imkoniyati keng. Undan tashqari modellashtiruvchi o'yin, kichik guruhlariga bo'lish, konkurs o'tkazish va boshqa metodlar asosida dars o'tishda ham masalamashqlardan keng foydalanish imkoniyati katta.

Iqtisodiy fanlardagi mashqlar talabalarni mushohada qilish, hulosa chiqarishga o'rgatish bilan birga kam vaqt sarflanishi, ayrim masalalarda ikkilanib turgan talabalarni to'g'ri javob topishga o'rgatadi.

Masala, mashq yechish jarayonida talabalarning qabul qilingan qonunlar, me'yoriy hujjatlar va yo'riqnomalarni qay darajada bilishlarini ham aniqlash mumkin. Ulardan munozara, debatlar metodini qo'llashda ham keng foydalansa bo'ladi.

Masala va mashqlar talabalar bilimini sinashda ham eng qulay metod.

Masala mashqlardan fanni o'rganish uchun tarqatma material tayyorlashda keng foydalanish mumkin. Ulardan darsda foydalanish turli interaktiv metodlarni qo'llab dars o'tishni tashkil etishda foydalanish imkoniyati nihoyatda katta.

Masala, mashqlardan foydalanib darsni tanlov o'tkazish shaklida tashkil etish mumkin. Bundateng kuchli masalamashqlar tayyorlanib, kichik guruhlariga, juftlik yoki individual tarzda yechishga qarab darsda qo'yilgan maqsad amalga oshiriladi.

Masala, mashqlarning murakkabligi jihatidan tabaqalashtirgan holda tuzilib, talabalarning salohiyatiga ko'ra beriladi. Natijada murakkab masalani echolmay hafsalasi soviydigan talabalarni ham darsga, o'rganilayotgan mavzuga diqqatini qaratish mumkin.

Xullas masala, mashqlar, bir tomondan sinalgan, qadimiy dars o'tish uslubi bo'lsa, ikkinchi tomondan, imkoniyatlari nihoyatda ko'pligi tufayli eskirmaydigan, doimo zamonaviy, uchinchi, universal, barcha iqtisodiy fanlarni o'rganishda qo'llash mumkin bo'lgan metoddir.

Iqtisodiy fanlarni o'rganishda bu metod, shubhasiz, nihoyatda katta ustunliklarga ega, ya'ni:

\*Masalalardan foydalanish amaliyot yo'nalishiga ega

bo'lgani uchun mavzuni o'rganish va talabalar bilimini nazorat qilishning samarali usuli hisoblanadi. Ayniqsa, talabalarning bilimini nazorat qilishda imkoniyati katta.

\*Masala mavzusi uchun har qanday vaziyatni tanlash mumkin. Masalalar talabalar bilimini butun dastur bo'yicha nazorat qilish, shu bilan birga, asosiy yoki qiyinkategoriyalar yoki mavzularni tushunishga qaratilgan bo'lishi mumkin.

\* Masalalarning muntazam yechib turilishi hamda uni muhokama qilish talabalarning olgan bilimini uzluksiz nazorat qilish, tushunmagan kategoriyalarni tushunib olish imkoniyatini beradi.

### **Masala va mashqlar va ularni nazariy darslarda qo'llash**

O'quvchitalabalarning puxta bilim olishlari, iqtisodiy fanlarni chuqur o'rganishlarining eng samarali metodlardan biri masala va mashqlardan foydalinish qanday ahamiyatga ega ekanligini ko'rib chiqdik. O'qituvchi masala va mashqlarni o'quv jarayonida turli shakllarda ishlatishi mumkin.

O'qituvchi dars berishga tayyorlanar ekan, mavzuni o'qishda qo'llaydigan metodlarini, jumladan, masala, mashqlarni chuqur o'ylab, ulardan qanday tarzda foydalanishni ko'z o'ngiga keltirishi zarur.

Masala va mashqlar iqtisodiy kategoriya, qonunlarni sifat xarakteristikasi bilan birga miqdor aloqalarini ham o'zida mujassamlashtirishi bilan muhim rol o'ynaydi.

Masala va mashqlar hisobkitob qilishni taqozo qiladi. Bu esa o'quvchitalabalarning aniq miqdorlar, raqamlar yordamida qonun va kategoriyalarni tushunishini osonlashtiradi. Chunki iqtisodiyotni nazariy jihatdan o'rganishda, ko'pincha, ilmiy abstraktsiyadan foydalaniladi. Ko'pchilik o'quvchitalabalar ilmiy abstraktsiya metodini tezda tushunishmaydi.

Masala va mashqlardan nazariy darslarda foydalanishga ikki nuqtai nazardan yondashish mumkin:

A) Akademik litsey, kasbhunar kollejlardagi iqtisodiyotni nazariy jihatdan o'rganadigan fanlar: "Iqtisodiy bilim asoslari"; "Iqtisodiyot asoslari", oliy o'quv yurtlarida



o'rganiladigan «Iqtisodiyot nazariyasi» fanlarini o'rganishda masala, mashqlardan foydalanish.

B) Barcha iqtisodiy fanlardan nazariy dars o'tishda masala, mashqlardan foydalanish. Masala, mashqlar uchun quyidagi qoidalar umumiy hisoblanadi:

1. Nazariy darslarda masala, mashqlardan foydalanish me'yorini bilish zarur.

Masala, mashqlardan keragidan ortiq foydalanilsa, nazariy masalalarni yoritishga vaqt etmay qoladi.

2. Ma'ruza darsi uchun qisqa vaqtda echiladigan masala tuzgan yoki tanlagan ma'qul.

3. Ma'ruzada qo'yilgan masala, mashqni oxirigacha yechish shart emas. Ba'zan masalamashqni maruza jarayonida boshlab, mustaqil ravishda davom ettirishni talabalarga topshirish mumkin. Ma'ruza jarayonida o'qituvchi masala, mashqni doskada yoki og'zaki shaklda yechishi mumkin. Ularni oldindan ko'rgazmali qurol yoki tarqatma material sifatida tayyorlanadi.

Masalan, firma faoliyati va uni baholashni o'rganishda foydaning qanday taqsimlanishini ko'rsatuvchi masalani yechish mumkin:

Firmaning o'z mahsulotlarini sotishdan olgan tushumi 4,5 million so'm. Mahsulotni tayyorlash uchun sarflangan umumiy xarajatlar 4 million so'mni tashkil etadi. Olingan foydaning 18 foizi soliqqa, qolgan yarmi dividendga to'lanadigan bo'ldi. Foydaning qolgan qismini 50 foizi ishlab chiqarishni kengaytirish uchun sarflanadigan bo'ldi. Foyda normasini, soliq va dividend miqdorini, investitsiyaga ajratilgan mablag' miqdorini hisoblang.

Bu masalani yechish o'quvchi, talabalarga foyda, dividend va boshqa tushunchalarni puxta o'zlashtirishlariga yordam beradi.

Dars jarayonida birinchi navbatda foyda miqdorini aniqlash zarur,

$4,5 \text{ mln. so'm} - 4 \text{ mln. so'm} = 0,5 \text{ mln so'm, so'ngra:}$

foyda normasi  $0,5 \text{ mln so'm} / 4 \text{ mln so'm} \times 100\% = 12,5\%$  ga teng.

soliqqa  $0,5 \text{ mln so'm} (500 \text{ ming so'm}) \times 18\% / 100\% = 90 \text{ ming}$

so'm.

dividendga  $(500 \text{ ming so'm} - 90 \text{ ming so'm}) / 2 = 205 \text{ ming so'm}$  ishlab chiqarishni kengaytirish uchun esa,

$205 \text{ ming so'm} \times 50\% / 100\% = 102,5 \text{ ming so'm}$

Hisoblarni bajarish jarayonida foyda normasini o'qituvchi tushuntirib beradi. Qolgan hisoblarni talabalarining o'zlari bajarib, boshqa tushunchalarni mazmuni eslatib o'tiladi. Bu yerda talabalar diqqatini bilvosita (egri) soliqlarga ham qaratib o'tish zarur.

Qaysi mavzuda, qanday tarzda masaladan foydanishni o'qituvchi hal qiladi.

4 Ma'ruza jarayonida qo'llaniladigan masala, mashqlar doimo real ma'lumotlar asosida bo'lishi shart emas. Unda shartli raqamlardan foydalanish mumkin.

Masalan, doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarning farqini ko'rsatish uchun quyidagicha masala tuzish mumkin:

Tikuvchilik kichik korxonasida oy davomida 200 dona erkaklar ko'ylagi tikildi. Tikish uchun quyidagi xarajatlar qilindi.

Xom ashyo xarajatlari 300 000 so'm. Energiya xarajatlari 40 000 so'm. Asbob-uskunaning amortizatsiya to'lovlari 100 000 so'm. Transport yollash uchun xarajatlar 30 000 so'm. Ish haqi va ijtimoiy sug'urta xarajatlari 150 000 so'm. Ijaraga olingan xona uchun to'lanadigan haq 20 000 so'm.

Umumiy, ko'ylak tikish uchun o'rtacha, doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar ulushini hisoblang.

Bunda umumiy xarajatlar doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarning yig'indisiga teng.

Masalamiz bo'yicha doimiy xarajatlar amortizatsiya to'lovlari va ijara haqidan iborat bo'lib,  $100\,000 + 20\,000 = 120\,000 \text{ so'm}$ ; Qolgan xarajatlar esa o'zgaruvchan xarajatlar bo'lib,  $300\,000 + 40\,000 + 30\,000 + 150\,000 = 520\,000 \text{ so'm}$  ga teng;

Umumiy xarajatlar esa  $120\,000 + 520\,000 = 640\,000 \text{ so'm}$ ;

o'rtacha xarajatlar = umumiy xarajatlar / tikilgan ko'ylak soni  
 $= 640\,000 / 200 = 3200 \text{ so'm}$

Doimiy xarajatlar umumiy xarajatlarning  $120\,000 : 640\,000 = 0,1875$  yoki 18,75% iga teng;



O'zgaruvchan xarajatlar esa  $100 - 18,75 = 81,25\%$  ga teng.

Bu masala o'quvchi, talabalarning umumiy, o'rtacha, doimiy, o'zgaruvchan xarajatlarning mazmunini o'zlashtirishlariga yordam beradi.

5. Ma'ruzada berilgan masala oddiy bo'lishi, ma'ruzani murakkablashtirmasligi, nazariy qonun-qoidalarini puxta o'zlashtirishlarini hisoblar, raqamlar orqali mustahkamlashga xizmat qilishi kerak.

6. O'rganilayotgan mavzu, nazariy qonunqoidalar keng ko'lamda real faktlar dalillarni talab qilsa, bunda rasmiy ma'lumotlar asosida tuzilgan jadval yordamida bajariladigan masala, mashqlar qo'l keladi. O'qituvchi savolni tushuntirish jarayonida statistik ma'lumotlarni tahlil qilib, talabalarni nazariy fikrlashga o'rgatadi. Amaliy tavsiyalar beradi.

#### **Amaliy darslarda masala, mashqlardan foydalanish va ularni takomillashtirish**

Amaliy mashg'ulotlarda o'quvchi, talabalarga individual yondashishning imkoniyati katta. Ularda u yoki bu turdagi qiyinchilik kelib chiqsa, o'qituvchining tushuntirishi, ayrim nazariy qoidalarini aniqlashtirishi, yo'lyo'riq ko'rsatishi orqali tezda yordam berib yuborish mumkin bo'ladi.

Amaliy mashg'ulotlarda masala va mashqlardan foydalanish metodlariga uch xil yondashuv mavjud.

Nisbatan eng ideal varianti bo'lib, amaliy mashg'ulotda nazariy savollarni muhokama qilib bo'lgach, masala, mashq yechib, nazariy bilimni mustahkamlash hisoblanadi. Bunda o'quv rejasi bo'yicha ajratilgan dars soati imkon berishiga qaraladi.

Masalan, ish bilan bandlik, ishsizlik va uning shakllarini muhokama qilib, nazariy bilimni mustahkamlash maqsadida quyidagi masalani yechish mumkin.

Mamlakatda ishsizlikni tabiiy me'yori 5 foiz deb qabul qilingan. Mehnat resurslari 12 million kishi. Friksion ishsizlar 0.5 mln. kishi, tarkibiy ishsizlar 0.3 mln. kishi, doimiy ishsizlar 0.1 mln. kishi, yashirin ishsizlar 0.6 mln. kishi bo'lsa, ishsizlikning amaldagi me'yori tabiiy me'yordan qanday farq

qiladi? Hisoblang, hukumat qaysi ishsizlik shakliga alohida diqqat qaratib, uni kamaytirish chora-tadbirlarini belgilashi kerak?

#### **Javob:**

Haqiqatda jami ishsizlar  $0.5 + 0.3 + 0.1 + 0.6 = 1,5$  mln. kishi; lekin rasmiy ravishda ishsizlik darajasini hisoblaganda doimiy va yashirin ishsizlikni hisobga olinmaydi, ya'ni ular ishsizlar kategoriyasiga kirmaydi. Shuning uchun rasmiy ravishda ishsizlar  $0. + 0.3 = 0.8$  mln kishi.

Ishsizlik darajasi  $0.8/12 = 0.067$  yoki  $6.7\%$  ga teng.

Ishsizlik darajasi belgilangan tabiiy ishsizlik darajasidai  $6.7\% - 5\% = 1.7\%$  ga ortiq. Davlat tarkibiy ishsizlikni kamaytirishga e'tibor qaratishi kerak. Ular o'z kasblarini mamlakatdagi talabga moslashtirishlari uchun sharoit yaratish zarur.

2. Masala va mashqlardan foydalanishning ikkinchi metodi ulardan nazariy muammoni, qonunlarni o'rganish jarayonida foydalaniladi.

O'quvchi-talabalar tomonidan nazariy savolni o'zlashtirish qiyin kechsa, masalani yechish yordamida oson bo'ladi.

Bu masalaga iqtisodiy fanlarni o'rganishda ikki nuqtai nazardan qarash mumkin: birinchisi, ob'ektiv iqtisodiy qonunlarni o'rganish jarayonida;

Ikkinchisi, mamlakatda qabul qilingan iqtisodiyotga tegishli yuridik qonunlar, Prezident farmonlarini o'rganish jarayonida.

Masalan, o'quvchitalabalar tomonidan o'zlashtirish qiyin bo'lgan iqtisodiy ko'rsatkichlar, me'yoriy ko'rsatkichlar hisoblanadi. Uning ma'nosini me'yoriy ko'rsatkichni hisoblashga qaratilgan masala, mashqlar yordamida tushunish oson.

Buning uchun o'qituvchi quyidagicha masala tuzishi yoki tanlashi mumkin:

Firmaning doimiy xarajatlari 45 ming so'm. O'rtacha o'zgaruvchan xarajatlar mahsulot ishlab chiqarish hajmining



o'zgarishiga ko'ra quyidagicha:

| Ishlab chiqarish hajmi, dona | O'rtacha o'zgaruvchan xarajatlar, ming so'm |
|------------------------------|---------------------------------------------|
| 1                            | 17                                          |
| 2                            | 15                                          |
| 3                            | 14                                          |
| 4                            | 15                                          |
| 5                            | 19                                          |
| 6                            | 29                                          |

O'rtacha, umumiy va me'yoriy xarajatlarni hisoblang.

Firma haftasiga qancha mahsulot ishlab chiqarsa, xarajatlar eng kam bo'ladi?

Nima sababdan o'rtacha xarajatlar avval pasayib, so'ngra ortib ketadi?

O'qituvchi, auditoriyaga murojaat qilib, kelinglar, masalani birgalikda yechib, ana shu savollarga javob beramiz, deydi.

Masala shartlari bo'yicha yechimi ko'rinarli, taqqoslash oson bo'lishi uchun uni jadval orqali ifodalaymiz.

Jadvalimiz quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

| Ishlab chiqarish hajmi, dona | O'rtacha o'zgaruvchan xarajatlar, ming so'm | O'rtacha umumiy xarajatlar, ming so'm | Umumiy xarajatlar, ming so'm | Me'yoriy xarajatlar, ming so'm |
|------------------------------|---------------------------------------------|---------------------------------------|------------------------------|--------------------------------|
| 1                            | 17                                          |                                       |                              |                                |
| 2                            | 15                                          |                                       |                              |                                |
| 3                            | 14                                          |                                       |                              |                                |
| 4                            | 15                                          |                                       |                              |                                |
| 5                            | 19                                          |                                       |                              |                                |
| 6                            | 29                                          |                                       |                              |                                |

Umumiy xarajatlarni topishimiz uchun doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarni topishimiz kerak. Biz doimiy xarajatlarni bilamiz. U 45 ming so'm. O'zgaruvchan xarajatlar birinchi mahsulotni ishlab chiqarganda 17 ming so'm, umumiy xarajamiz  $45 + 17 = 62$  ming so'm. Me'yoriy xarajat yo'q, ya'ni

0, Chunki me'yoriy xarajatlar har bir qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish uchun qilingan qo'shimcha xarajatdir.

Uni quyidagi formula bo'yicha topamiz.  $MS = TS_{n+1} - TS_n$ , ya'ni me'yoriy xarajatlar keyingi + 1 ta mahsulot uchun qilingan xarajatlardan avvalgi xarajatlarni ayirib, topiladi. Misolimizdagi birinchi mahsulot uchun me'yoriy xarajat yo'q yoki uni shartli ravishda 0 ga teng deyishimiz mumkin.

Endi 2 ta mahsulot ishlab chiqarganda doimiy xarajamiz 45 ming so'm, o'zgaruvchan xarajamiz  $15 \times 2 = 30$  ming so'm. Umumiy xarajamiz  $45 + 30 = 75$  ming so'm.

Me'yoriy xarajalarimiz esa  $7562 = 13$  ming so'm, ya'ni avvalgi bitta mahsulotimizga yana bir dona mahsulot qo'shilganda, jami ishlab chiqargan mahsulotimiz 2 ta, mahsulotga sarflangan umumiy xarajatlardan bitta mahsulot uchun ya'ni  $(n_1) = 21 = 1$  sarflangan xarajatlarni ayirib tashlasak, 13 ming so'm bo'ladi.

Bu erda o'rtacha umumiy xarajatlar  $75:237,5$  ming so'mga teng bo'ladi. Endi 3 ta mahsulot ishlab chiqargandagi xarajatlarni hisoblaymiz deb, o'qituvchi o'quvchitalabalarga masalaning davomini ishlashni topshirishi mumkin. Yoki doskaga bir talabani chiqarib, boshqa talabalar ham o'zlari ishlashlari mumkinligi, kim tez va to'g'ri echsa, baholanishini eslatish mumkin.

Masala yechib bo'linganda, jadvalimiz quyidagicha ko'rinishni oladi.

| Ishlab chiqarish hajmi, dona | O'rtacha o'zgaruvchan xarajatlar, ming so'm | O'rtacha umumiy xarajatlar, ming so'm | Umumiy xarajatlar, ming so'm | Me'yoriy xarajatlar, ming so'm |
|------------------------------|---------------------------------------------|---------------------------------------|------------------------------|--------------------------------|
| 1                            | 17                                          | 62                                    | 62                           |                                |
| 2                            | 15                                          | 37,5                                  | 75                           | 13                             |
| 3                            | 14                                          | 29                                    | 87                           | 12                             |
| 4                            | 15                                          | 29,25                                 | 105                          | 18                             |
| 5                            | 19                                          | 28                                    | 140                          | 35                             |
| 6                            | 29                                          | 36,5                                  | 219                          | 79                             |



Ko'rinib turibdiki, me'yoriy xarajatlarimiz uchinchi mahsulotgacha pasayib, to'rtinchi mahsulotdan boshlab, ko'tarilgan. O'rtacha umumiy xarajatlarimiz esa, to'rtinchi mahsulot ishlab chiqarishda eng past 26,25 ming so'mga teng. Demak, firma haftasiga 4 ta mahsulot ishlab chiqarsa, mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajat eng past darajada bo'lar ekan. O'rtacha xarajatlarimizni avval pasayib, so'ngra ortib ketishiga sabab, dastlab, me'yoriy xarajatlarimiz pasayib bordi, so'ngra esa, ortib ketdi. Buning natijasida o'zaruvchi xarajatlarimiz ham ortib ketadi.

Shuning uchun ham, mahsulot ishlab chiqarish hajmini belgilaganda me'yoriy xarajatlarni o'zgarishiga e'tibor qaratishimiz kerak.

3. Savolni nazariy jihatdan amaliy darsda muhokama qilib o'tirmay, masala, mashq yechib qo'ya qolish kerak. Buning uchun masala, mashq uyga vazifa sifatida berib o'tirilmaydi. Masala yechish natijasida nazariy savolni chala o'rganiladi, degan xavotirga tushish noo'rin, chunki masala yoki mashqni tahlil qilish jarayonidagi muloqot, aksincha, nazariy qonunqoidalarini chuqurroq o'rganishga, uni mazmuniga tushunishga yordam beradi.

Masalan, talab va taklif qonunini o'rganganda, uni nazariy jihatdan muhokama qilib o'tirmay, masala, mashq yechish orqali nazariy xulosaga kelish maqsadga muvofiq.


O'qituvchi bunda quyidagicha masala tanlashi mumkin.

Kun davomida bir kilogrammi 400 so'mdan 200 kg qulupnay sotildi. Ertasiga ko'proq foyda olish maqsadida qulupnayning narxi 600 so'm qilib belgilandi. Natijada atigi 100 kg sotildi xolos. Buning ustiga, kechga tomon qulupnay ko'payib ketdi. Qulupnayni sotilmay qolib ketishidan qo'rqib, 250 so'm narx qo'yildi. Natijada 380 kg qulupnay sotilib, yana 5 kg. dan olmoqchi bo'lgan 4 ta xaridorga etmay qoldi.

Qulupnayga talabni jadval, grafik tarzida tasvirlang va uni narx bilan bog'lanishini tushuntiring. U qanday qonunni amal qilishini ifodalaydi, izohlang. Uni ko'rsatish uchun qanday metodlarni qo'lladik, so'zlab bering.

Javob: Qulupnayning narxga bog'liq ravishda talab miqdori jadval va grafik ko'rinishida quyidagicha bo'ladi:

| Qulupnay narxi, kg/so'm (R) | Qulupnayga talab, kg (Q) |
|-----------------------------|--------------------------|
| 250                         | 400                      |
| 400                         | 200                      |
| 600                         | 100                      |



Narx bo'yicha talab miqdorini belgilangan nuqtalarini birlashtirib, chizib chiqsak, talab egri chizig'i hosil bo'ladi. Bu egri chiziq talab qonuni amal qilishini ko'rsatadi. Narx ko'tarilgan sari talab ortadi. Tovar qancha qimmat bo'lsa, shuncha kam miqdorda xarid qilinadi. Bu sababoqibatli, funktsional bog'lanish talab qonunini ifodalaydi. Matematik nuqtai nazardan qarasak, tovar va xizmatlarga bo'lgan talab ularning narxi bilan teskari proportsional bog'lanishda bo'ladi. Talab qonunini o'rganganda ilmiy abstraktsiya, matematik modellashirish metodlaridan foydalandik. Ilmiy abstraktsiya metodi yordamida talabga narxdan boshqa omillar ta'sir etmaydi, deb oldik. Matematik metoddan foydalanib, talab va narxni bog'lanishini jadval ko'rinishida, grafik tarzidagi talab egri chizig'ini chizib, modelda ifodaladik.

Masalani yechib, nazariy jihatdan qo'yilgan savollar muhokama qilib bo'lingach, o'qituvchi auditoriyaga murojaat qilib: «ana shu jadval raqamlari, ya'ni kishilarning narxi tushgan tovarni xarid qilishini ko'paytirish imkoni nima deb ataladi?» deb murojat qilishi mumkin. Talabalar «daromad effekti» deb ataladi



deyishi mumkin. Agar to'g'ri javob bo'lmasa, o'qituvchi o'quvchi, talabalarni ana shu fikrga yo'naltirishi kerak. Bundan tashqari, o'rin bosish effekti mavjudligi, u odamlarni narxi qimmat tovar o'rniga nisbatan arzonroq, boshqa tovar sotib olishida ifodalishini, masalan, murabbo qilish uchun qulupnayning o'rniga olcha olinishini ko'rsatish mumkin.

O'qituvchi auditoriyaga: «mana shu qonunda ifodalangan vaziyatni inkor qiluvchi holat bo'lishi mumkinmi?» deb savol tashlab, bunday hol yuz berishi mumkinligi, iqtisodiyotda bunday vaziyat Giffen effekti deyilishi, bunday tovarlar Giffen tovarlari deb atalishi haqida javob olishga harakat qilishi zarur.

Masalan, tovarlarning sifati yaxshi, qancha narxi ortishiga qaramay, talab ortadi, kambag'al oilalar, aytaylik, kartoshkaning narxi ortishiga qaramay, go'shtga nisbatan arzon bo'lgani uchun uni ko'proq sotib olishi mumkin.

Bunday masala, mashqlar o'quvchitalabalarni nazariy materialni yuzaki, iqtisodiy kategoriyalarning aloqasini o'zaro bog'lanishiga ahamiyat bermay o'rganishlarining oldini oladi. Ko'pincha uning ma'nosi, ijtimoiy mazmuniga e'tibor bermay o'rganishadi.

Masalani yechish esa ularni darsliklardan mexanik tarzda konspekt qilishning foydasi yo'qligiga ishonch hosil qilishlariga olib keladi. Chunki masalani yechish u yoki bu iqtisodiy kategoriya, qonunlarni quruq yodlash kamlik qilishini ko'rsatadi. Miqdoriy bog'lanish, birbirini taqozo qilishi, ular asosida xulosa chiqarish uchun bilish, tushunish, tahlil qilish, taqqoslash, o'z bilimidan foydalana bilishni zarur qilib qo'yadi. Shuning uchun ham imkoni bo'lganda, nazariy qoidalar, muammolarni o'rganishda masala, mashqlardan foydalanish talabalarni mazkur mavzuni puxta o'zlashtirishlariga yordam beradi va ularning faolligini oshiradi.

Auditoriyada masala yechishni turlicha usulda amalga oshirishi mumkin.

**Birinchi yo'l.** Masala, mashq barcha o'quvchi, talabalar tomonidan individual tarzda echiladi. O'qituvchi masala, mashqni yechish uchun murakkabligi darajasi, tahlil qilish,

baho berish, xulosa chiqarishini hisobga olgan holda ma'lum vaqt beradi. O'z vaqtida to'g'ri echilishi va berilgan

topshiriq bo'yicha masalani izohlashiga qarab, ball berishini e'lon qiladi. Kim yechib bo'lsa, qo'lini ko'tarib yechib bo'lganini bildiradi. O'qituvchi uning javobiga qarab, ball qo'yadi.

**Ikkinchi yo'li.** Masala kichik guruhlariga bo'lib beriladi. Kichik guruh uni mukohama qilib, echadi va guruhdan bir kishi kichik guruh nomidan javob beradi.

**Uchinchi yo'li.** Bir o'quvchitalaba doskaga chiqib, echadi. Qolganlar o'zi yechishi hamda doskada masalaning echilishini kuzatib, noto'g'ri bo'lsa, tezda o'z fikrini bildirishi lozimligi uqtiriladi. Agar doskada masala echayotgan talaba adashsa, uni to'xtatib, boshqa talabani masalani yechish bo'yicha fikrini tinglab, to'g'ri yechishni ko'rsatib berishi taklif etiladi. Talabalarning faoliyatiga ko'ra ball beriladi.

**To'rtinchi yo'l.** Masala, mashq yechishni uyga vazifa qilib berish mumki. Amaliy mashg'ulotda uning javobi muhokama qilinib, xulosa chiqariladi.

### **Masala va mashqni tuzish va iqtisodiy fanlarni o'rganishda qo'llash**

O'quv jarayonida masalamashqlarni qo'llash uchun ularni mavzular bo'yicha tuzish lozim. Masala tuzishda duch kelinadigan an'anaviy qiyinchiliklar mavjud:

**Birinchi dan,** masalaning shartlarini turlicha izohlashga olib kelishga yo'l qo'yilmaydigan qilib aniq bo'lishiga erishish oson emas. Ayniqsa, mumkin bo'lgan variantlari bir necha xil bo'lib, ularning ichidan nisbatan u yoki bu mezonga ko'ra, eng optimal variantlarni topish sharti qo'yilgan masalalarda ehtiyot bo'lish kerak. Sababi, masalalarning sharti aniq qo'yilmasligi natijasida talabalar masala tuzuvchi ko'zda tutmagan masalalar echimi, variantlarini taklif qilishi hamda u masala shartiga, umuman olganda, mos kelishi mumkin ekan. U holda o'qituvchi qiyin ahvolda qoladi. Masalani aniq javobini to'g'ri deb topib, talabalarni rag'batlantirish yoki shartni noaniqligidan foydalanib, ko'zda tutilmagan, lekin to'g'ri yechish yo'lini topgan talabaga eng yuqori ball qo'yish lozim.



Undan tashqari bir javobning o'zini bir necha usul bilan olish mumkin. O'qituvchi buni ham oldindan aniqlab qo'yishi kerak, ya'ni masalani qaysi yo'l bilan echgan eng yuqori ball oladi.

**Ikkinchidan,** iqtisodiy fanlardan echiladigan masalalar matematik hisobkitoblarni talab qiladi. O'qituvchi masala tuzar ekan, talabani matematikadan emas, iqtisodiy fanlardan bilimini sinash lozimligini yoddan chiqarmasligi kerak. Shuning uchun yaxshi iqtisodiy masala u yoki bu iqtisodiy tushunchalarning mazmunini chuqur o'rganishga undashi, masalani yechishi uchun zarur darajada fanga doir tushuncha bo'lishi zarurligini taqozo qilish kerak. Matematik hisobkitoblar esa yordamchi ahamiyatiga ega bo'lishi zarur.

Praktika shuni ko'rsatadiki, masalalarni tuzish uchun o'qituvchi faol tajriba, malaka, mohirlikka ega bo'lishi lozim.

Qo'yilgan shartga binoan murakkabligiga ko'ra, masalalarni uch guruhga bo'lish mumkin: 1. Ma'lum bir kategoriya, tushunchani asosiy mazmunini bilishga qaratilgan;

2. Ma'lum bir tushuncha asosida hisobkitob qilish, undan xulosa chiqarishga qaratilgan;

3. Masalani yechish uchun mazkur kategoriya haqida umumiy tushuncha bo'lishini talab qiladigan masalalar.

Qanday masalani yechishni o'qituvchi o'tilayotgan mavzu, guruhdagi talabalarning individual xususiyatlaridan kelib chiqib, tanlaydi.

Ma'lum bir kategoriya, tushunchani asosiy mazmunini o'rganishga qaratilgan quyidagi masalani ko'rib chiqaylik.

1. Quyidagi jadvalda tovar ishlab chiqarish uchun kapital va mehnat xarajatlarini hamda mahsulot TR miqdorini o'zgarishi berilgan.

Berilgan ma'lumotlar asosida:

A) Mehnat xarajatlarini (ishlovchilar soni) o'zgarishi bilan me'yoriy mahsulot hajmi qanday o'zgargan, hisoblang. Nechanchi ishchini ishga yollagandan so'ng me'yoriy mahsulot kamaya boshlaydi?

B) Har bir qo'shimcha ishchini yollagandan so'nggi

o'rtacha mahsulot (AR) hajmini hisoblang. Qachon o'rtacha mahsulot maksimal darajaga etadi?

V) Ishlab chiqarish bilan band bo'lganlarning soniga ko'ra, umumiy mahsulot (TR), o'rtacha (AR) va me'yoriy (MR) mahsulotning o'zgarish grafigini chizing.

G) Me'yoriy umumdorlik (daromad)ni pasayib borishi qonuni amal qilishini tushuntiring. Uning fazalarning ko'rsating.

| Kapital xarajatlari (K) | Mehnat xarajatlari (L) | Me'yoriy mahsulot (MR) | Umumiy mahsulot (MR) | O'rtacha mahsulot (AR) |
|-------------------------|------------------------|------------------------|----------------------|------------------------|
| 10                      | 0                      |                        | 0                    |                        |
| 10                      | 1                      |                        | 20                   |                        |
| 10                      | 2                      |                        | 54                   |                        |
| 10                      | 3                      |                        | 100                  |                        |
| 10                      | 4                      |                        | 151                  |                        |
| 10                      | 5                      |                        | 197                  |                        |
| 10                      | 6                      |                        | 230                  |                        |
| 10                      | 7                      |                        | 251                  |                        |
| 10                      | 8                      |                        | 234                  |                        |

**Masalani yechish:**

A) Me'yoriy mahsulot  $MR = TR_n - TR_{n-1}$   $MR_2 = 5420 - 34$

$MR_3 = 10054 - 46$ , xuddi shunday tarzda qo'shimcha ishchilarni ortib borishi bilan me'yoriy xarajat miqdorini hisoblaymiz. Jadvalda MR ustunda ko'rinib turibdiki, beshinchi ishchidan boshlab me'yoriy mahsulot pasayishni boshlagan. To'rtinchi ishchida 51, beshinchida 46 (jadvalga qarang).


B) O'rtacha mahsulotni har bir ishchi qo'shilganidan keyin topamiz. Masalan, ikkinchi ishchi qo'shilganda,  $AR = TR / 2 = 54 / 2 = 27$ . Uchinchi ishchi qo'shilganda  $100 / 3 = 33$  va hokazo. Maksimal o'rtacha mahsulot darajasiga beshinchi ishchi ishga qabul qilinganda erishiladi. Umumiy (yalpi) mahsulotimiz hajmi eng maksimal 251ga ettinchi ishchini qabul qilinganda, erishiladi,  $251 / 7 = 35,9$  (jadvalga karang).



| Kapital xarajatlari (K) | Mehnat xarajatlari (L) | Me'yoriy mahsulot (MR) | Umumiy mahsulot (MR) | O'rtacha mahsulot (AR) |
|-------------------------|------------------------|------------------------|----------------------|------------------------|
| 10                      | 0                      |                        | 0                    | 0                      |
| 10                      | 1                      | 20                     | 20                   | 20                     |
| 10                      | 2                      | 34                     | 54                   | 27                     |
| 10                      | 3                      | 46                     | 100                  | 33                     |
| 10                      | 4                      | 51                     | 151                  | 38                     |
| 10                      | 5                      | 46                     | 197                  | 39                     |
| 10                      | 6                      | 33                     | 230                  | 38                     |
| 10                      | 7                      | 21                     | 251                  | 36                     |
| 10                      | 8                      | 17                     | 234                  | 29                     |

V) Me'yoriy MR, o'rtacha AR, umumiy TR mahsulot quyidagi grafikda ko'rsatilgan.

TP, AP, MP Birinchi Ikkinchi Uchinchi faza faza faza



2) Umumiy mahsulot dinamikasi unumdorlikni pasayib borishi qonuniga bo'ysunadi.

Birinchi fazada me'yoriy unumdorlik MR ( 20, 34, 46, 51 ) o'sib boradi. Natijada TR jadal o'sadi.

Ikkinchi faza – me'yoriy unumdorlikni pasayishi namoyon bo'la boshlaydi ( 51, 46). TR ning o'sish sur'ati sekinlashadi. Me'yoriy mahsulot MR pasayadi, lekin hali musbat miqdorga ega.

Uchinchi faza me'yoriy unumdorlik manfiy natija, ya'ni zarar keltirishini boshlaydi Shunday qilib, TR egri chizig'i o'zining maksimal darajasiga yetgach, pasayishni, me'yoriy mahsulot esa zarar keltirishni boshlaydi.

**Ikkinchi guruhga xos quyidagi masalani yechaylik.**

Berilgan:

Tovarga bo'lgan talab funktsiyasi:  $Q_d = 700 - P$ ;

Taklif funktsiyasi:  $Q_s = 2P - 200$ ;

P tovar narxi, so'm, Q – tovar miqdori, ming dona.

Quyidagilarni hisoblang:

1. Berilganlar asosida tovarning muvozanat bahosi va miqdorini aniqlang.

2. A), B) va V) punktlar birbiriga bog'liq bo'lmagan vaziyatlarda:

A) davlat organlari tomonidan tovarga 200 so'm miqdorida baho belgilab qo'yildi. Taklif miqdorini, sotilgan tovar va taqchilik miqdorini aniqlang.

B) ishlab chiqaruvchilarga har bir sotilgan tovar uchun 150 so'm miqdorida dotatsiya belgilandi. Tovarning muvozanat narxi va miqdorini aniqlang.

V) har bir tovarga 150 so'm miqdorida egri soliq (qo'shilgan qiymat) belgilandi. Yangi muvozanat narxini hisoblang.

3. O'rganilayotgan kategoriya haqida umumiy tushuncha bor, lekin uni mazmuniga tushunib etishga yordam beradigan quyidagi masalani ko'rib chiqaylik.

Aytaylik, Erkinjon korxonada tsex boshlig'i lavozimida ishlab, yiliga 600 ming so'm maosh olardi. Bankda 1200 ming so'm puli bo'lib, yiliga 14% daromad keltiradi.

U xususiy biznes bilan shug'ullanishga qaror qildi va barcha jamg'argan pulini sarflab, kichik korxona ochdi. Birinchi yilning oxirida buxgalteriya hisobi ko'rsatdiki, hamma qilingan xarajatlarni olingan daromaddan ayirib tashlagach 660 ming so'm foyda qolibdi. Bir hisobchi, buxgalteriya hisobkitobiga ko'ra foydangiz sarflagan 1200 ming so'mlik investitsiyangizga nisbatan 55% tashkil etadi. Bu yaxshi dedi.



Ikkinchi, iqtisodiyot nazariyasini chuqur o'rgangan buxgalter unga, albatta, xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanish tavakkalchilik xatari bilan bog'liq. Foyda olmay zarar ko'rishingiz ham mumkin edi. Lekin biznesda "omad"ingiz bor ekan deb ayta olmayman.

Chunki sizni real iqtisodiy foydangiz 108 ming so'm. Bu esa investitsiyangizga nisbatan -9% tashkil etadi, dedi. Buxgalterlardan qaysi biri haq?

**Yechish:**

1. Muvozanatga erishish uchun talab va taklif teng bo'lishi kerak. U holda  $700 - R = 2R$  200. Undan:  $3R = 900$ ;  $R = 300$ ;

Muvozanat narxini talab yoki taklif tenglamasiga qo'yib, tovarning muvozanat miqdorini topamiz.  $Q_d = 700 - 300$ ;  $Q_d = 400$  yoki  $Q_s = 300 \cdot 2 - 200 = 400$ ;

Javob: muvozanat narxi **300 so'm**, muvozanat miqdori **400 ming dona**.

2. A) davlat tomonidan belgilangan narx (200 so'm) ni tenglamaga qo'yamiz. Talab miqdori  $Q_d = 700 - 200$ ;  $Q_d = 500$  ming dona.

Taklif miqdorini ham shunday tarzda formulaga qo'yib, topamiz.  $Q_s = 2P - 200$ ; shuning o'zi sotilgan tovar hajmini ko'rsatadi.

$Q_s = 2 \times 200 - 200$ ;  $Q_s = 200$  ming dona.

Talab hajmidan taklif miqdorini ayirib taqchillik miqdorini topamiz.  $500 - 200 = 300$  ming dona

Javob: taklif miqdori **200 ming dona**; tovar **taqchilligi 300 ming dona**;

B) belgilangan dotatsiyani hisobga olganimizda, taklif formulasi  $Q_s = 2(R+150) - 200$ ; ko'rinishini oladi. U holda dotatsiya kiritilgach, muvozanat bahosi  $2(R+150) - 200 = 700 - R$  so'm bo'ladi;

$3R = 700 - 200$ ;  $R = 200$  so'm.

Talab miqdori esa,  $Q_d = 700 - 200 = 500$  ming dona. Taklif hajmi  $Q_s = 2(200+150) - 200$ ;

$Q_s = 700 - 200$ ;  $Q_s = 500$  ming dona.

Javob: **muvozanat bahosi 200 so'm; miqdori 500 ming**

**dona.**

V) egri soliq kiritilgach, taklif formulasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:  $Q_s = 2(R+150) - 200$ ;

Ma'lumki, muvozanat narxning ma'lum darajasida talab bilan taklif tengligini ifodalaydi. U holda  $2(R+150) - 200 = 700 - R$ ;

$2R - 300 - 200 = 700 - R$ ;

$3R = 700 - 500$ ;  $3R = 200$ ;  $R = 400$  so'm;

muvozanat miqdori esa,  $Q_d = 700 - 400 = 300$  ming dona.

Javob: **muvozanat narxi 400 so'm, miqdori 300 ming dona.**

**Javob:**

Albatta ikkinchisi, sababi Erkinjon xususiy biznes bilan shug'ullanishga qaror qilib, olishi mumkin bo'lgan 600 ming so'mlik maoshdan voz kechdi. Undan tashqari 168 ming so'm olishi mumkin bo'lgan foizni ham ololmadi. Ya'ni xususiy biznes bilan shug'ullanishning muqobil qiymati -108 ming so'm zarar bo'ldi.

$(600 \text{ ming so'm} + 168 \text{ ming so'm}) - 660 \text{ ming so'm} = 108 \text{ ming so'm}$ .

Agar biznes bilan shug'ullanishdan "psixologik daromad" olsa, ya'ni unga shug'ullanayotgan ishi yoqsa, Erkinjon buni zarar deb hisoblamasligi ham mumkin.

Demak, **ikkinchi** buxgalter haq.

O'qituvchi masala, mashqlardan foydalanishni rejalashtirar ekan, albatta o'zi darsga puxta tayyorlanishi, tavsiya qilinadigan masala, mashqlarni masala, mashqni yechib, javobini yozib qo'yishi kerak.

Dars jarayonida masalamashqlarni qo'llashdagi yana bir muhim muammo ularni javobini muhokama qilish. Odatda masalamashqning to'g'ri javobini aytib qo'ya qolinadi. Vaholanki, talabani yodida qolishi, mavzuni puxta o'zlashtirishi, hisobkitobni to'g'ri bajarishida masalaning javobini muhokama qilish muhim ahamiyatga ega.

Shuning uchun o'qituvchi masalani javobini muhokama qilishga e'tibor qaratishi zarur. Vaqt etishmaydigan bo'lsa, masalamashq yechishni uyga vazifa qilib berib, darsda uni



to'g'ri echilganligini muhokama qilish mumkin.

### **Testlar, ularni tuzish, o'tkazish va javoblarini muhokama qilish**

Talabalarining puxta bilim olishlari, ularning olgan bilimlarini tekshirishdagi qator afzalliklarini hisobga olib, keyingi paytda keng qo'llanilayotgan mashq turi **test hisoblanadi. Test yechish** nihoyatda keng qo'llanilishi sababli alohida metod sifatida qaraladigan bo'ldi.

Mavzuni o'rganishda testlardan foydalanish, ayniqsa, guruhda test o'tkazilgach, uning javoblarini muhokama qilish alohida ahamiyatga ega.

Test tuzish ko'p vaqt va mehnat, sinchkovlik, sabrtoqatni talab qiladi.

Shu bilan birga, mehnatni osonlashtiradigan kompyuter dasturlari TESTER, RESUJTER mavjud. Birinchi dastur ko'proq test tuzishni osonlashtirishga qaratilgan bo'lsa, ikkinchisi test o'tkazish va natijalarini tezda hisobkitob qilish, statistik ma'lumotlar olishga qaratilgan. Test savollari tuzishda, amerikalik pedagoglarning ko'rsatishicha o'qituvchi quyidagilarga ahamiyat berishi lozim:

1. Ko'zlangan maqsadga ko'ra, savolni aniq qo'yish kerak.
2. Testda faqat bitta javob to'g'ri bo'lishi kerak.
3. Javoblarni biri biriga o'xshash bo'lishi va haqiqatga yaqin bo'lgani ma'qul.
4. Testda iloji boricha inkor etuvchi fe'l va boshqalardan foydalanmaslikka harakat qilish lozim (Masalan, yuqoridagi ko'rsatmalardan nima imkon bermaydi? va hokazo ...).
5. Yuqorida ko'rsatilganlarning hammasi (yoki yuqorida ko'rsatilganlardan hech biri) kabi ta'riflarni iloji boricha ishlatmaslik zarur.
6. Bir necha komponentlar (aytaylik, A va S) ni mujassamlashtirgan javoblarni iloji boricha kam ishlatish, ishlatganda, test kimlar uchun tuzilayotganiga ahamiyat berish maqsadga muvofiq;
7. To'g'ri javob doimo bir joyda (doimo A yoki doimo B) bo'lishi kerak emas;
8. Savollar va javoblar grammatik jihatdan

o'zaro mos, muvofiq bo'lishi kerak.

**Ob'ektiv testlar.** Testlarni ob'ektiv deyilishiga sabab, unga to'g'ri javob bor, uni sub'ektiv jihatdan baholashni istisno qiladi.

Undagi savollar ko'pincha dalillar, aniq axborotlarni yodga tushirishga qaratilgan. Ob'ektiv test savollari Blum taksonomiyasining ikkinchi bosqichidagi fikrlash doirasiga to'g'ri keladi. Ular fikrlashni yuqori darajada baholashga imkon bermaydi, lekin ularni fikrlashning yuqori bosqichiga to'g'ri keladigan qilib tuzish mumkin. Ular tatbiq qilish, tahlil qilish darajasiga mos keladigan murakkablikda bo'lishi mumkin, lekin bunday savol tuzish qiyin.

**Ob'ektiv testlarning afzallik tomonlari va kamchiliklari.** Ob'ektiv testlarning afzalligi ularni ko'p savollarni qamrab olishidir. Shu tufayli barcha mavzular bo'yicha talabalar bilimini tekshirish imkonini beradi. Bilim olish, tushunish uchun samarali uslub juda qo'l keladi.

Ob'ektiv testlarni asosiy kamchiliklaridan biri qo'yilgan savollarni tor doirada qamrab olishidir. Talabalardan esa keng tasavvurga ega bo'lish talab qilinadi.

Testlarni o'qish va talabalar bilimini baholashning usuli sifatida qo'llashning muhim tomoni hamda murakkabligi shundaki, aynan nima sababdan shu javob to'g'riligini asoslab berish lozim. Bunda javoblarni ob'ektiv, tushunarli, mantiqan to'g'ri izohlanishiga ahamiyat berish kerak. Test o'tkazilgach, guruhda javoblarni muhokama qilish muhim ahamiyatga ega.

Buni quyidagi test misollarida ko'rib chiqaylik.

1. Resurslar cheklanganligi muammosini quyidagi holatda yechish mumkin: A) odamlar resurslarni asrab avaylab, iqtisod qilib, ishlatishsa;

B) hamma ixtiyoriy ravishda o'z ehtiyojlarini cheklasa;

V) kelajakda, fan va texnika rivojlanishi tufayli tovarlar ishlab chiqarishni etarli darajada ko'paytirish uchun yangi imkoniyatlar ochilsa;

G) bu muammoning cheki yo'q; **Javob muhokamasi:**

Bu testda to'g'ri javob G. Resurslarni nisbatan cheklanganligi barcha ehtiyojlarni qondirish uchun etishmaydi.



Resurslar cheklanganligi muammosi har qanday ijtimoiy – iqtisodiy tizimga xos bo'lib, uni yechib bo'lmaydi. Sababi, biror resursning etishmasligi yoki tugab qolishida emas, balki **resurslarning ehtiyojlarga nisbatan cheklanganligidir.** Shuning uchun bu muammoni resurslarni iqtisod qilish bilan yoki ixtiyoriy ravishda iste'molni cheklash bilan yechib bo'lmaydi. Demak A va B javoblar noto'g'ri. V javob resurslar cheklanganligi muammosi bilan Fantexnika rivojlanishi asosida imkoniyatlarni kengaytirish, ya'ni resurslar topish yoki avval foydalanib bo'lmagan imkoniyatlardan foydalanib, tovarlar ishlab chiqarishni ko'paytirish mumkinligiga qaratilgan.

Javob hozirgi ehtiyojlarni kelajakda qondirish nuqtai nazaridan berilgan. Hozir qondirish qiyin yoki qondirilmagan ehtiyojlarni kelajakda fantexnikaning rivojlanishi natijasida qondirish mumkin bo'ladi. Lekin yoddan chiqarmaslik kerak: kelajakda yana yangiyangi ehtiyojlar kelib chiqadiki, ularni qondirish uchun yana resurslar etishmaydi.

Demak, V ham noto'g'ri.

Yagona to'g'ri javob G, qaysiki bu muammoning adog'i yo'q. Ikkinchi testni ko'raylik.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kompyuterda ishlash uchun dastur tuzuvchilarning ish haqi darajasi, belgilanadi:

A) dastur tuzish malakasiga ega, mavjud ish haqiga rozi, mutaxassislik bo'yicha ishlashga tayyor xizmatchilar miqdori bilan;

B) dastur tuzuvchi mutaxassislarga talab asosida;

V) dastur tuzuvchi mutaxassislarga talab va taklif asosida;

G) mehnat kodeksi va boshqa mehnat bo'yicha qabul qilingan qonunlar asosida. Javob muhokamasi:

Bu testda to'g'ri javob V).

Xizmatchilar bozoridagi vaziyatni talab va taklif egri chizig'i yordamida ko'rsatish mumkin. Vertikal (ordinata) o'qiga dastur tuzuvchilarni ish haqi, gorizonta o'qiga xizmat ko'rsatuvchilar miqdori (bu erda o'lchov birlik odamsoat yoki dastur tuzuvchilar soni bo'lishi mumkin)ni joylashtiramiz.

ma'lum bir ish haqi darajasida belgilanadi. Demak, A

va B javoblar noto'g'ri. Savolda ish haqining o'rtacha darajasi haqida gap ketayapti. Qabul qilingan qonunlar u yoki bu mutaxassislik bo'yicha ish haqi darajasiga ta'sir qilishi mumkin, lekin ish haqi darajasini belgilamaydi.

Shunday qilib G javob ham noto'g'ri. Dastur tuzuvchilarning o'rtacha ish haqi darajasi talab va taklif muvozanatiga bog'liq ekan. Agarda talab ko'p, taklif oz bo'lsa ish haqi darajasi muvozanati nuqtasi yuqorida, ya'ni ish haqi yuqori. Agarda taklif ko'p, talab oz bo'lsa, ish haqi muvozanati nuqtasi pastda, ya'ni ish haqi ham past bo'ladi. Demak, to'g'ri javob, V.

Talabalar bilimini baholashda test muhim o'rin tutadi. Bundan tashqari test boshqa, usullar: masala yechish, referat yozish yoki savolga ogzaki, yoki yozma javob yozish kabilardan **quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi:**

Testlar talabalar bilimini nazorat qilishning ob'ektiv usuli hisoblanadi. Sababi unda o'qituvchi bilan talaba o'rtasida vujudga kelgan munosabatlar hech qanday rol o'ynamaydi va talaba bilimini baholashga ta'sir etmaydi.

Nazorat ishi yoki referatda o'qituvchi talabaning ayrim xatolaridan ko'z yumib, uning bilimini yuqori baholashi yoki aksincha, o'zining sub'ektiv talablarini qo'ygan holda past baholashi mumkin. Testlar bunday xatolikdan xoli.

Testlarni faqat yakuniy nazoratda qo'llash shart emas. Ularni mavzuni boshlashdan avval ham, joriy nazorat, oraliq nazoratda ham qo'llash mumkin.

Testlar talabalar bilimini butun dastur bo'yicha, shuningdek, tor tanlash doirasida alohida ahamiyatga ega yoki an'anaviy o'zlashtirish qiyin tushuncha haqida mavzular bo'yicha nazorat qilish, baholash imkonini beradi.

Testlar talabalar bilimini tez tekshirish imkonini beradi. Chunki butun guruhni bilimini tekshirish uchun juda kam vaqt talab qiladi. Bu, ayniqsa, oraliq testlar o'tkazish uchun qulay, chunki test javoblariga ko'ra o'qituvchi dastur bo'yicha o'z ishini, dars o'tiladigan savollarni ko'rib chiqadi, kelgusida dars o'tishda qaysi savollarga ahamiyat berishni mo'ljallaydi.



Amerikalik mutaxassis Benjamin Blum bilim olish, o'rganishning bosqichli modelini ishlab chiqib, uni olti bosqichga bo'lganini ko'rib chiqqan edik. U bilish, tushunish, tatbiq etish, tahlil qilish, sintez (umumiy xulosa chiqarish), baholashdan iborat edi.

Testlar murakkabligiga ko'ra, ana shu bosqichlarning qaysi darajasiga to'g'ri kelishi bilan farqlanadi. Bunda testlarni taxminan uch guruhga ajratish mumkin:

1. Blum taksanomiyasining birinchi va ikkinchi «bilish va tushunish» bosqichlariga mos keladigan nisbatan uncha murakkab bo'lmagan testlar.

2. Taksanomiyaning ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi va beshinchi «tushunish, qo'llash, tahlil qilish va sintez qilish» bosqichlariga to'g'ri keladigan o'rtacha murakkab testlar.

3. Ko'proq beshinchi va oltinchi «sintez umumiy xulosa chiqarish va baholash» ga to'g'ri keladigan murakkab testlardan iborat.

Ana shu testlarni javobiga ko'ra, talaba, guruh predmetni qanday o'zlashtirgani, bilimi qay darajada ekanligini aniqlash mumkin.

O'qituvchi testlarni murakkabligi darajasiga ko'ra, javoblar uchun vaqtni har bir test uchun 1 daqiqa yoki undan ko'proq belgilashi mumkin. Talabalar testlarga javob berar ekanlar, ularga quyidagilarni uqtirish lozim:

1. Kuzatishlar ko'rsatadiki, ko'pincha birinchi intuitiv javob to'g'ri bo'ladi.

2. Testni har kimning o'zi echgani ma'qul.

Talabalarning bilim olishi va ularni olgan bilimni baholashning usuli sifatida testlarni qo'llashning muhim tomoni, nima sababdan shu javob to'g'riligini asoslab berishdir. Bunda javob ob'ektiv, tushunarli, mantiqan to'g'ri izohlanishiga ahamiyat berish kerak.

#### **Test o'tkazish bo'yicha tavsiyalar**

1. Talabalar test yordamida nimalarni tekshirishini, test o'tkazishdan maqsad nimaligini tushuntirish kerak.

2. Test yechish ko'nikmasini hosil qilish uchun sinab

ko'rish.

3. Test yechish uchun talabalar kayfiyatini ijobiy yo'naltirish.

4. Test faqat o'rganilgan va o'rganilayotgan mavzular bo'yicha o'tkazilishi.

5. Test savollari asosiy kontsepsiya, qonun va tamoyillarni ochib berishga qaratilgan bo'lishi.

6. Testning puxta bo'lib, tez o'tkazilib turilishi.

7. O'tkazilgan testlar tezda tekshirilishi, baholanishi va natijasini e'lon qilinishi.

8. Guruhda test javoblarini muhokama qilinishi.

9. O'qituvchi tuzgan testlariga lozim bo'lsa, tuzatishlar kiritishi kerak.

Testlarning o'ziga xos kamchiliklari ham bor. Test savollarini tuzish ko'p mehnat, vaqt talab qiladi. Shuning uchun keyingi paytlarda o'qituvchilar ko'proq tayyor test savollaridan foydalanishmoqda.

Uning kamchiligi: tavakkal qilib javob topish, talabaning diqqati asosan testga berilgan javoblar doirasida chegaralanib qolishi. Talabaning o'z fikrini bildirish imkoniyati yo'qligi. Talabalarni chuqur fikrlash, taqqoslash, tanlash va qaror qabul qilishga o'rgatishimiz zarur. Shuning uchun testlar boshqa o'quv metodlari, talabalar bilimni baholash shakllari bilan birgalikda qo'llanilgani ma'qul.

#### **Iqtisodiy fanlardan esse yozish va esse uchun savollar tuzish**

Ma'lumki, oliy o'quv yurtini bitirgan mutaxassis berilgan topshiriqni bajarganligi, qilingan ishlar va erishilgan natija, mavjud kamchiliklar va ularni bartaraf qilish yo'llari bo'yicha yozma hisobot bera olishi kerak. Shuningdek, xizmat xati, raport, hisobot, turli muassasa, tashkilotlar o'rtasida yozishmalar, firma, korxona va boshqalar bilan shartnoma kabilarni yozishni bilishi kerak.

Talabalar bo'lg'usi mutaxassis sifatida o'z fikrlarini bayon qilishni, yozma ravishda ifodalashni ham o'rganishlari kerak. Ayniqsa, iqtisodiy sohada yozma hisobot, turlituman



tashkilotlar, firma, korxonalar bilan biznes bo'yicha sheriklar o'rtasida turlituman yozishmalar, xatlar, bildirishnomalar, xizmat yuzasidan aloqalarga tegishli takliflar, tavsiyalar va boshqa yozma hujjatlarni tayyorlashga, yozma ishlarni bajarishga to'g'ri keladi. Buning uchun esa ularda ko'nikma hosil qilish kerak. Bu ko'nikma talabalarning yozma ish yozishlari orqali hosil qilinadi. Teztez yozma ish yozish ularning fikrlashini o'zgartiradi, ularni kurs ishi, yakuniy nazorat ishi, bitiruv malakaviy ishi, turli yozishmalar, dissertatsiya yozishga tayyorlaydi. Yozma ish ijodiy fikrlashga o'rgatadi. Uning muallifi o'zining qarashini, fikrini asoslashga o'rganadi.

Afsuski, ko'pincha og'zaki ravishda o'z fikrini bemalol o'rtoqlashadigan kishilar yozma ravishda bayon qilishga kelganda juda qiynalishadi. Ana shunday holni kamaytirishning muhim usuli bu talabalarni **yoza ish** bajarishlaridir.

Talabalarni teztez yozma ish yozishlari ularning fikrlash ko'nikmalarini tubdan o'zgartiradi. Ularni kurs ishi, hisobot, bitiruv malakaviy ishi, qolaversa, dissertatsiya ishlarini yozishga tayyorlaydi.

Yozma nutq fikrni har tomonlama o'ylash, aniq ifodalashga, har bir so'zni o'rnida ishlatishga o'rgatadi.

Yozma ishni o'rganilayotgan mavzu bo'yicha boshlash kerak. Belgilangan vaqt 1015daqqa. Dastlab, o'quvchitalabalar xayollariga shu mavzu bo'yicha nima kelsa, shuni yozishadi. Buning uchun ularni koyimaslik kerak.

O'qituvchi yozma ishlarni yig'ib olib talabalarning intellektual darajasi, mavzuni o'zlashtirishlarini aniqlaydi.

Dars o'tishning yangi uslublari orasida **esse yozish** ham o'ziga xos o'rin egallab borayapti. U, ayniqsa, yakuniy nazorat ishi yozish uchun tajriba to'plashda qo'l keladi.

**Esse (fransuzcha ESSAI tajriba, xomaki reja) – muallifning individual pozitsiyasini alohida ajratib ko'rsatish orqali erkin, ko'pincha, paradoksal bayon qilishga yo'naltirilgan falsafiyestetik, adabiytanqidiy, badiiypublitsistik adabiyot.**

Nobel mukofoti laureati V.V. Leontevning «Экономический

эссе. Теории, исследования, факты и политика» kitobi nashrdan chiqqach, iqtisodiy mavzularda ham esse yozishga e'tibor berila boshlandi.

Bu usuldan keyingi paytlarda, talabalarni iqtisodiy fikr yuritishga o'rgatish va bilimini baholashda keng qo'llanilmoqda. Usulning boshqa usullarga o'xshab o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari mavjud.

#### **Esse uchun mavzular va savollar.**

Savollarga javob berish uchun berilgan topshiriqlar, axborotlarni tartibga solish, tahlil qila olishga yo'llashi kerak. Mantiqiy masalalarni yechish ulardan foydalanish ko'nikmasini talab qiladi. Bu iqtisodiy fikrlashning yuqori darajasidir. Ularni ob'ektiv testga nisbatan tuzish oson. Uni qo'llashning qiyinchiliklari, javoblarni baholashning qiyinligidir. Shunga qaramay, bilish jarayonini tahlil qilish va baholash uchun essedan zarur axborot olish mumkin.

Essega uchun mavzu tanlaganda yoki savol tuzganda quyidagilarga ahamiyat berish kerak.

1) Topshiriqni iloji boricha aniq qo'yish kerak. Shartni shunday qo'yish kerakki, talaba undan nima talab qilinayotganligini tushunsin.

2) Esse topshirig'i fikr yuritishga, tahlil qilishga undaydigan savollar bo'lishi zarur.

3) Esse uchun tayyorlangan savoltopshiriqlarni talabalarga o'qituvchining o'zi tanlab bergani ma'qul. Bunda talabaning bilimi ob'ektiv baholanadi.

4) Kompleks javob talab qiladigan savollarni uyga vazifa tarzida yoki oraliq nazorat, yakuniy nazoratda berish mumkin.

5) Agar vaqt cheklangan bo'lsa, dars davomida eng asosiy momentlarga ahamiyat qaratilgan savollar qo'yish mumkin.

#### *Esse uchun savollar namunasi.*

1) 1980 yildan 2005 yilgacha ishlovchilar soni o'sdi. Ularning uy yumushlariga sarflaydigan vaqtlari haftasiga 100 soatdan 50 soatgacha qisqardi. Yog', un, xamirturush,



guruch kabilarni sotib olish kamaydi. Non, yarim fabrikatlar, konservalangan meva kabilarni sotib olish miqdori ko'paydi. Ana shu mahsulotlarni sotib olish dinamikasini muqobil qiymat nuqtai nazaridan tushuntiring.

2) Ayrim kishilar kundalik ehtiyoj mollari bo'lgan oziqovqat, kiyimkechak, uyjoy kabilarning narxini past darajada ushlab turish kerak, degan fikrni bildirishadi. Baholar ustidan nazorat va rag'batlantirish kontseptsiyasidan foydalanib, birinchi darajali kundalik ehtiyoj mollarning narxini bozor narxidan past belgilanishi qanday oqibatga olib kelishini tushuntiring.

3) Yaponiyada asosiy oziqovqat mahsuloti guruchdir. Yaponiya hukumati o'z ishlab chiqaruvchilarini himoya qilish maqsadida boshqa mamlakatlardan guruch sotib olishni chekladi. 1993 yili obhavoning noqulay kelishi sababli Yaponiyada sholi etishtirishga katta talofot etdi. Obhavoning yomon kelishi qanday oqibatga olib kelishini oldindan taxmin qiling.

Keyingi yillarda Yapon guruchining a) taklifini;

b) narxini o'zgarishini ko'rsating. Sabablarini izohlang.

Yapon hukumatining guruch importiga, umuman, importga munosabatini izohlang.

#### **Essening afzalliklari va kamchiliklari.**

Esse ko'proq fikrlash, bilim mazmunining yuqori bosqichiga xos. U talabalarning yozma nutq ko'nikmalarini takomillashtirishga yordam beradi. Uni tuzish nisbatan oson, hamda talabalar tomonidan tavakkal javoblar tanlanishiga yo'l qo'ymaydi.

Asosiy kamchiligi: a) baholash qiyin;

b) ularni o'qish, tahlil qilish, baholash uchun ko'p vaqt kerak.

Testlar ko'p savolni qamrasa, esseda bir necha savol qo'yiladi. Sababi, ularga javob yozish ko'p vaqt talab qiladi.

Talabalar bilimni sinash doirasi kengayadi. Esse savollarini har bir talaba uchun alohida berish maqsadga muvofiq. Esse natijasi muhokama qilinayotganda original

fikir bildirgan talabalarga qo'shimcha ball qo'yish kerak.

#### **Talabalar bilimni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. Iqtisodiy fanlarni o'rganishda masala, mashq yechish nima sababdan asosiy o'rinda turadi?

2. Ma'lum bir kategoriya, tushunchaning asosiy mazmunini bilishga qaratilgan masalalar, qanday masalalar?

3. Qanday masalalar ma'lum bir tushuncha asosida hisobkitob qilish, undan xulosa chiqarishga qaratilgan?

4. Qaysi iqtisodiy fanlarda masalani yechish uchun mazkur kategoriya haqida umumiy tushuncha bo'lishi kerak?

5. Iqtisodiy fanlarda o'rganiladigan mashqlarni qanday guruhlarga bo'lish mumkin?

6. Testlar haqida nimalar deya olasiz? Ularning qanday afzalliklari va kamchiliklari bor? 7. Test tuzish qoidalarini o'rgandingizmi? O'zingiz talab darajasida test tuza olasizmi? 8. Esse nima, esse uchun savollar tuzishda qanday qoidalarga amal qilish kerak?

9. Esse yozishning qanday afzalliklari va kamchiliklari bor?

#### **11-mavzu. Iqtisodiy ta'lim berishda yangi pedadagogik texnologiyalardan foydalanish.**

##### **Reja:**

1. Iqtisodiy fanlarni o'rganishda «aqliy hujum» metodini qo'llash va uning boshqa uslublardan farqi
2. Dars jarayonida «Case study method»ni qo'llash
3. Innovatsion ta'lim texnologiyasida loyihalash metodi
4. Mantiqiy, mustaqil fikrlash va o'z fikrini himoya qilishga o'rgatuvchi metodlar

#### **Iqtisodiy fanlarni o'rganishda «aqliy hujum» metodini qo'llash va uning boshqa uslublardan farqi**


«Aqliy hujum» uslubida qo'yilgan savol, muammo,



masalani butun guruh bilan birgalikda muhokama qilinadi.

U talabalarni o'quv jarayonida mashg'ulotlar faol qatnashishlarini, turli g'oyalarni topish va bayon qilish chog'ida boshqalarni ham fikrini jalb qilish, o'z fikrlarini aytishga yo'naltiruvchi metoddir. Bu metodni qo'llaganda, qo'yilgan g'oya, savol barchani o'ziga jalb qiladi.

Bu metodda ma'lum muammo bo'yicha har bir talabaning fikrmulohazasi tinglanib, ular asosida ma'lum bir echim tanlanadi. Uslub bo'yicha dars o'tishni quyidagi sxema orqali ko'rsatish mumkin.



Muammo, muhokama qilinadigan masalalar yoki munozarali savol qo'yish.

Talabalarni muhokamaga jalb etish.

Bildirilgan fikr, g'oyalarni to'plash.

G'oya, fikrlarni saralash, guruhlariga ajratish.

Ularni tahlil qilish

Eng maqbul, samarali yechimni tanlash

Bu metod asosida savol muhokamasini ikki, uch xil usulda o'tkazish mumkin. Har bir usul ikki yoki uch bosqichdan iborat bo'ladi.

**Birinchi usul.** Darsning birinchi bosqichida guruh ikkiga ajratiladi. Talabalar qo'yilgan muammo yoki savol bo'yicha o'z fikrmulohazalarini navbatmanavbat qisqacha bayon qiladi. Bunda har bir talaba masalaga o'z nuqtai nazaridan yondashishga harakat qilishi kerak.

Ikkinchi bosqichda bitta guruhning talabalari ikkinchi guruh vakilining bildirgan fikriga o'z munosabatlarini bildirishadi, ya'ni opponentlik qilishadi. Ikkinchi guruh bildirilgan barcha fikrlarni to'playdi.

Uchinchi bosqichda bildirilgan fikrlar saralanadi va maqbul, samarali echim tanlanadi. Har ikki guruhning natijasi to'g'ri deb topilgan javoblar asosida taqqoslanadi va ball beriladi.

Dars o'tishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

1. Muammo, muhokama qilinadigan masala yoki munozarali savol aniq, hammaga tushunarli bo'lishi zarur. Iloji bo'lsa, uni doskaga yoki vatman qog'ozga yozib qo'yish kerak;

2. O'qituvchi talabalarga «Aqliy hujum» yoki «Aqliy shturm» asosida dars o'tkazishning tartibini tushuntirib berishi kerak. Bunda:

a) har bir talaba o'z fikri, g'oyasini aniq, qisqa ifodalashi zarurligi, buning uchun 2030 soniya vaqt berilishi;

b) boshqalar bildirgan fikr, g'oya, tavsiya, takliflarni takrorlamaslik;

v) birinchi bosqichda munozaraga kirishmaslik, faqat qo'yilgan muammoga nisbatan o'z fikrini aytish;

g) birinchi bosqichda auditoriyada bildirilgan fikr asoslab berilmaydi, tanqid qilinmaydi;

d) fikr bildirilayotgan paytda so'zlovchining gapi bo'linmaydi;

e) bildirilayotgan fikr, g'oya muhimligi jihatidan birbiriga nisbatan teng deb olinadi. Sababi, birinchidan, iloji boricha



ko'proq fikr, g'oya, taklif, tavsiyalarni to'plash.

Ikkinchidan, hammani o'z fikrini ochiq bildirishni ta'minlash. Uchinchidan, vaqtni tejash. O'qituvchi o'quv jarayonida tashabbusni shunday qo'lga olishi, darsni tashkil qilishi

kerakki, har bir talaba mavzuga daxldor darajada fikr aytishi zarur.

Ikkinchi bosqichda bildirilgan fikrlar, g'oyalar, takliflar saralanib, guruhlariga ajratilib, muhokama qilinadi. Tahlil asosida ular ichidan eng maqbul, samarali echim tanlanadi.

**Ikkinchi usul.** Birinchi bosqichda qo'yilgan muammo, masala bo'yicha har bir talaba o'z fikrini bildiradi. U qisqa, tushunarli bo'lishi kerak. Talabalar bildirgan fikrni o'qituvchi yoki talaba yozib borishi, yoki 23 daqiqa vaqt belgilanib, xar bir talaba o'z fikrini yozib berishi mumkin.

Ikkinchi bosqichda bildirilgan fikr va g'oyalar saralanadi. Birgalikda muhokama qilinadi. Echim tanlanib, qaror qabul qilinadi. Talabalarning ishtiroki va bildirgan fikrining originalligi, to'g'riligi va boshqa jihatlariga ko'ra ball beriladi.

Masalan, «Agrar munosabatlar» mavzusini o'tayotganda agrar sektorning muammolarini muhokamasi shu usul bo'yicha o'tish mumkin. Bular respublikamiz uchun eng dolzarb muammolardandir. Chunki YaIMni 26-30 foizi, valyuta tushumining 55 foizdan ortig'i agrar sektorga to'g'ri keladi. Aholining 40 foizdan ortig'i qishloq xo'jaligida band bo'lib, 60 foizi qishloqlarda yashaydi.

Dars mavzusi; Agrar sektorning uzoq muddatli muammolarini qanday yyechish mumkin?

Bu muammoli savolni muhokama qilish uchun avvalo talabalarning diqqatini agrar sektordagi uzoq va qisqa muddatli muammolarning farqini ajratishga qaratishimiz zarur.

#### **Qisqa muddatli muammolar:**

1. Qishloq xo'jalik mahsulotlariga talabning noelastikligi.

2. Qishloq xo'jaligida tabiiy va boshqa omillar ta'sirida ishlab chiqarish hajmining o'zgarib turishi.

3. Turli omillarning ta'sirida talabning tebranishi tufayli kelib chiqadi. Natijada agrar sektorning asosiy muammosi tarmoqda baho va daromadlarning beqarorligini keltirib chiqaradi.

#### **Agrar sektorning uzoq muddatli muammolari:**

1. Fantexnika taraqqiyoti bilan qishloq xo'jalik mahsulotlariga taklif ko'payadi. Band bo'lganlar soni qisqaradi.

2. Qishloq xo'jalik mahsulotlariga talab nisbatan sekin o'sadi.

3. Agrar sektorda band bo'lganlar daromadi boshqa tarmoqlardagiga nisbatan kam. 4. Baho pariteti sanoat foydasiga o'rnatiladi.

Bular agrar sektorni qisqaruvchi tarmoq sifatida namoyon bo'lishiga olib keladi. Bu masala bo'yicha juda ko'p fikrlar, tavsiyalar, takliflar bildiriladi. Ularni quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

A) Qishloq xo'jaligida xo'jalik yuritish shakllarini takomillashtirish.

B) Agrar sektorda band bo'lganlarni boshqa sektorlarga ko'chirish.

V) Davlat tomonidan agrar sektorni qo'llabquvvatlash.

Qaror qabul qilishda ularning qaysi biri asosiy o'ringa qo'yish kerakligini aniqlaymiz. So'ngra, har bir guruhdagi eng maqbulini ajratamiz. Muammoli savolni muhokamasida qatnashishlariga ko'ra talabalar faoliyati baholanadi.

Metodning o'ziga xos yana bir usuli mavzu qo'yilgan muammoni o'rganishda tahliliy, ijodiy vazifalarni guruh bo'lib yechishdir.

#### **Tahliliy - ijodiy vazifalarni guruh bo'lib yyechish metodi.**

O'qituvchi o'rganiladigan mavzu bo'yicha fikrlashni talab qiladigan, muvofiq ravishda tavsiyalar ishlab chiqishini o'rganish zarur bo'lgan savol yoki muammoni doskaga yozadi.

Muhokama jarayonida bildirgan fikrlar ham yozib boriladi. Aytaylik, biz xarajatlarni o'rganayapmiz. Asosiy maqsad xarajatlarni kamaytirish orqali mahsulot ishlab



chiqarib, sotishdan yuqori foyda olishni ta'minlash. Demak, xarajatlarni pasaytirish omillarini aniqlashimiz, ularning ta'siri katta yoki aksinchaligini aniqlashimiz kerak. Buni guruhda muhokama qilish uchun doskaga:

«Sarfxarajatlar miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar» deb yozib qo'yamiz.

Guruhda 20 ta talaba bo'lsin. Har bir talaba navbat bilan o'z fikrini aytadi va biri ikkinchisini takrorlamasligi kerak. Bildirilgan fikrlar doskaga yozib boriladi.

Sanab o'tilgan omillardan 5 tasini ajratib ko'rsating, deya auditoriyaga murojaat qilamiz. Javoblarni individual yoki kichik guruhlar miqyosida umumlashtiriladi. Misolimizda, aytaylik, bosh menejer va menejerlarning malakasi va mahorati, texnika va texnologiya darajasi, mehnat unumdorligi, xom ashyo narxi, mahsulot sifati ko'rsatildi. Talabalar nima sababdan aynan u yoki bu omilni birinchi, ikkinchi va hokazo o'rinlarga qo'yganlari sababini asoslab berishadi.

Ishni boshqacha tashkil qilsa ham bo'ladi. Bunda mavzu yoki qo'yilgan asosiy savolning o'zini ifodalaydigan bir necha savollar tayyorlab, uni kichik guruhlariga bo'lib beriladi. Har bir kichik guruh o'z savoli bo'yicha alohida «aqliy hujum» o'tkazadi va natijani butun guruh oldida taqdimot qiladi. O'qituvchi rahbaryordamchi sifatida harakat qiladi va har bir guruhda aqliy hujum qanday borayotganini kuzatib, bir guruhdan ikkinchi guruhga o'tib turadi.

Aqliy hujumning bunday usuli qisqa vaqt davomida bir savolni turli jihatdan ko'rib chiqish imkonini beradi.

Javoblar baholaganda bildirilgan eng yaxshi fikrni talabalarning o'zlari ajratib, 13 o'rin berishni taklif qiladi. Talabalarni taqqoslash va baholashga jalb etamiz.

Aqliy xujum metodini o'ziga xos modifikatsiyasi "fikrlar hujumi" metodi bo'lib, bu metod J.Donald Filips tomonidan ishlab chiqilgan. Uni katta guruhlarda (20 tadan 60 tagacha talaba bo'lgan) qo'llash mumkin. Ishtirokchilar kichik guruhlariga bo'linadi. Har bir kichik guruh hal qilinadigan ijodiy vazifa va muammo bo'yicha 15 daqiqa davomida

mustaqil ravishda fikrlar hujumi o'tkaziladi. Shundan so'ng har bir kichik guruh vakili o'z guruhlarida ishlab chiqilgan g'oya haqida axborot beradilar. O'qituvchi rahbarligida jamoa bo'lib, unga baho beriladi va eng yaxshilari tanlab olinadi.

«Fikrlarning shiddatli hujumi» esa E. A. Aleksandrov tomonidan ishlab chiqilgan. G. Ya. Bush tomonidan o'zgartirilib, dars jarayonida qo'llash yo'lga qo'yilgan. «Fikrlarning shiddatli hujumi» destruktiv berilgan baho bilan dialog. Bunda jamoa bo'lib g'oyalar ishlab chiqishda ishtirokchilarning ijodiy imkoniyatlari bildirilgan fikrga, dialog tarzida zid g'oyalar qo'yilishi bilan yanada kengaytiriladi, faollashtiriladi.

### **Dars jarayonida «Case study method»ni qo'llash**

Bozor iqtisodiyoti har turli vaziyatda to'g'ri tanlash va qaror qabul qilish zaruratini keltirib chiqaradi. AQShning XX asr boshlaridagi eng badavlat odamlaridan biri Rokfeller, bizni qanday hayot kechirishimiz qabul qiladigan qarorimizga bog'liq degan ekan.

Talabalarni qaror qabul qilishga o'rgatishda muammoli vaziyat hosil qilib, uni yechishni o'rganish metodi – Sase study method – «keys» katta imkoniyatlarga ega. Bu metodni boshqa metodlar bilan birgalikda qo'llash mumkin. Bu jihatdan keys metodining imkoniyatlari keng, uni turli tarzda qo'llash mumkin. Ayniqsa, modellashtiruvchi o'yin tarzida o'tkazish imkoniyati katta hamda kutilgan natijaga erishish imkoni yuqori. Shuning uchun bu metodni ko'pincha, taqlid qilish, imitatsiya metodi sifatida ham ko'riladi.

Bu metodning boshqalaridan farqi shuki, talaba muammoli vaziyatni o'rganib, xulosa chiqarish, qaror qabul qilish, undan qanday chiqib ketishni o'rganadi. Bu metod talabalardan atroflicha bilimga ega bo'lishni talab qiladi. Chunki qaror qabul qilish nafaqat iqtisodiyot, balki faoliyatni tashkil etish, ish yuritish, axborot va ular bilan ishlash, sotsiologiya, psixologiya va boshqa fanlardan ham bilimdonlikni talab qiladi.

Aniq muammoli vaziyatlar metodidan foydalanishning asosiy maqsadi talabalarni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlashdir. U har bir talabaga amaliy va kasbiy ta'lim



berilishini ta'minlaydi.

Metodni qo'llashda maqsadni aniqlash va muammoni qo'yishga alohida e'tibor berish kerak. Qo'yilgan muammo aniq, barchaga tushunarli bo'lishi zarur. Muammoni o'rganish, yechish bosqichlariga ko'ra, maqsadlar belgilanadi. Bular:

1. Muammo bilan tanishish.  
2. Zarur axborot yig'ish, ular asosida mavjud vaziyat, holatni aniqlash. 3. Olingan bilimni amaliy faoliyatda qo'llashni o'rganish.

4. Olingan natijalarni o'rganish, tahlil qilish asosida qaror qabul qilish.

Ma'ruzaga nisbatan keys metodi bo'yicha dars berishning afzal tomonlarini ko'rsatish mumkin.

**Aniq muammoli vaziyatni vujudga keltirib, uni tahlil qilish asosida qanday qaror chiqariladi?**

Bu savolga yagona to'g'ri javob yo'q. Chunki muammoga har bir kishi o'zicha yondashadi. Lekin ba'zi bir tavsiyalarni berish mumkin.

1. Vaziyat haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish uchun eng avvalo axborot to'planib, ularni sinchiklab o'rganib chiqiladi. Axborotni o'rganish jarayonida uni tahlil qilishga urinmaslik kerak.

2. Yig'ilgan axborotni qayta ko'zdan kechirib, muhim ahamiyatga ega deb topganlaringizni alohida ajrating.

3. Vaziyatni tavsiflashga harakat qiling. Uning mohiyati nimada? Asosiy muammo nima? Qaysi biri ikkinchi darajali, aniqlang. Asosiy muammo va undan kelib chiqqan qanday muammolar borligini yozib qo'ying.

4. Hama dalillar, faktlarni hisobga oling. Shunday qilinsa, axborotlar, ma'lumotlar bog'liqligini aniqlash oson bo'ladi.

5. Tavsiya etilgan echimlarni to'g'riligini aniqlash mezonlarini ishlab chiqing.

6. Muqobil variantlarni topishga harakat qiling. Ulardan qaysi biri mezonlar bo'yicha qaror qabul qilish uchun ko'proq to'g'ri keladi, tanlang.

7. Amaliy tadbirlar ro'yxatini ishlab chiqing. Ko'pincha, qabul qilingan qaror asosida erishilgan natijalar zarur. Amaliy choratadbirlar ko'rilmagani tufayli muvaffaqiyatga olib kelmaydi.

### **Tarqatma materiallar**

Bu usulda ma'lum muammo bo'yicha har bir talabani o'z fikrmulohazasi tinglanib ma'lum bir echim tanlanadi. Uslub bo'yicha dars o'tishni mantiqiy izchillikda quyidagi sxema orqali ko'rsatish mumkin.

### **Keys «Case study method»ni qo'llash.**

#### **1-topshiriq**

Rentabelligi past shirkat xo'jaliklarini fermer xo'jaliklariga aylantirish to'g'risida Vazirlar Mahkamasining Qarori chiqqach, «Ijodkor» shirkatini tugatish va uni o'rnida fermer xo'jaliklari tashkil etish to'g'risida tavsiya berildi. Siz ana shu ishga mas'ul shaxs sifatida qaror chiqaring va uni asoslab bering.

**Tumandagi fermer xo'jaliklarida gektaridan o'rtacha olingan paxta hosili:**

| Yillar | 1995 | 1996 | 1997 | 1998 | 1999 | 2000 | 2001 | 2002 | 2003 | 2004 |
|--------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|
| Ts/ga  | 24   | 23   | 25   | 24   | 25   | 23   | 22   | 21   | 25   | 26   |

#### **«Ijodkor» shirkati**

| Yillar | 1995 | 1996 | 1997 | 1998 | 1999 | 2000 | 2001 | 2002 | 2003 | 2004 |
|--------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|
| Ts/ga  | 26   | 25   | 26   | 25   | 25   | 26   | 24   | 22   | 24   | 24   |

**Bir tsentner paxta xom ashyosi tayyorlash uchun sarflangan xarajatlar, ts/ming so'm**

Tuman fermer xo'jaliklarida, o'rtacha:

| Yillar       | 1995 | 1996 | 1997 | 1998 | 1999 | 2000 | 2001 | 2002 | 2003 | 2004 |
|--------------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|
| Ts/ming so'm | 300  | 320  | 320  | 340  | 340  | 350  | 370  | 390  | 400  | 420  |

#### **«Ijodkor» shirkat xo'jaligi**

| Yillar       | 1995 | 1996 | 1997 | 1998 | 1999 | 2000 | 2001 | 2002 | 2003 | 2004 |
|--------------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|
| Ts/ming so'm | 300  | 325  | 325  | 345  | 342  | 352  | 380  | 400  | 405  | 440  |

Qaror qabul qilish uchun siz yana qanday ma'lumotlar yiqqan bo'lar edingiz?



## 2-topshiriq.

Kichik korxonada ayollar ko'ylagi tikiladi. Tayyor mahsulotda ish haqining ulushi 30%. Kichik korxonada 10 ta tikuvchi ishlaydi. Oylik, sotish hajmi va foyda quyidagicha:

| Oylar                  | I   | II   | III | IV   | V    | VI   | VII  | VIII | IX   | X     |
|------------------------|-----|------|-----|------|------|------|------|------|------|-------|
| Sotish hajmi mln.so'm  | 1,5 | 1,2  | 1,4 | 1,5  | 1,51 | 1,49 | 1,48 | 1,45 | 1,4  | 1,3   |
| Olingan foyda mln.so'm | 0,3 | 0,15 | 0,2 | 0,12 | 0,12 | 0,12 | 0,12 | 0,11 | 0,10 | 0,095 |

Korxona egasi tayyorlanayotgan ko'ylaklar uchun olinayotgan materiallarning narxi ortib borayotgani, lekin tayyor ko'ylaklarning narxini oshirish, xaridorni yo'qotishga olib kelishini hisobga olib, noyabr oyidan boshlab ish haqini umumiy harajatlardagi ulushini 20 foizga tushirishini e'lon qildi? Siz qanday qaror qabul qilasiz? Qaroringizni asoslang. Qaror qabul qilish uchun yana qanday ma'lumotlar to'plagan bo'lar edingiz?

Muhokama jarayonida har bir kichik guruh o'z fikrini aytadi, bildirilgan fikrlar juda xilmaxil yoki o'xshash bo'lishi mumkin. O'qituvchi ularga yakun yasab, qaysilari alohida diqqatga sazovor ekanini ajratib ko'rsatadi. Munozaraga yakun yasaydi.

### Metodlarning afzalliklari va kamchiliklari

Boshqa metodlar kabi «Aqliy hujum» va «sase study method»ining ham o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari mavjud:

#### Afzalliklari:

- talabalarga bilim, tajriba, kuzatuvlar nuqtai nazaridan muammo echimiga turlicha yondashuvlar bilan tanishish imkonini beradi;
- talabalarni tahlil qilish, xulosa chiqarish va qaror qabul qilishga o'rgatadi;
- ko'plab echimlar topish va ulardan to'g'risini tanlash imkonini beradi;
- boshqarishni, o'z fikrini qat'iy himoya qilishni o'rgatadi;

- muammoli vaziyatdan chiqishni o'rganishga ko'maklashadi;

- boshqalar oldida o'z fikri, xulosa va dalillarini asoslashga o'rgatadi;

- boshqaruvda sodir bo'ladigan jarayonlarni yaxshi tushunishga imkon beradi;

- mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi;

- turli echimlar qabul qilish va qabul qilingan qarorlar uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga ola bilishni o'rgatadi;

- to'g'ri savol berishga o'rgatadi.

- muammoning yagona echimi yo'qligi va uning boshqa muqobil variantlari borligini o'rgatib boradi.

- talabalarni o'zaro munosabatlariga ijobiy ta'sir qiladi.

- ob'ektiv baho berishga intilish kuchayadi.

#### Kamchiliklari:

1. Metodni qo'llash ko'p vaqt talab qiladi; 1. Katta guruhlarda qo'llash qiyin;

2. Tahlil etish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilganligi tufayli barcha o'quvchitalabalarining o'rganish darajasida farq katta bo'lishi, ayniqsa, bilim darajasi turlicha bo'lgan guruhlarda bu farqni yanada ortishiga olib kelishi mumkin.

Ko'rinib turibdi, metodning afzalliklari ustun, lekin Keys metodidan dars jarayonida hozircha kam foydalaniladi. Bunga sabab:

- konservatizm, yangi o'qitish metodlariga shubha bilan qarash;

- keyslar ishlab chiqish va keys metodi asosida dars o'tish uchun maxsus metodik adabiyotlar yo'qligi;

- keyslar ishlab chiqish ko'p vaqt talab qiladi va hammaning ham qo'lidan kelavermaydi;

- real voqelik asosiga qurilgan keyslar ishlab chiqish uchun zarur ma'lumotlar topish qiyinligi;

- o'qituvchilarda shu metod asosida dars o'tish uchun tajriba etishmaydi.



### **Innovatsion ta'lim texnologiyasida loyihalash metodi**

Loyihalash metodi talim texnologiyasining muhim bo'g'iniga aylanmoqda. Bu metod talim oluvchilarga hayot tarziga moslashish, mustaqil, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini hosil qilishga yordam beradi.

Loyihalash (lot. *projectus* olg'a tashlangan fikr, g'oya, obraz) nomini o'zi aytib turibdiki, kelajakda amalga oshiriladigan ishlarni rejalashtirish bo'lib, projekt ma'lum bir hisob kitob, chizma va boshqalarga asoslangan holda tavsiflash, bayon qilish shaklida mujassamlashgan g'oya, fikrning ifodasidir. U bildirilgan fikrni mohiyatini va uni amalga oshirish imkoniyatlarini ochib beradi.

Loyihalash metodi ta'lim jarayonining muhim jihatlaridan biri bo'lib, o'qituvchining talabalar bilan individual ishlash imkonini beradi. O'qituvchi dars vaqtidan unumli foydalanib, talabalarning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ular bilan yakka tartibda ishlaydi. Bunda ularning kasbiy fanlarni chuqurroq egallashlariga kengroq yo'l ochib beriladi. Loyihalash ishlarini tashkil etishda didaktik vazifaning qo'llanilishi va uni hal etish muammolari ko'rib chiqiladi.

Loyihalash metodi ta'lim oluvchilarni quyidagilarga:

fanning turli sohalaridagi bilimlarni bir butun holga keltirib, muammolarni topish va yechish, axborotlar oqimida mo'ljal olishga;

faoliyatni tanlash huquqidan foydalanib, turli taxmin, g'oyalarni ilgari surish, tadqiqot o'tkazish, tahlil qilish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini aniqlashni;

o'z faoliyati natijasiga mas'ul bo'lish, mustaqil qaror qabul qilish, yutuqlar va kamchiliklarni aniqlash, uning sabablarini qidirish, xatolarni topish va to'g'rilashga;

turli echim, takliflarning natijalarini ilmiy taxmin qilish(prognozlash);

jamoada ishlash, turli nuqtai nazar, fikrlarning muhokamasida qatnashishni rag'batlantiradi.

Loyihalash metodini qo'llab, dars o'tish jarayonida o'quvchi, talabalarning vazifasi: iqtisodiy jihatdan maqsadga

muvofiq, ijtimoiy ahamiyatga ega ishni bajarish, mahsulot ishlab chiqarish, ilmiy, texnik, iqtisodiy va boshqa muammoni belgilangan vaqt davomida yechish yoki yechish uchun takliflar ishlab chiqish.

O'qituvchining vazifasi:

o'quvchi, talabalarni mustaqil ijodiy faoliyatlarini unumli bo'lishi uchun sharoit yaratish. Bu metodni iqtisodiy fanlarni o'rganishdagi muhim ahamiyati shundaki, talabalar

biznesreja tuzishni, turli tanlovlarda qatnashish uchun loyihalar ishlab chiqishni o'rganadilar. Nazariy va amaliy mashg'ulotlarni qanday tashkil etishning texnologik xaritasini ishlab chiqish, ya'ni darsni qanday o'tkazishni mufassal rejasini ishlab chiqishni, umuman olganda, o'z faoliyatlarini rejalashtirishni o'rganadilar.

Shu bilan birga mazkur metodning o'ziga xos xususiyatlari mavjudki, ularni, albatta, hisobga olish zarur.

Birinchidan, bu metodni mavzular, alohida predmetlar bo'yicha qo'llash juda qiyin. Chunki bir muammoning kelib chiqish sabablari nihoyatda xilmaxil. Ularni bir fan doirasida hal qilish qiyin. Ikkinchidan, barcha talabalar ham loyiha tayyorlab, qo'yilgan muammoni echa olmaydi.

Uchinchidan, bu metod o'qituvchidan chuqur bilim, tajriba, o'z ustida tinimsiz ishlash, turli loyihalarda shaxsan qatnashishini talab qiladi.

Metodning mazmuni va uni amalga oshirish bosqichlari

1. Loyihalash metodini qo'llash uchun birinchi navbatda loyihalash ob'ektini aniqlaymiz. Qanday masala, muammo mavjudki, uni echib loyihaning natijasini qanday bo'lishini belgilaymiz.

Bu o'tilayotgan mavzu bo'yicha qo'yilgan savol yoki echimini kutayotgan dolzarb masala bo'lishi mumkin. Loyiha talabalarning o'z xohishlari, qiziqishlariga ko'ra tanlagan ilmiy izlanishlari bo'lishi mumkin yoki o'qituvchi taklif qilishi mumkin. Har ikkala holda ham talabalar zarur axborotlarni to'plashlari, ularni tahlil qilishlari zarur. Tahlil asosida qaror qabul qilib, loyiha ishlab chiqishdan maqsad qo'yiladi va qanday



natijaga erishilishi belgilanadi.

2. Maqsadni aniqlagach, loyihaning mazmunini belgilaymiz. Uning qisqacha mazmunini beramiz.

3. Reja asosida amalga oshirish uchun vazifalar belgilanadi, ya'ni faoliyat rejasi ishlab chiqiladi. Loyihaning umumiy tavsifi oydinlashadi. Aniq faoliyatga asos yaratiladi. Loyihani amalga oshirish uchun tuzilgan reja aniq bo'lishi, haddan tashqari murakkab bo'lmasligi kerak. Umumiy rejadan tashqari haftalik va oylik rejalar tuziladiki, uning asosida talaba bajaradigan ishlarni yanada oydinlashtiradi.

4. Loyiha qatnashchilari belgilanadi.

Loyiha qatnashchilari o'z qiziqishlari, fikr doiralari bilan birbirlariga yaqin, yordam beruvchi o'quvchi, talabalar bo'lib, ularni loyihada qo'yilgan maqsad birlashtiradi.

Ular yoniga keyinchalik boshqa qatnashchilar ham qo'shilishi mumkin. Lekin qatnashchilar haddan tashqari ko'payib ketishi salbiy oqibatlariga olib keladi. Shuning uchun loyihada har bir qatnashuvchining bajaradigan vazifasi aniq yozib qo'yiladi.

5. Loyihani amalga oshirish muddatlari belgilanadi. Agarda u bosqichlarga bo'linsa, uni ham muddatlari bilan ko'rsatiladi.

6. Loyihalash va uni amalga oshirishning bosqichlari:

1-bosqich. Loyihani ishlab chiqish. Unda loyihani amalga oshirish shakllari va vositalari, bosqichmabosqich natijalari ham ko'rsatiladi.

2-bosqich. Loyihada belgilangan vazifalar bajariladi.

Bu bosqichda talabalar mustaqil ravishda individual va guruh bo'yicha qo'yilgan vazifalarni bajaradilar. Material, axborot to'playdilar. To'plangan ma'lumotlarni muhokama qiladilar. Jadvallar, grafiklar ishlab chiqadilar. Namoyish etiladigan, illyustrativ materiallar tayyorlashadi.

3-bosqich. Loyihaning barcha qatnashchilari tomonidan tayyorlangan ishlar bir butun qilib birlashtiriladi. Avval loyihaning xomaki varianti yozib chiqiladi. So'ngra yakuniy variant tayyorlanadi. Rasmiy talablar asosida taxlanadi.

4-bosqich. Loyihaning so'nggi varianti ekspertga, taqrizga beriladi. Bunda matn aniqasoslangan bo'lib, bajarilgan ishlarning mazmuni va erishilgan natijalarni gavdalantirishi kerak. Matnda, albatta, jadvallar, grafiklar, chizma, dasturlar va boshqa shunga o'xshash materiallar bo'lishi shart.

5-bosqich. Ish taqrizga beriladi. Loyihaga ekspert xulosasini olinadi, tashqi taqriz natijasini elon qilingach, tugallangan hisoblanadi.

6-bosqich. Loyiha taqdimoti. Taqdimot loyihada bajarilishi belgilangan mezonlar asosida juri yoki komissiya a'zolari tomonidan baholanadi. Juri a'zolari tarkibi loyiha ishlab chiqilayotganda aniqlanadi. Tayyorlangan loyihani ko'rib chiqib, tanlanib, so'ngra tayyorlangan hisobot ko'rib chiqiladi.

Juri ishni baholashi uchun baholash mezonlari ishlab chiqiladi. Bu mezonlar muammoni o'rganish darajasi, matnni aniq, tushunarli tarzda bayon qilinishi, o'ziga xosligi, rasmiylashtirish sifati, ko'rgazmali, namoyish materiallardan foydalanilgani, berilgan takliflar va ularni muammoni yechishga yordam berishi va boshqa jihatlarini mujassamlashtirilgan bo'lishi kerak. Dars jarayonida kichik guruhlar tayyorlagan loyihalarni o'qituvchi boshchiligida talabalardan tuzilgan hay'at baholashi mumkin.

**Talabalar tomonidan tayyorlangan loyihalarni baholash mezonlari:**

| No | Mezonlar                                                      | Eng yuqori ball |
|----|---------------------------------------------------------------|-----------------|
| 1  | Tanlangan muammoning dolzarbligi                              | 5               |
| 2  | Muammoni o'rganilganlik darajasi                              | 5               |
| 3  | Maqsad va vazifalarni aniq, tushunarli tarzda bayon qilinishi | 5               |
| 4  | Tanlangan muammoning qisqacha mazmunini yoritilishi           | 5               |
| 5  | Bajariladigan ishning qisqacha mazmunining yoritilishi        | 5               |
| 6  | Ko'rgazmali, namoyish materiallaridan foydalanish             | 5               |



|   |                                                                                                             |   |
|---|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---|
| 7 | Loyihani amalga oshirish uchun zarur moliyaviy resurslar, ularning manbalarini ko'rsatilishi va asoslanishi | 5 |
| 8 | Rasmiylashtirish sifa                                                                                       | 5 |

Talabalar loyiha ustida ishlash jarayonida olgan bilimlaridan, bilish jarayonida xizmat qiladigan amaliy maslahatlardan foydalanishsa mustaqil tahliliy fikr yuritishga o'rganadilar. Ularda yangi g'oyalar topish, ijodiy fikrlashga, to'g'ri strategiya tanlash, aniq masalamuammolarni yechish ko'nikmasi hosil bo'ladi. Bunda o'qituvchi ularning ishini kuzatadi, maslahatlar beradi, qo'llab kuvvatlaydi.

Boshqa hech qaysi metod o'quvchitalabalarda bu metodchalik mas'uliyatni his qilishni shakllantirmaydi, tarbiyalamaydi.

Loyihalash metodi asosida dars jarayonini tashkil etishda o'quv guruhi ichida ishchi guruhlar tuziladi. Ular o'zlashtirish darajalariga qarab uch ishchi guruhga bo'linadi. Bunda kuchli ishchi guruhlar mustaqil shug'ullanganda, o'qituvchi o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchitalabalar bilan mashg'ulot o'tkazishi uchun ko'proq vaqt ajratiladi.

Ishchi guruhlar ishtirokchilarining o'zlashtirish darajasi taxminan teng bo'lganida ta'limda yuqori natijaga erishiladi. Bunday guruhlarini ta'lim oluvchilarning o'zlari tuzgani ma'qul, chunki ular o'zlarining qaysi guruhga mos ekanliklarini juda yaxshi bilishadi. 2va 3ishchi guruhidan 1ishchi guruhiga o'tishga imkon beriladi. Kichik guruhlarda har bir o'quvchi yakka tartibda loyiha ishini bajargani uchun individual amaliy usuldan ham foydalanish mumkin.

Individual usulning laboratoriya usulidan farqi, talabalar o'z faoliyati davomida olgan bilimlaridan foydalanib, amaliy vazifani hal etishga harakat qiladi. Ushbu usul talabalar bilimini chuqurlashtiradi, mahoratini oshiradi, shuningdek, ularning o'rganish faoliyatini yanada kuchaytiradi.

**Mantiqiy, mustaqil fikrlash va o'z fikrini himoya qilishga o'rgatuvchi metodlar**

O'quvchi talabalarni mantiqiy mustaqil fikrlashga, harakatlar ketmaketligini to'g'ri tashkil etishga, o'rganayotgan fan, berilgan turli fikrlar orasidan eng keraklisini tanlab olishga, o'z fikrini himoya qilishga, asoslashga o'rgatadigan qator metodlar mavjud. Ulardan eng diqqatga sazovorlaridan biri «Blits-o'yin» bo'lsa, ikkinchisi «FSMU» metodi.

**Blits-o'yin metodidan foydalanish.** Fizologik jihatdan o'yin o'tkazish bir necha bosqichga bo'linadi. Berilgan topshiriqni avval har bir o'quvchitalaba o'zibajaradi. So'ngra kichik kichik guruh va butun guruh miqyosida birgalikda muhokama qilib, ko'rib chiqiladi. Bu jarayonda har bir talaba o'z fikrini o'tkazishga, uning to'g'riligini isbotlashga harakat qiladi, shu bilan birga boshqalar bilan hamfikir bo'lishiga yordam beradi.

Buning uchun o'qituvchi topshiriq mazmuni bayon qilingan tarqatma material tayyorlaydi. Darsda o'quvchitalabalarga o'yin bir necha bosqichda o'tkazilishi, buning uchun vaqt berilishini ma'lum qiladi. Bajariladigan vazifani tushuntiradi. Tarqatma materialdagi jadvalda bajariladigan harakatlar berilgan.

Dastlab har bir o'quvchitalaba o'zi ana shu harakatlar ketmaketligini belgilangan tartibda jadvalda alohida ajratilgan ustunga qalamda belgilab chiqishi lozimligi tushuntiriladi. Buning uchun har bir o'quvchitalaba materialni sinchiklab o'rganishi zarur. Vazifa yakka tartibda bajariladi.

#### **Birinchi bosqich:**

Har bir o'quvchitalaba vazifani bajarishga kirishadi. O'qituvchi yaxshi tushunmaganlarga tushuntiradi. Ular tarqatma materialdagi jadvalda «yakka baho» yozilgan ustunga berilgan harakatlardan o'zining shaxsiy fikri asosida mantiqiy ketmaketlikda raqamlar bilan belgilab chiqadi. Ulardan qaysi biri birinchi, qaysi biri ikkinchi, qaysi biri uchinchi va hokazo. Bu vazifani bajarish uchun 10 daqiqa vaqt beriladi.

#### **Ikkinchi bosqich:**

Birinchi vazifaga ajratilgan vaqt tugagach, o'qituvchi guruhdagi talabalar sonidan kelib chiqib, 34 kishilik kichik



guruhlar tashkil qilishni so'raydi. Kichik guruhlar ixtiyoriy mezonlar asosida tashkil qilinadi. Kichik guruhning har bir a'zosi o'zi belgilagan harakatlar ketmaketligi bilan boshqalarni tanishtiradi. Kichik guruh a'zolari o'z fikrlari, ya'ni o'zlari belgilaganlari to'g'riligini asoslashga harakat qilishadi. Muhokama jarayonida bir fikrga kelib, jadvaldagi «guruh bahosi» ustunini to'ldirishadi, qalam bilan raqamlarni harakatlar ketmaketligi bo'yicha qo'yib chiqishadi. Buning uchun vaqt vaziyatdan kelib chiqqan holda belgilanadi.

O'qituvchi kichik guruhlar munozarasida ishtirok etmaydi. Faqat ularning faoliyatini kuzatadi.

#### **Uchinchi bosqich:**

Barcha kichik guruhlar «guruh bahosi» ustunini to'ldirib bo'lgach, o'qituvchi tarqatilgan materialdan «to'g'ri javob» ustunini topish va u aytgan harakatlar ketmaketligi bo'yicha raqamlarni yozib chiqishni so'raydi.

#### **To'rtinchi bosqich:**

Endi, navbatdagi vazifa, «to'g'ri javob» ustunida berilgan raqamlardan «yakka baho» ustunida berilgan raqamlarni (yoki aksincha), ya'ni kattadan kichikni ayirgan holda farqni «yakka xato» ustuniga yozib chiqish kerakligini aytadi. So'ngra, «yakka baho» ustunidagi sonlarni yuqoridan pastga qarab, jamini hisoblash kerakligini ko'rsatadi. Xuddi shunday tartibda «to'g'ri javob» va «guruh bahosi» o'rtasidagi farq kattadan kichikni ayirish orqali bajariladi. Farqlar soni «guruh xatosi» ustuniga yoziladi. Yuqoridan pastga qarab qo'shib, jami hisoblanadi.

#### **Beshinchi bosqich:**

O'qituvchi yakka va guruh xatolari bo'yicha tushuncha beradi. Ularni alohida, alohida sharhlab beradi: agar yakka xatolar 21 tagacha bo'lsa (ya'ni o'rtacha bir savolga 2tagacha) ular o'rganilayotgan masala bo'yicha etarli tushunchaga ega, mustaqil ravishda berilgan vazifani uddalay oladilar. Turli sharoitda harakatlarni mantiqan to'g'ri bajara oladilar.

Agar yakka xatolar soni 21 tadan 30 tagacha bo'lsa, ularning bilimlari etarli emas, bironbir ish, faoliyatni olib borishga,

tashkil etishga qiynaladilar yoki palapartish bajaradilar. Shuning uchun ular bilimlarini mustahkamlashlari, o'qishlari, mantiqiy fikr yuritishni o'rganishlari kerak.

Agar xatolar soni 30 tadan ortiq bo'lsa, bunday o'quvchitalabalar o'z ustilarida qattiq ishlashlari talab qilinadi.

«Guruh xatosi» ustunining sharhi:

Agar xatolar soni 21 tagacha bo'lsa, bu guruhlarda o'quvchitalabalar birbirlarini tushunishga harakat qilganlar. Birbirlarini ishontira olganlar. Oqibatda, bir xil natijaga erishganlar. Demak, guruhda samimiy munosabat o'rnatilgan, fikrlar bir joydan chiqqan.

Agar guruhda xatolar soni 21 dan 30 tagacha bo'lsa, bu guruh a'zolarining bir fikrgakelishlari qiyin bo'lgan. Muhokama yuzaki, birbirlarini xafa qilib qo'ymaslik uchun shunchaki kelishishgan. Aslida har kim o'z fikrida qolgan bo'lishi mumkin. Bu guruhda samimiy munosabat o'z aksini topmagan.

Agar guruh xatosi 30 dan oshsa, bu guruh a'zolari umuman birbirlari bilan kelisha olmaganlar. Birbirlarini o'zaro ishontira olmaganlar. Har kim o'z fikrida qolgan. Samimiy munosabat o'rnatilmagan.

Bajarilgan vazifaning 5570 foizi to'g'ri bo'lsa, qoniqarli, 7185 foizi to'g'ri bo'lsa, yaxshi, 86 foizdan yuqorisi a'lo baho qo'yilishi mumkin.

Aytaylik, «Buxgalteriya hisobi» fanidan buxgalteriya hisobvaraqlari o'rganilganda, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy xo'jalik faoliyatining hisobvaraqlari rejasining «Uzoq muddatli aktivlar» qismini «Men – buxgalter» blitso'yini yordamida ko'rib chiqish mumkin. Bunda biz hisob varaqlarining raqamlari bo'yicha ketmaketlikda joylashtirishni topshiriq qilib beramiz. Vazifani bajarish uchun 5 daqiqa vaqt belgilaymiz. Blitso'yinni o'tkazishni yuqorida ko'rsatganimizdek amalga oshiramiz. Bu nisbatan oddiy topshiriq, lekin keyingi darslarda bu fandan ancha murakkab topshiriqlar tayyorlashga imkoniyat bor.



**Blitso'yin: «Men – buxgalter»**

| Guruh bahosi | Guruh xatosi | To'g'ri javob | Yakka xato | Yakka baho | Harakatlar mazmuni                                                                            |
|--------------|--------------|---------------|------------|------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------|
| 4            | 0            | 4             | 1          | 3          | Nomoddiy aktivlarning hisobvaraqlari                                                          |
| 9            | 0            | 9             | 1          | 8          | Debitor qarzlar va muddati kechiktirilgan xarajatlarning hisobvaraqlari – uzoq muddatli qismi |
| 1            | 0            | 1             | 1          | 2          | Asosiy vositalarning hisob varaqlari                                                          |
| 6            | 1            | 5             | 2          | 4          | Nomoddiy aktivlarning eskirish hisob varaqlari                                                |
| 7            | 1            | 8             | 1          | 9          | Kapital quyilmalarning hisobvaraqlari                                                         |
| 3            | 1            | 2             | 1          | 1          | Asosiy vositalarning eskirish hisob varaqlari                                                 |
| 5            | 1            | 6             | 1          | 5          | Uzoq muddatli investitsiyalarning hisob varaqlar                                              |
| 2            | 1            | 3             | 4          | 7          | Moliyalanadigan lizing shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarning hisob varaqlari      |
| 8            | 1            | 7             | 1          | 6          | Kapital quyilmalarning hisob varaqlari                                                        |

Demak, birgalikda ishlaganda xato kamaygan. Lekin to'g'ri javob berish uchun talabalar o'z ustida ishlashi, qaysi hisobvarag'i ketmaketligini aniq bilib olishi kerak.

**FSMU metodini qo'llash.** Bu metod ham bir necha faza yoki bosqichga bo'lib qo'llaniladi. Shuni nazarda tutib, FSMU texnologiyasi deb ham yuritiladi. Bu metod ham o'quvchitalabalarni mustaqil, erkin fikrlash va o'z fikrini himoya qilishga, o'quv jarayonida egallagan bilimlarini baholashga, bahslashish madaniyatini va unga rioya qilishni o'rgatadi.

O'z fikrlarini aniq va qisqa ifodalab, uni tasdiqlovchi

dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishni o'rganishga yordam beradi.

Bu metodda ham avvalgi metod kabi topshiriq avval har bir o'quvchitalaba tomonidan individual, so'ngra kichik guruhlar hamda butun guruh bilan birgalikda bajariladi.

**1. Tayyorgarlik ko'rish fazasi**

O'qituvchi o'quvchitalabalar bilan birgalikda darsda bahs qilinadigan, muhokama qilinadigan savol, mavzu yoki o'rganilgan bo'limni belgilaydi. Ana shu doirada har bir o'quvchitalabaga o'z fikrini aytish, fikrning bildirish sababini ko'rsatish, misol keltirish hamda umumlashtirish topshiriladi. Bu topshiriq, bajariladigan ishning ketmaketligi ko'rsatilgan varaqlar tarqatish orqali yoki doskaga yozib, har bir o'quvchitalabani o'z daftariga ko'chirib olish tarzida amalga oshiriladi.

**2. Axborot bilan ta'minlash fazasi**

Varaqlarda quyidagilar yozilgan:

(F) – Fikringizni bayon eting;

(S) – Sabab ko'rsating(bayon qilgan fikringizga sabab ko'rsatishingiz kerak);

(M) – Misol keltiring(ko'rsatgan sababni isbotlovchi misol keltirish kerak);

(U) – Umumlashtiring (bildirgan fikringizni umumlashtirishingiz kerak). O'qituvchi ularni qanday bayon qilish kerakligini tushuntiradi. Har bir kishi o'z fikrini erkin aytishi mumkinligi eslatib o'tiladi. Uni bajarishga qancha vaqt ajratiladi, qanday qoidalarga rioya qilish kerak, kabilar e'lon qilinadi.

**3. Topshiriq ustida ishlash fazasi:**

Har bir o'quvchitalaba o'z fikrlarini tarqatilgan varaqlarda yoki daftarida aks ettiradi.

**4. Kichik guruhlar ish natijasini muhokama qilish:**

Talabalar kichik guruhlariga bo'linib, kichik guruhning har bir a'zosi o'zi bildirgan fikr bilan o'rtoqlarini tanishtiradi. Kichik guruh a'zolari birgalikda muhokama qilib, FSMU ni umumlashtirilgan holda yozadilar. Fikrlarni umumlashtirish paytida har bir o'quvchitalaba o'z fikrini himoya qilishi,



isbotlashi mumkin. Kichik guruh o'z fikrini asosiy guruh oldida himoya qilishga tayyorgarlik ko'radi.

#### **5. Yakunlash:**

Har bir kichik guruh o'z fikrini guruh oldida bayon qiladi, asoslaydi, himoya qiladi. Buning uchun guruhdan tayinlangan vakil FSMUning har bir bosqichi bo'yicha bildirilgan fikrlarni alohida o'qiydi. Guruhning nima sababdan shu fikrga kelganini aytib o'tishi mumkin.

Masalan:

Ish haqi to'g'risidagi savolni muhokama qilganda, bu metoddan foydalanishni ko'rib chiqaylik.

Aytaylik, tarqatilgan varaqdagi yoki amaliy mashchg'ulot (seminar) daftarida meni javobim quyidagicha bo'lsin.

**F – Fikringizni bayon eting.** Men ish haqim oshsa xursand bo'laman.

**S – Fikringiz bayoniga biron sabab ko'rsating.** Chunki, ish haqi oshgach, meni ehtiyojimni qondiradigan xilmaxil tovar va xizmatlardan foydalanish imkoni ortadi. Anchadan beri orzu qilib yurganim chet elga sayohat qilish imkoni vujudga keladi.

**M Ko'rsatilgan sababni isbotlovchi misol keltiring.** Men hisoblab chiqdim: avval olgan ish haqim faqat oziqovqat va kiyimkechak, kommunal to'lovlarga etar edi. Endi oyiga 100 ming so'mdan jamg'arish imkoniga ega bo'ldim.

**U – fikringizni umumlashtiring.** Bulardan shunday xulosa chiqarishim mumkinki, ish haqi oshgach, boshqalarda ham shunday imkoniyat vujudga keladi.

Navbatda, kichik guruh a'zolarining fikri FSMU varag'ida aks ettiriladi. Ular asosida qanday umumiy xulosaga kelish va kichik guruh taqdimotida bayon qilishga kelishib olinadi. Kichik guruhda hamma o'z fikri bilan o'rtoqlashib, bu erda inflyatsiya hisobga olinmaganini aytishi mumkin. Orzu qilingan maqsadga etish uchun tovar, xizmatlar taklifi avvalgidan kam bo'lmasligi, narxlar ayniqsa, oziqovqat, kiyimkechak, kommunal xizmatlari deyarli o'zgarmasligi kerak. So'mning tovar bilan ta'minlanish darajasi pasaysa, hamma tarmoqlarda ham ish

haqining o'sishi inflyatsiyaga olib keladi. Uni pasaytirmaslikning yo'li mehnat unumdorligining ish haqiga nisbatan tezroq o'sishini ta'minlash zarur. U holda kichik guruh a'zolarining umumiy fikri quyidagicha bo'lishi mumkin:

**U – fikringizni umumlashtiring.** Mehnat unumdorligi ish haqiga nisbatan ko'proq darajada ortsa, ish haqining ortishi turmush darajasining ko'tarilishi, turlituman yangi ehtiyojlarning qondirilishiga olib keladi.

O'qituvchi darsni yakunlar ekan, aytilgan fikrlarga o'z munosabatini bildiradi. Ulargamurojaat qilib, bugungi darsdan nimalarni bilishgani, bu metodni qachon, qanday qo'llash mumkinligi va boshqa savollar beradi. O'quvchitalabalar va kichik guruhlarining faoliyatini baholaydi.

**Talabalar bilimini mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. Dars o'tish metodlari orasida, «aqliy hujum» metodining tutgan o'rni qanday? 2. Metodni qo'llashning asosiy bosqichlarini aytib bering

3. Siz shu metod asosida dars o'tganingizda nimalarga e'tibor qaratgan bo'lar edingiz? 4. «Sase study method» ning sizga qaysi jihatlari yoqadi?

5. Iqtisodiy fanlardan dars o'tganda «sase study method»ni qo'llashning imkoni ham, ahamiyati ham katta degan fikr to'g'rimi?

6. Metodlarning asosiy afzalliklarini ko'rsatib bera olasizmi?

7. Metodlarning ko'rsatilgan kamchiliklariga qo'shilasizmi? Ulardan boshqa kamchiliklarni ko'rsata olasizmi?

8. O'quv va ilmiy adabiyotlar ustida mustaqil ishlashni o'rgatuvchi metodlarga qaysi metodlarni kiritgan bo'lar edingiz?

9. Kitob bilan mustaqil ishlashni bilish qanday ahamiyatga ega deb o'ylaysiz? Siz o'zingiz adabiyotlar bilan qanday ishlaysiz?

10. Taqqoslash, baholashni o'rgatuvchi metodlar qanday metodlar? Boshqa metodlardan qay jihatlari bilan farq qiladi?



4. Axborotlarni yig'ish metodi qanday metod? Bu metodni dars o'tishda qo'llay olasizmi? 5. Nima sababdan «Klaster» metodini axborotlarni yoyish metodi sifatida ko'ramiz? Bu metod qaysi jihati bilan ahamiyatli?

11. Qaysi metodlar taqqoslash, baholashni o'rgatadi: bu metodlarni iqtisodni o'rganishda qanday qo'llash mumkin?

12. Mantiqiy, mustaqil fikrlash va o'z fikrini himoya qilishga o'rgatuvchi metodlarni sanab bera olasizmi? Bu metodlarning afzalligi nimada?

## **12-mavzu. Noan'anaviy iqtisodiyot darslarini tashkil etish. Ochiq darslar o'tkazish metodikasi.**

### **Reja:**

1. Noan'anaviy darsni tashkil etish asoslari.
2. Noan'anaviy dars ishlanmasini tuzish.
3. Ochiq darslarni tashkil etish metodikasi.

### **Noan'anaviy darsni tashkil etish asoslari**

An'anaviy dars o'tish ta'limning o'ziga xos modellardan biri bo'lib, muayyan muddatga mo'ljallangan, ta'lim jarayoni ko'proq o'qituvchi shaxsiga qaratilgan, mavzuga kirish yoritish, mustahkamlash va yakunlash bosqichlaridan iborat ta'lim modelidir. O'quv materialini yangi va ancha murakkab bo'lganda, an'anaviy dars – ko'p hollarda ta'lim jarayonining birdan-bir metodi bo'lib qolmoqda. Ma'lumki, an'anaviy darsda ta'lim jarayonining markazida o'qituvchi turadi.

Markazda o'quvchi bo'lgan o'quv jarayonining, darsning maqsadi va uning ijobiy jihatlari quyida keltirilgan asoslarga tayanadi:

O'quvchining o'qishga bo'lgan ishtiyoqini oshirib borish;  
Ilgari egallagan bilimlarni ham inobatga olish;  
O'qish jarayoni tezligini muvofiqlashtirish;  
O'quvchi tashabbusi va majburiyatini qo'llab-quvvatlash;  
Amaliyot orqali o'rganish;

Ikki tomonlama fikr-mulohazalar bilan ta'minlash;  
O'qish jarayonini to'g'ri yo'lga qo'yish;  
O'qituvchi-o'quvchilar uchun o'quv jarayonini engilashtiruvchi shaxs;

O'quv jarayonini baholash.

An'anaviy dars o'tish modelida ko'proq ma'ruza, savol-javob, amaliy mashq kabi metodlardan foydalaniladi. Shu sabab, bu hollarda an'anaviy dars samaradorligi ancha past bo'lib o'quvchilar ta'lim jarayonining passiv ishtirokchilariga aylanib qoladilar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli – tuman o'quvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini ko'tarilishiga olib keladi.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda bahs, munozara, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash tadqiqot rolli o'yinlar metodlarini qo'llash, rang-barang qiziqitiruvchi misollarning keltirilishi, o'quvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash rang-barang baholash usullaridan foydalanish ta'lim vositalaridan joyida va vaqtida foydalanish talab etiladi.

Noan'anaviy dars o'tishning asosiy tarkibiy qismlari

1. Kirish.

- o'tgan materialni takrorlash
- dars maqsadini tushuntirish
- dars mazmuni va rejasi bilan tanishtirish.

2. Yangi mavzuni yoritish.

- yangi mavzuni kichik-kichik bo'lakchalarga bo'lib berish
- rang-barang misollar imkoni boricha ko'rgazmali taqdim

qilish

- mavzudan cheklashmaslik
- materialning murakkab tomonlarini qayta tushuntirish
- o'quvchilarning tushunuvchanlik darajasini tekshirib

borish



- teskari aloqani ta'minlash.

3. «Teta – poya» mashq.

Biror misol (yoki masalani) o'quvchilar bilan qadamba-qadam hal qilish va tahlil qilish.

4. Yo'naltirib turiluvchi mashq.

O'quvchilar mashq (yoki masalani) mustaqil bajarishadi o'qituvchi esa ularni nazorat qilib, tuzatish kiritib boradi.

5. Mustaqil bajariladigan mashq.

O'quvchilar mashqni mustaqil holda o'qituvchi yordamisiz bajariladi.

6. O'quvchilar tushunarlik darajasini tekshirish.

7. Yakunlash

Dars mavzusining asosiy tushunchalari va o'quv maqsadlarini jamlash.

O'qitishning noan'anaviy modellari

Bu modellarni shartli ravishda 3 ga ajratish mumkin.

- hamkorlikda o'rganish modeli

- modellashtirish

- o'rganishning tadqiqot modeli.

Bu modellar asosan o'quvchi shaxsiga qaratilgan bo'lib ularni boshqacha qilib markazda o'quvchi turgan ta'lim modellari deb ham atashadi.

Modellashtirish – real hayotda va jamiyatda yuz berayotgan xodisa va jarayonlarni ixchamlashtirilgan va soddalashtirilgan ko'rinishini (modelini) sinfxonada yaratish va ularda o'quvchilarni shaxsan qatnashishi va faoliyat evaziga ta'lim olishini ko'zda tutuvchi metod.

Hamkorlikda o'rganish modeli – o'quvchilarni mustaqil guruhlarda ishlashi evaziga ta'lim olishini ko'zda tutadigan metod.

O'rganishning tadqiqot modeli – o'quvchilarni muayyan muammoni yyechishga yo'naltirilgan, mustaqil tadqiqot olib borishini ko'zda tutuvchi metod.

An'anaviy (ta'lim jarayoni markazida o'qituvchi bo'lgan) metodlarning

AFZALLIKLARI

Ma'lum ko'nikmalarga ega bo'lgan va aniq ma'lum tushunchalarni, fanni o'rganishda foydali.

O'qituvchi tomonidan o'qitish jarayonini va o'qitish muhitini yuqori darajada nazorat qilinishi.

Vaqtdan unumli foydalanish.

Aniq ilmiy bilimlarga tayanadi.

KAMCHILIKLARI

O'quvchilar passiv ishtirokchi bo'lib qoladilar.

O'qituvchining to'la nazorati barcha o'quvchilar uchun motivatsiyani vujudga keltirmaydi.

O'quvchilar o'qituvchi bilan bevosita muloqotga kirisha olmaydi.

Eslab qolish darajasi hamma o'quvchilarda bir xil bo'lmagaligi sababli, sinf bo'yicha o'zlashtirish darajasi past bo'lib qolishi mumkin.

Mustaqil o'rganish va echimlar qabul qilish uchun sharoitlar yaratiladi.

Noan'anaviy (ta'lim jarayoni markazida o'quvchi bo'lgan) o'qitish metodlarining

AFZALLIKLARI

O'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib kelishi.

O'z vaqtida aloqalarning ta'minlanishi.

Tushunchalarni amaliyotda qo'llash uchun sharoitlar yaratilishi.

O'qitish usullarining turli xil ko'rinishlari taklif etilishi.

Motivatsiyaning yuqori darajada bo'lishi.

O'tilgan materialning yaxshi eslab qolishi.

Muloqotga kirishish ko'nikmasining takomillashishi.

O'z-o'zini baholashning o'sishi.

O'quvchilarning predmetning mazmuniga, o'qitish jarayoniga bo'lgan ijobiy munosabati.

Mustaqil fikrlay oldaigan o'quvchining shakllanishiga yordam berish.

Nafaqat mazmunini o'zlashtirishga yordam bermay, balki tanqidiy va mantiqiy fikrlashni ham rivojlantirish.

Muammolar yechish ko'nikmalarning shakllanishi.



## KAMCHILIKLARI

Ko'p vaqt talab etilishi.

O'quvchilarni har doim ham kerakli nazorat qilish imkoniyatining pastligi.

Juda murakkab mazmundagi material o'rganilayotganda ham o'qituvchi rolining past bo'lishi.

«Kuchsiz» o'quvchilar bo'lganligi sababli «kuchli» o'quvchilarning ham past baho olishi.

O'qituvchining o'zi ham yaxshi rivojlangan fikrlash qobiliyatiga va muammolar yechish ko'nikmalariga ega bo'lishining talab etilishi.

O'qitish jarayonidagi mavjud an'anaviy ta'lim bilan qurollangan ta'lim muassasalari endilikda o'z oldiga qo'yilgan davlat va ijtimoiy buyurtmani amalga oshirishga o'zaro qo'llash qilmog'ida. Taniqli didakt olim M.N. Maxmutovning fikriga ko'ra, o'quv jarayonini tashkil etishning an'anaviy sxemasi o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini yetarli darajada rivojlantira olmaydi, ularning bilimga bo'lgan ehtiyojlarini, fanga bo'lgan qiziqishlarini qondira olmaydi, faol fikrlashni hamda bilishni e'tiqodga, e'tiqodni esa ongli ijtimoiy maqsadga muvofiq faoliyatga aylantirishni ta'minlay olmaydi. Maktab, kasb-hunar kolli va oliy o'quv yurtlari o'qituvchilarining ilg'or tajribalari yoritilgan materiallarni o'rganish, shuningdek, kuzatishlar va suhbatlardan ma'lum bo'lishicha, ularning ko'pchiligi o'z amaliy faoliyatlarida kuchsiz avtoritar motivga asoslangan bir hildagi o'qitish jarayonlarini qisman o'zgartirgan holda foydalanishadi. Bunday hollarda o'zlashtirishning yuqori darajasiga deyarli erishib bo'lmaydi. Haqiqatan ham, an'anaviy ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan noan'anaviy ta'lim jarayoni bilan taqqoslaganda ular o'rtasidagi farq aniq ko'zga tashlanadi.

An'anaviy ta'lim texnologiyalariga asoslangan ma'ruza, seminar, sinov darslarining ta'lim jarayonida tutgan o'rni va qimmatini kamaytirmagan holda, ularni hozirgi zamon talablari asosida takomillashtirish yo'llari ustida qayg'urish zarur.

Noan'anaviy darslarni tashkil etishda quyidagilarga

e'tibor qaratilishi ko'zda tutiladi:

1. Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish. Hamkorlik pedagogikasiga amal qilish.

2. Ta'lim jarayonini demokratlashtirish. O'quvchilarga tanlash huquqini berish.

3. O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, o'zaro hamjihatlikka asoslangan qulay ijtimoiy – psixologik muhit yaratish.

4. O'quvchilarning ijodiy va mustaqil ishlarini samarali tashkil etish.

5. Ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarda zamonaviy ta'lim texnologiyasi elementlaridan foydalanish.

Bugungi ta'lim jarayoni pedagogning shaxsga bo'lgan insonparvarlashtirilgan munosabati bolalarni sevish, ularning taqdiri uchun qayg'urishi, bolalarga ishonchning yuqoriligi, o'zaro hamkorlikning vujudga kelishi, muloqot madaniyatining yuqori darajada bo'lishi, ta'lim oluvchilarni to'g'ridan-to'g'ri majburlashdan voz kechish va aksincha ijobiy rag'batlantirishning usulnligi tufayli ko'zlangan maqsadga erishish, bolalar faoliyatida uchraydigan kamchiliklarga chidamli bo'lish, ularni bartaraf etishning samarali usullarini qo'llashda namoyon bo'lsa, ta'lim jarayonini demokratlashtirish esa o'qituvchi va o'quvchilar huquqlarini tenglashtirish, ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarga tanlash huquqining berilishi, o'z fikri, nuqtai nazarini erkin bayon etishni aqozo etadi. Noan'anaviy ta'lim jarayonida o'quvchilar va o'qituvchilar munosabatining o'ziga xos jihati o'quvchilar mustaqilligi va o'quv faoliyatini boshqarish emas, balki hamkorlikda tashkil etish, ta'lim olishda majburlash emas, balki o'quvchilarni ishontirish, biror-bir faoliyatni amalga oshirish buyruq orqali emas, balki shu faoliyatni samarali tashkil etish, shaxsning ehtiyoji, qiziqishi, imkoniyatlarini chegaralash emas, balki erkin tanlash huquqini berish sanaladi. Yangi munosabatlarning asosiy mohiyati, an'anaviy ta'limda ko'zda tutilgan natijalarni bermayotgan majburan o'qitishdan voz kechish va uning o'rniga:



- o'zaro ishonchga asoslangan talabchanlik;
  - ta'lim jarayonini samarali tashkil etish orqali o'quvchilar o'rtasida qiziqish uyg'otish va ongli intizomni vujudga keltirish;
  - o'quvchilarni muvafaqqiyatli bilim olishga yo'llovchi hamkorlikning paydo bo'lishi;
  - muntazam faoliyatning tashkil etilishi;
  - tegishli talablarni jamoa orqali qo'llashni amalga oshirish muhim sanaladi.
- Noan'anaviy ta'lim jarayonini tashkil etishda:
- o'rta saviyali o'quvchiga nisbatan mo'ljal olishdan voz kechish;
  - o'quvchilarning eng yaxshi sifatlarini aniqlash va rivojlantirish;
  - ta'limda psixologik-pedagogik diagnostikani qo'llash orqali o'quvchilarning qiziqishi, ehtiyoji, qobiliyati, shaxsiy sifatleri, aqliy faoliyatning xususiyatlarini aniqlash;
  - o'quvchilar o'zlashtiradigan bilim, ko'nikma va malakalar dinamikasini tasavvur qilish;
  - o'quvchi shaxsi rivojlanishining dasturiga tegishli o'zgartirishlar kiritish talab etiladi.

## MUNDARIJA

|                                                                                                |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Kirish.....                                                                                    | 3   |
| 1. Geografiya o'qitish nazariyasi va metodikasi fanining maqsadi va vazifalari.....            | 4   |
| 2. Geografiya ta'limda ilmiy tadqiqotlarini tashkil etish.....                                 | 12  |
| 3. Geografiya ta'limda ilmiy tadqiqotlarini tashkil etish.....                                 | 25  |
| 4. Geografiya o'qitishning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari.....            | 38  |
| 5. Geopgrafiya ta'limi metodlari, mashg'ulot mazmuniga ko'ra o'qitish metodlarini tanlash..... | 40  |
| 6. O'quv sayohatlari va ularning turlari.....                                                  | 51  |
| 7. O'quvchilar bilim ko'nimalarini nazorat qilish va baholash usullari.....                    | 63  |
| 8. Iqtisodiy ta'lim metodlari.....                                                             | 80  |
| 9. Iqtisodiy fanlarni o'qitishda amaliy va seminar mashg'ulotlar olib borish metodikasi.....   | 100 |
| 10. Iqtisodiyot darslarida masala, mashq, testlar va tarqatma materiallardan foydalanish.....  | 115 |
| 11. Iqtisodiy ta'lim berishda yangi pededagogik texnologiyalardan foydalanish.....             | 143 |
| 12. Noan'anaviy iqtisodiyot darslarini tashkil etish. Ochiq darslar o'tkazish metodikasi.....  | 166 |



**S.K. Djumabayeva**

# **GEOGRAGIYA VA IQTISODIY BILIM ASOSLARINI O'QITISH METODIKASI**

*(O'quv qo'llanma)*

Muharrir: X. Tahirov

Texnik muharrir: S. Meliquziyeva

Musahhih: M. Yunusova

Sahifalovchi: A. Isxoqov

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020 y.


Bosishga ruxsat etildi 13.12.2023 y.

Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog'ozi. "Cambria"  
garnituras. Hisob-nashr tabog'i. 10,875.

Adadi 100 dona. Buyurtma № 2193311.

«Sarbon LLS» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.





ISBN 978-9910-7516-6-0

9 789910 751660